



**A. TUYCHIYEV, K. IBRAGIMOV**

# **BYUDJET HISOBOTI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

A. TUYCHIEV, K. IBRAGIMOV

# BYUDJET HISOBOTI

*O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2018

UO'K: (650.01) 33(075)

KBK: 65.052ya7

**Taqrizchilar:** *i.f.n.dots.*, A. Avlokulov;  
*i.f.d.* K. Xotamov

**P98 Byudjet hisoboti:** O'quv qo'llanma / A. Tuychiyev, K. Ibragimov; – T.:  
“Iqtisod-Moliya”, 2018. – 280 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet hisobotini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan. O'quv qo'llanmada byudjet hisobotiga doir iboralar, tushunchalar, test savollari, o'zlashtirish uchun savollar, adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

O'quv qo'llanma Toshkent moliya institutining 5A230903 – “Byudjet hisobi va nazorati” magistratura mutaxassisligi talabalari, o'qituvchilar, tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'lib, undan byudjet tizimi byudjetlari ijrosi sohalarida faoliyat yuritayotgan hisobchi mutaxassislar, shuningdek bu fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

3176

UO'K: (650.01) 33(075)

KBK: 65.052ya7

ISBN 978-9943-13-762-2

© A.Tuychiyev, K.Ibragimov, 2018

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2018

671424



## KIRISH

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi va iqtisodiyotning o'zaro integratsiyalashuvi mavjud qonunchilik asoslarini doimiy ravishda takomillashtirib, uni xalqaro normalar hamda standartlarga moslashtirib borishni taqozo etadi. Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan va berayotgan tub o'zgarishlarni miqdor jihatdan ifodalash va sifat jihatdan tavsiflash, nazorat va tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ishonchli axborotlarni olishda buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobotlarning ma'lumotlariga murojaat qilinadi.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgan kundan boshlab barcha sohalarda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatda qisqa vaqt mobaynida bozor munosabatlarining qaror topishi va rivojlanishi uchun obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy shart-sharoitlar yaratildi. *Iqtisodiyotning hozirgi integratsiyalashuvi va globallashuvi* kuchayib borayotgan bir davrda davlat sektorida byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta'minlashda byudjet hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga mos holda yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Respublika iqtisodiyotini tubdan rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida byudjet ijrosi tizimida amalga oshirilgan islohotlarning o'zni beqiyosdir. Jumladan, sohaga oid O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan "Byudjet kodeksi", O'zbekiston Respublikasining *2016-yil 13-aprelda O'RQ 404-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"*gi qonunlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilindi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Harakatlar strategiyasidagi oliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida barcha sohalarga qaratilayotgan e'tibor singari davlat moliyasini boshqarishda xorijiy tajribalardan foydalanib innovatsion usullarni joriy qilish orqali

sohani yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan vositalardan foydalangan holda moliya siyosatini yanada takomillashtirish"<sup>1</sup> vazifalari qo'yilgan.

Ushbu vazifalarni ijrosini amalda ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini isloh qilish yo'nalishlari bo'yicha strategiyasi" qabul qilindi.

Davlat sektori byudjet tizimi byudjetlarida byudjet hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish tartibi qonun talablarida ko'rsatilgan bo'lib, bugungi kunda byudjet hisobotini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarni yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi, byudjet hisobi va hisobotiga doir mavjud nazariy bilim va tushunchalarni chuqur tahlil qilish orqali ularni optimallashtirish hamda davlat byudjetining g'azna ijrosi sharoitida ularni xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish asosiy masalalardan biri bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, bu borada mamlakatimizda Davlat sektorida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida byudjet hisobi va hisoboti tizimini yanada takomillashtirish kontseptsiyasi qabul qilindi. Ushbu kontseptsiyada moliyaviy hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni qamrovi va sifatini oshirishni xalqaro standartlarda umumqabul qilingan tamoyillarga muvofiqlashtirish belgilandi.

Aytish mumkinki byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet hisobini yuritish hamda byudjet hisobotlarini shakllantirishning yagona tartibi belgilangan. Byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bo'yicha choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim qilish tartibining normativ jihatdan mustahkamlanishi byudjet ijrosi jarayonida moliya-hisob

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» PF-4947-son Farmoni, //www.lex.uz

xodimlari uchun amaliyotda yuz beradigan munozarali holatlarning optimal yechimi bo'ldi.

Hozirgi kunda byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet hisobotlarining axborot imkoniyatlari qamrovini xalqaro darajada qabul qilingan normalar darajasiga yetkazish byudjet hisobini yuritishda amalga oshirilayotgan islohotlarni asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bugungi kunda mamlakatimiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida byudjet ijrosiga oid buxgalteriya hisobotlarini shakllantirish xalqaro standartlar talablariga yetkazilmoqda. Ya'ni byudjet ijrosiga oid hisobotlarni uslubiy asoslari Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hamda Davlat moliyasi statistikasi 2001 talablariga asosan takomillashtirilib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan bu islohotlar jarayonida Moliya organlari shuningdek G'aznachilik bo'linmalari buxgalteriya hisobi oldiga davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni shakllantirishda qator vazifalar qo'yiladi. Bu maqsadga erishish xususan byudjet tizimi byudjetlari ijrosini amalga oshirishda byudjet hisobotlarni axborot imkoniyatlarini takomillashtirishni hamda ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi- ni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga asosan davlat mablag'lari haqidagi ma'lumotlarni davlat sektorida hisobga olishning xalqaro standartlariga moslashtirish orqali ularning shaffofligini ta'minlashni amalga oshirish belgilangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar "Byudjet hisoboti" o'quv qo'llanmasining yaratilishi bugungi kunda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

# 1-MAVZU: “BYUDJET HISOBOTI” FANINING PREDMETI, METODI, OBYEKTLARI VA BYUDJET HISOBOTINING USLUBIY ASOSLARI

## REJA:

1.1. *“Byudjet hisoboti” fanining predmeti, metodi, obyektlari va uslubiy asoslari.*

1.2. *Byudjet hisobotlarining tarkibi, ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.*

1.3. *Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari.*

1.4. *Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari.*

1.5. *Byudjet hisobotlarini tuzishda qo‘llaniladigan axborot tizimlari tarkibi.*

1.6. *Byudjet hisobotlarini shakllantirishda Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablari.*

### 1.1. “Byudjet hisoboti” fanining predmeti, metodi, obyektlari va uslubiy asoslari

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi bilan bog‘liq asosiy tushunchalardan biri bu – **“Byudjet”** tushunchasi hisoblanadi. Shunday ekan eng avvalo byudjet hamda unga yaqin bo‘lgan tushunchalarga aniqlik kiritib olishimiz zarur.

**Byudjet** – maqsad uchun mo‘ljallangan pul jamg‘armasi bo‘lib unda daromadlar va xarajatlar manbaalari va yo‘nalishlari nazarda tutiladi. Shu jihatdan oila byudjeti, korxonada byudjeti, davlat byudjeti, davlat jamg‘armalari byudjeti va boshqalar bo‘lishi mumkin.

**Hisob** – jarayon, hodisalarni miqdor jihatdan tavsiflash, sifat jihatdan aks ettirishdir. Hisobni ham bir qancha turlarga ajratish mumkin, ya‘ni tezkor hisob, statistik hisobi, buxgalteriya hisobi va boshqalar. Hisobni tashkil etish asosida axborotlar shakllantiriladi. Bu axborotlar

jarayonni borishini nazorat qilishga, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, joriy va uzoq muddatli rejalar tuzishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**“Hisobotlar** – hisobotlar davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013-yil 2-dekabrda 157-sonli buyrug'ida belgilangan muddatlarda oylik, choraklik va yillik tarzda hamda shakllarda tuziladi”<sup>2</sup>.

**Byudjet jarayoni** – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni hisoblanadi.

Yuqorida izohlangan tushunchalarni o'zaro bog'liqlikda talqin etilishi natijasida byudjet tizimi byudjetlarining **byudjet hisobi** jumlasini vujudga kelishini ko'rishimiz mumkin.

**Byudjet hisobi** – byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek mazkur aktivlar va majburiyatlarni o'zgartiruvchi operatsiyalarning holati to'g'risidagi axborotni to'plash, ro'yxatdan o'tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidir<sup>3</sup>.

**Byudjet hisoboti** – byudjet hisobi ma'lumotlari asosida belgilangan shakllar bo'yicha tuziladigan aktivlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi ma'lumotlarning umumlashtirilgan tizimidir<sup>4</sup>.

Byudjet hisobotining yagona uslubiyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Byudjet kodeksi, byudjet hisobining standartlariga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Byudjet hisobining standartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.


---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar budjetlari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi budjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi”

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasining “Budjet kodeksi” 161-modda.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining “Budjet kodeksi” 161-modda.

Byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va byudjet hisobotining yagona uslubiyatiga rioya etilgan holda byudjet hisobining batafsil bo'lishini ta'minlaydigan ichki idoraviy hujjatlar qo'llanilishi mumkin.



1.1.1-rasm. **Byudjet tizimi budjetlari ijrosining byudjet hisobi**


Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi bo'yicha byudjet hisobi kassa usuli bo'yicha yuritiladi.

**“Byudjet hisoboti” fanining predmeti** - byudjet tizimi byudjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish bilan bog'liq munosabatlardan iborat.

“Byudjet hisoboti” fanining subyektlari bo'lib, moliya organlari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, bo'limlari), O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari, Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar, byudjet tashkilotlari hamda byudjetdan mablag' oluvchilar hisoblanadi.

“Byudjet hisoboti” fanining obyektlari bo'lib, byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet daromadlari va xarajatlari, byudjet pul mablag'lari, byudjet ssudalari, hisoblashuv bo'yicha mablag'lar, aylanma kassa mablag'lari, byudjet tashkilotlarining daromadlari, xarajatlari,

moliyaviy, nomoliyaviy aktivlari, majburiyatlari va moliyaviy natijalari harakati bilan bog'liq hisobotlar hisoblanadi (1.2-rasm).




1.1.2-rasm. Byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bo'yicha byudjet hisobotining obyektlari.

**Byudjet tizimi byudjetlari** – Byudjet tizimi barcha darajadagi (O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari) byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Xususiyashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi) byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari (byudjet

tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tashkilotlarining undiriladigan to'lovlar hisobiga shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag'lari) jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish printsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi


“Byudjet hisoboti” fanining obyektlari bo'lib byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari, Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot, Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar hisoblanadi.



1.1.3-rasm. **Byudjet hisoboti fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi.**

Yuqorida ta'kidlangan jihatlardan kelib chiqib, quyida “Byudjet hisoboti” fanining ko'plab fanlar bilan aloqasi borligini aytish mumkin. Ya'ni boshqa fanlarni o'rganish asosida ushbu fanni chuqurroq o'zlashtirish mumkin ( 1.1.3- rasm)

## 1.2. Byudjet hisobotlarining tarkibi, ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari



### 1.2.1-rasm. Byudjet hisoboti yuqoridagi hisobot turlarini o'z ichiga oladi<sup>5</sup>

Byudjet hisobotlarini tuzishning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular, avvalo davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetini tuzish va ijro etish printsiplariga va boshqa bir qator omillarga bevosita bog'liqdir.

Mazkur asosiy omillarni quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Qat'iy qonunchilik tizimi. Mazkur omilni shunday izohlash mumkinki, byudjet tizimi byudjetlari ijrosiga oid hisobotlarni shakllantirishning qat'iy qonunchilik bilan tartibga solinganligidir. Jumladan, davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar, byudjet tashkilotlarini

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" 162-modda.

byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari harakatiga oid hisobotlar alohida qonuniy hujjatlar bilan tasdiqlangan.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" hamda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013-yil 2-dekabrda 157-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnoma ilovalariga asosan davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar shakllari tasdiqlangan.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash haqida qoidalar (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 15-fevralda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2971)ga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar, mazkur hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari bilan kelishish tartibi va byudjet tashkilotlarining hisobotlari bilan bog'liq boshqa normalar belgilangan.

2. Byudjet tasnifi asosida hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirilishi. Mazkur omil shuni anglatadiki, byudjet tizimi byudjetlari ijrosiga oid hisobotlarni tuzish qat'iy ravishda byudjet tasnifiga bog'langan holda amalga oshiriladi.

Byudjet hisobotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" asosida byudjet tasnifi bo'yicha shakllantiriladi.

Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi.

3. Byudjet hisobotlarini kassa va hisoblash usulida shakllantirilishi – Davlat byudjeti ijrosi, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar kassa usulida shakllantiriladi. Byudjet tashkilotlarida smetalar ijrosiga oid hisobotlar hisoblash usuli asosida shakllantiriladi.

5. Byudjet jarayoni (g'aznachilik). Ma'lumki, byudjet jarayoni davlat byudjetini tuzish, uni ijrosini ta'minlash va nazorat qilish, shuningdek byudjet ijrosini muntazam tahlil qilish bilan bog'liq kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

### **1.3. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari**

Byudjet hisobi va byudjet hisobotining yagona uslubiyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ushbu Kodeks, byudjet hisobining standartlariga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Byudjet hisobining standartlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Budjet hujjatlari va budjet hisobotlarining shakllari, budjet tasnifi yagona bo'lishi hamda budjet tizimi budjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, budjet hisobini yuritish va budjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishi lozim.

*O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi" 8-modda.*

Bevosita byudjet tashkilotlarida byudjet hisobotlari qonunchilik normalari asosida shakllantiriladi.

Xalqaro talablarga to'la mos ravishda qabul qilingan, byudjet ijrosining hisobi borasida ham asosiy tayanch qonunchilik bazasi hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi

to'g'risida"gi qonuni byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi va hisobotini tashkil qilish borasida ham asosiy normalarni belgilab beradi. Jumladan, byudjet hisobining asosiy maqsadi va vazifalari, uning subyektlari va obyektlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobini tartibga solish borasidagi vakolatlari va boshqa bir qator asosiy qonunchilik talablari o'rnatilgan.

Shuningdek, 2014-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan "Byudjet kodeksi" ham byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil qilish, xarajatlar smetasi ijrosini olib borish va uni nazorat qilish, shuningdek byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish, taqdim qilish va boshqa bir qator asosiy qonunchilik normalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar, jumladan, 1999-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli qarori byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish jarayonini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning bir bo'g'ini hisoblanadi.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi esa, umumiy holda buxgalteriya hisobini, shuningdek byudjet jarayonini bir qismini tashkil qilib, foydalanuvchilarni davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi zaruriy moliyaviy axborotlar bilan ta'minlaydi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida turadigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda, o'z tizimidagi tashkilotlarda faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi va hisobotlarining umumiy qoidalarini qo'llash tartibi to'g'risida belgilangan tartibda me'yoriy hujjatlar chiqarishlari mumkin.

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning me'yoriy-huquqiy asoslarini 4 darajaga ajratish mumkin.

1-darajada keltirilgan qonuniy hujjatlar byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning huquqiy asosi bo‘lib hisoblanadi. Qolgan 2-4 darajada keltirilgan hujjatlar byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning uslubiy asosi bo‘lib hisoblanadi.

**Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning  
normativ - uslubiy asoslarini hisob obyektlariga tegishliligi  
bo‘yicha tasnifi**

T/r	Normativ-huquqiy hujjatning nomi	Qabul qilgan organ, ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanasi va raqami	Hujjatning qisqacha mazmuni
<b>TASHKILIY ASOSLAR BO‘YICHA NORMATIV HUJJATLAR</b>			
1	“Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 22-dekabr 2010-yil 2169-son bilan ro‘yxatga olingan	Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkiliy, texnik hamda uslubiy jihatlari, jumladan bosh hisobchi va hisobchilarning huquqlari, majburiyatlari va vazifalari, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi va har bir schyot bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlar, hisob yuritish shakli, shuningdek 63 ta ilova bilan dastlabki hisob hujjatlari, hisob registrlari va boshqa zaruriy hujjatlar tasdiqlangan.
2	“Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan	Byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetalarini, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish tartibi keltirilgan. Shuningdek byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish va taqdim qilish tartibi, shtatlar jadvalini tuzish va taqdim qilish tartibi ham keltirilgan. Bundan tashqari mazkur smetalarni va

			shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish va ularni to'g'ri tuzilganligini nazorat qilish tartibi bayon qilingan.
3	"Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risida"gi Nizom	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 14 yanvar 2004-yil 1297-son bilan ro'yxatga olingan	Yuridik shaxslar tomonidan tuziladigan dastlabki hisob hujjatlariga qo'yiladigan asosiy talablar, hujjatlar aylanish grafisini ahamiyati va uni namunaviy ko'rinishi, dastlabki hisob hujjatlariga buxgalteriyada ishlov berish, ushbu hujjatlarni elektron tuzishda qo'yiladigan asosiy talablar va boshqa qonunchilik normalari keltirilgan.
4	O'zbekiston Respublikasining 19-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish"	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2-noyabr 1999-yil 833-son bilan ro'yxatga olingan	Inventarizatsiyani tashkil qilish, uni o'tkazishning umumiy qoidalari, mol-mulkning ayrim turlari va moliyaviy majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish qoidalari, inventarlash bo'yicha solishtirma-qaydnomalarni tuzish, inventarizatsiya bo'yicha tofovutlarni tartibga solish tartibi va inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish hamda inventarizatsiya bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan.
5	O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 11-oktabr 2010-yil 2146-son bilan ro'yxatga olingan	O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifining asosiy printsiplari, uning strukturasi, jumladan, daromalar tasnifi, uning tarkibi va mazmuni, xarajatlar tasnifi, uning tarkibi: xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi, uning tarkibi va mazmuni, xarajatlarning iqtisodiy tasnifi, uning tarkibi va mazmuni, shuningdek byudjet taqchilligini moliyalashtirish tasnifi, uning tarkibi va mazmuni va boshqa qonunchilik normalari keltirilgan.
<b>ASOSIY VOSITALAR HISOB</b>			
6	"Byudjet tashkilotlari va davlat unitar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-	Byudjet tashkilotlarida bino, inshootlardan tashqari boshqa asosiy vositalarni sotish, shuningdek

	korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan obektlarini sotish, shuningdek ularni sotishdan tushgan pul mablag'larini taqsimlash tartibi to'g'risida" Nizom	yil 31-dekabrda 343-son qarori bilan tasdiqlangan.	sotishdan tushgan mablag'ni taqsimlash tartibi keltirilgan. Ushbu hujjatda sotishdan tushgan mablag'dan byudjet tashkiloti ixtiyorida qoladigan qismini qaysi maqsadlarga sarflanishi belgilangan
7	"1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizom	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 4-dekabr 2002-yil 1192-son bilan ro'yxatga olingan	Asosiy fondlarni qayta baholash, qayta baholashni o'tkazish tartibi va usullari, ularni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirish tartibi va asosiy fondlarni qayta baholash bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan
8	"Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risida" Nizom (yangi tahrirda)	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 29-avgust 2004-yil 1401-son bilan ro'yxatga olingan	Asosiy vositalarni balansdan chiqarishning asosiy talablari (kriteriyalari) va tartibi, ularni hisobda aks ettirish, hujjatlashtirish, shuningdek asosiy vositalarni sotishdan tushgan mablag'larni taqsimlash va hisobda aks ettirish tartibi va boshqa normalar keltirilgan.
9	"Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risida"gi Nizom	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 6-aprel 2004-yil 1334-son bilan ro'yxatga olingan	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha asosiy vositalar bahosini aniqlash, kamomadlarni undirish va tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi, inventarizatsiya natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi va boshqa normalar keltirilgan
<b>TOVAR MODDIY ZAXIRALAR HISOBI</b>			
10	Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan.	Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan tovar moddiy zaxiralar ishlab chiqarishda ularni tannarxini shakllantirish tartibi belgilangan. Bunda tannarxga kiritiladigan hamda kiritilmaydigan xarajatlar


	shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom		belgilangan.
11	Tovar-moddiy boyliklarni olishga ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo'yicha berish tartibi to'g'risida Nizom	27-may 2003-yil 1245-son bilan ro'yxatga olingan	Tovar-moddiy boyliklarni olishga berish tartibi, ishonchnoma blanklarini ko'rinishi va tovar-moddiy boyliklarni ishonchnomalar bo'yicha berish va shu kabi ishonchnoma bilan bog'liq normalar keltirilgan
<b>PUL MABLAG'LARI HISOBI</b>			
12	"Yuridik tashkilotlar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalarini"	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 21-iyunda 2786-son bilan ro'yxatga olingan	Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish tartibi, jumladan, kassa xonalariga qo'yiladigan asosiy talablar, kassirlarning mas'uliyati va javobgarligi, ular tomonidan kassa operatsiyalari bilan bog'liq dastlabki hujjatlarni, shuningdek kassirlik hisobotlarini tuzish va taqdim qilish tartibi va kassa operatsiyalari bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan.
13	"O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida"	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2850	Yagona g'azna hisobvarag'ini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlarining maxfiy xususiyatga ega bo'lmagan daromad va xarajatlarining g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilaydi.
<b>DEBITOR VA KREDITORLAR BILAN HISOBLASHUVLAR HISOBI</b>			
14	O'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini-ng 1997-yil 11-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan.	Xodimlarga qo'shimcha ish haqlari (mehnat ta'tili uchun, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari) hisoblashda o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi keltirilgan
15	Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini-ng 2000-yil 21-noyabrdagi 456-	Tovarlar, xomashyo materiallarni sotib olishda tanlov savdolari o'tkazish jarayonlari hamda tartibi keltirilgan

	to'g'risida	son qarori bilan tasdiqlangan.	
16	O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo'li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagi 69-sonli qarori bilan tasdiqlangan.	Tovar xomashyo birjasida tovarlar, xomashyo materiallarni sotib olishda elektron auksion savdolarni tashkil etish va o'tkazish tartibi keltirilgan
17	Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi 177-sonli qarori bilan tasdiqlangan.	Byudjet tashkilotlari tomonidan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilishda sug'urta to'lovlarini hisoblash tartiblari keltirilgan
18	O'zbekiston Respublikasi Hududidagi xizmat safarlari to'g'risidagi Yo'riqnoma	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 29-avgust 2003-yil 1268-son bilan ro'yxatga olingan	O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlariga chiqishning tartib-qoidalari, xizmat safarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish tartibi va xizmat safari xarajatlari normalari, shuningdek boshqa xizmat safarlari bilan bog'liq qonunchilik normalari keltirilgan.
19	Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 19-noyabrda 2730-son bilan ro'yxatga olingan	Xodimlar O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag' berish me'yorlari hamda tartibi keltirilgan

	mablag' berish tartibi		
20	Byudjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi to'g'risida yo'riqnoma	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 20-sentabr 1995-yil 177-son bilan ro'yxatga olingan	Byudjet tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi keltirilgan
21	"Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va tartibi to'g'risida Nizom"	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 8-may 2002-yil 1136-son bilan ro'yxatga olingan	Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalarini, boshqa to'lovlarni hisoblash hamda to'lab berish tartibi keltirilgan
22	Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizom	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 26-fevralda 2431-son bilan ro'yxatga olingan	Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli tushgan mablag'lar sarfini amalga oshirish me'yorlari keltirilgan
<b>MOLIYAVIY NATIJALARNI SHAKLLANTIRISH HISOBI VA HISOBOTLAR</b>			
23	Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar	(O'z.R.si Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 15-fevralda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2971)	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha qoidalar, mazkur hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari bilan kelishish tartibi va byudjet tashkilotlarining hisobotlari bilan bog'liq boshqa normalar keltirilgan.

#### 1.4. Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari

Hozirgi kunda davlat byudjeti ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunlariga, G'aznachilik va uning hududiy bo'limlarida davlat byudjeti kassa ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan



1.4.1-rasm. Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzishga qo'yiladigan talablar.<sup>6</sup>

<sup>6</sup> Muallif tomonidan me'yoriy hujjatlarga muvofiq tayyorlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari g‘azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma” hamda “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013-yil 2-dekabrda 157-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Yo‘riqnoma ilovalariga asosan byudjet hisobi yuritilmoqda va boshqa tegishli qonuniy hujjatlarga asosan moliya organlari (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, shahar va tuman moliya bo‘limlari byudjet hisobini yuritadi.

Moliya organlari belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari asosida Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar tuzadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlangan shakllarda va muddatlarda Davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar tuzadi va taqdim etadi. Belgilangan tartibda moliya organlari byudjet ijrosi bo‘yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo‘yicha oylik hisobot shaklida byudjetning daromadlari va xarajatlari ijrosi to‘g‘risidagi asosiy ko‘rsatkichlar beriladi. Oylik hisobotda daromadlar byudjet tasnifi bo‘yicha aks ettirilib, aniqlangan reja, bajarilishi, bajarilishi foizda va farqi aks ettiriladi. Hisobotda byudjet xarajatlari ham byudjet tasnifi bo‘yicha aks ettirilib, unda aniqlangan reja, kassa xarajatlari, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar hamda bajarilishi foizda ko‘rsatiladi va farqi aks ettiriladi. Ushbu hisobotda byudjet Davlat maqsadli jamg‘armalari, boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘larning hududiy g‘azna schyotlaridagi, g‘azna tranzit schyotlaridagi qoldiqlari aks ettiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, O‘zbekiston Respublikasi Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar mahalliy byudjetlari ijrosiga oid

hisobot shakllari tasdiqlangan. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosiga oid hisobotlar shakllari tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ga muvofiq Byudjet hisoboti quyidagi hisobot turlarini o'z ichiga oladi:<sup>7</sup>

➤ byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari;

➤ Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarning tushumlari to'g'risidagi hisobot;

➤ Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot;

➤ davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot.

Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari ijrosiga oid hisobotlarni hisobot davrida amalga oshirilgan byudjet ijrosiga oid muomalalarni to'liq aks ettirishi talabi davriy hisobot tuzishdan oldin o'tgan davrda sodir bo'lgan davlat byudjeti g'azna ijrosiga oid muomalalar qaytadan xatlovdan o'tkaziladi va har bir buxgalteriya schyotidagi ma'lumotlar tegishli hisob registrlari va hisob registrlari bilan solishtirib chiqiladi.

### **1.5. Byudjet hisobotlarini tuzishda qo'llaniladigan axborot tizimlari tarkibi**

Byudjet tizimi byudjetlarida hozirgi vaqtda davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar G'aznachilik axborot tizimi, Davlat byudjeti axborot tizimlari dasturiy ta'minotlar yordamida shakllantirilmoqda.

G'aznachilik axborot tizimi yagona o'zaro bog'liq bo'lgan dasturlar kompleksidan tashkil topgan bo'ladi. G'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti – bu g'aznachilik axborot tizimidagi hisoblash jarayonlarini samarali tashkil qilish uchun zarur bo'lgan dasturlar majmuasidan iboratdir. G'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi "Budjet kodeksi" (26.12.2013 y. O'.R.Q. – 360 - son Qonuni bilan tasdiqlangan, 01.01.2014-yildan amalga kiritilgan.)162-modda. Byudjet hisoboti turlari.

ko'plab o'zaro bog'liq bo'lgan modullar va quyi tizimlarning dasturiy majmuasidan tashkil topgan bo'lib, u davlat byudjetining daromad tushumlari va xarajatlarini hisobga olish, hisobotlarni tayyorlash, byudjet tasnifi bo'yicha har kunlik ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash, byudjet ijrosiga oid bo'lgan normativ ko'rsatkichlarning bajarilishini tartibga solib turish kabi byudjet ijrosi jarayonlarini to'liq avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy majmualardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu dasturiy majmualarda joriy qonunchilik asosida amalda bo'lgan imtiyozlar va turli byudjetlararo bosqichlarning o'zaro hisob-kitoblari ham inobatga olinishi zarur bo'ladi. Tizimdagi dasturiy ta'minot orqali kundalik ish jarayonlarining balansini, belgilangan normativ hisobotlarni, to'lov hujjatlarini va boshqa so'rovnomalarga javoblarni chop etishni ta'minlab berish ham talab etiladi. G'aznachilik axborot tizimi dasturlar kompleksining tarkibiga quyidagi vazifalar kiradi: byudjet loyihasini tuzish; byudjet daromadlari va xarajatlari yoyilmasini tuzish; qo'shimcha yoyilmani tuzish; yoyilmani aniqlashtirish va byudjet yoyilmasi asosida moliyalashtirish rejasini tuzish va aniqlashtirish; byudjet belgilanishlarining o'zgarishlari to'g'risidagi bildirish-ma'lumotnomasini tuzish; xarajatlarni to'lash uchun topshiriqnomalarni tuzish; xarajatlarni to'lash uchun jamlama reyestr topshiriqnomalarini tuzish; memorial ordyerlarni tuzish; moliyaviy jarayonlarning natijalari bo'yicha bosh kitoblar; har xil qismlardagi bevosita hisobotning o'zini tayyorlash; byudjet asosiy parametrlari bo'yicha prognozlash va quyi byudjetlarga byudjet parametrlarini yetkazish; g'aznachilik organlarining buxgalteriya hisoboti bo'yicha asosiy va yordamchi kitoblarini kiritish; moliyalashtirish uchun byudjet qabul qiluvchilardan talabnomalarni olish, moliyalashtirish rejasi va yoyilma bilan talabnomalarni taqqoslash; talabnomalarni tartibga solish va jamlash; hujjatlarni qabul qilish va YaG'HR bilan bog'liq jarayonlar uchun Markaziy Bankka tayyorlanadigan va jo'natiladigan to'lov hujjatlarini ta'minlaydigan quyi tizimda, buxgalteriya kitoblarida amalga oshirilgan jarayonlarni ko'rsatish; markaziy g'aznachilikka moliyalashtirish haqidagi ma'lumotlarni tayyorlash; axborot xavfsizligini

barcha miqyosda ta'minlash, axborotlarning paydo bo'lishi, shakllanishi, saqlanishi va uzatilishini uzluksiz ta'minlash.

G'aznachilik axborot tizimining asosiy xususiyatlari va imkoniyatlari undagi tizimli va amaliy dasturiy ta'minotlarining (ADT) imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. G'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti majmuasi quyidagi funksiyalar bajarilishini to'la-to'kis ta'minlashi lozim:

- YaG'HR da davlat byudjetining daromad tushumlari bo'yicha hisob-kitoblarni, hisobotlarni, axborotlarni qayta ishlashni tahlil qilish va axborotlarni muntazam ravishda saqlab turish;

- tasdiqlangan reja bo'yicha davlat byudjetining ijrosiga oid kelib tushayotgan daromad tushumlari va xarajatlari bo'yicha dolzarb va ishonchli axborotlarni etkazib turish;

- byudjet ijrosi bo'yicha yuqori tashkilotlarga ma'lumotlar, so'rovlarni, statistik va tahliliy axborotlarni tezkor yetkazib berish;

- hisobot, hisob-kitoblar va to'lov hujjatlarini shakllantirish;

- byudjet ijrosi bo'yicha boshqa tashkilotlar axborot tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lish va o'zaro axborot almashinuvini ta'minlash;

- g'aznachilik axborot tizimi dasturiy ta'minotining tuzilmaviy tuzilishiga rioya etish imkoniyatlarini yaratish.

G'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti o'z tarkibiga g'aznachilikning asosiy funksiyalari va masalalarini yechishga imkon beruvchi, uning texnik vositalar majmualarining barqaror ishlashini ta'minlovchi barcha dasturiy majmualarini birlashtiradi. Uning tarkibiga umumiy va maxsus dasturiy ta'minotlar, dasturlarni qo'llash uchun yaratilgan uslubiy-yo'riqnoma materiallari, dastur tuzuvchilar va dasturlarni doimiy kuzatib boruvchi dasturchi xodimlar kiradi. Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, g'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti tarkibiga umumiy, funksional, tashxislovchi dasturiy ta'minotlar va dasturlarni qo'llash bo'yicha hujjatlar taalluqlidir.

**Umumiy dasturiy ta'minot tarkibiga** ish o'rinlari kompyuterlari va lokal hisoblash tarmoqlari tizimlarining muntazam ishlab turishini

ta'minlovchi operatsion tizimlar kiradi. Umumiy dasturiy ta'minotning maqsadi amaliy dasturlarni ishga tushirish va ularning bajarilish jarayonlarini boshqarib turishdan iboratdir. Umumiy dasturiy ta'minot tarkibiga "Windows NT", "UNIX", "OS/2", "Netware (Nowell)" kabi operatsion tizimlar hamda ish o'rinlari faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan "Internet explorer" va boshqa dasturlar kiradi.

Umumiy dasturiy ta'minot tarkibiga ko'pchilik foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan hamda hisoblash jarayonlarini tashkillashtirish, tez-tez uchrab turadigan masalalarni yechish va axborotlarni qayta ishlashga qaratilgan dasturlar kiradi. Shuningdek ular tarkibiga kompyuterlarning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, hisoblash jarayonlarining ketma-ketligi navbatini rejalashtirishni avtomatlashtirish, axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish, dasturchilar faoliyatini avtomatlashtirish imkonini beradigan dasturlar ham kiradi.

**Funksional dasturlar ta'minoti tarkibiga** bajariluvchi dasturlar kirib, ular asosan majmuaviy funksional masalalar yechilishini va quyi tizimlar faolligini muntazam ta'minlab turishga qaratilgandir.

**Tashxislovchi dasturiy ta'minot tarkibiga** g'aznachilik axborot tizimi funksional dasturlari va quyi tizimlarining to'g'ri ishlashini, namuna misollari yordamida majmuaviy test nazorati o'tkazib turuvchi, kompyuterlarni yoki boshqa texnik vositalarni tayyorlovchi zavodlar yoki ularni yetkazib beruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ularning to'g'ri ishlashining test nazoratini bajaruvchi maxsus dasturlar kiradi.

**Maxsus dasturiy ta'minot tarkibiga** esa g'aznachilik axborot tizimini yaratishda ma'lum bir funksional masalalarni yechish uchun ishlab chiqilgan maxsus dasturlar to'plami kiradi. Uning tarkibiga funksional masalalarni yechishda ma'lumotlarni tashkillashtirish va ularni qayta ishlash bilan bog'liq amaliy dasturiy paketlari ham kiradi.

Umuman olganda g'aznachilik axborot tizimining dasturiy ta'minoti barcha texnik vositalar qismlarining bir-birlari bilan moslashgan holda ishlashlarini va ularning foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqalarini ta'minlab berishi lozim bo'ladi.

Zamonaviy g'aznachilik axborot tiziminining umumiy va funksional dasturiy ta'minotlarining tuzilmalarini quyidagi talablardan kelib chiqqan holda shakllantirilishi talab etiladi:

- g'aznachilik tizimini boshqarishning tsikli byudjet ijrosi jarayonlarini boshqarishdagi to'rtta asosiy faoliyatni, ya'ni rejalashtirish, hisob, nazorat va tahlilni o'z ichiga qamrab olishi kerak;

- tizimdagi hisob va nazorat masalalarini yechishni tashkil qilish "hisob tizimlari" yordamida, ya'ni tranzaksiyalarni va qaydlarni hisobga olishga imkon beruvchi OLTP–tizimi orqali ta'minlanishi zarur;

- rejalashtirish va tahlil qilish masalalarini yechishni tashkil qilish "tahlil tizimlari" orqali, ya'ni OLAP–tizimi orqali ta'minlanishi kerak;

- integratsiya qilish vazifasi hamma uchun yagona bo'lgan me'yoriy-so'rovnoma axborotlariga va elektron hujjatlar almashinuvi jarayonlariga yuklatish orqali amalga oshirilishi lozim.

Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari UzASBO dasturiy ta'minot yordamida shakllantirilmogda. UzASBO dasturiy ta'minot yordamida Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarining barcha shakllari tuziladi va g'aznachilik bo'linmalariga elektron uzatiladi.

## **1.6. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda Davlat sektori uchun moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari talablari<sup>8</sup>**


*Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Xalqaro buxgaltyerlar uyushmasi tarkibidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi tomonidan ishlab chiqiladi(1.6.1-rasm). Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (IPSAS) – davlat sektoridagi tashkilotlarda (davlat ishtirokidagi tijorat korxonalaridan tashqari) yuqori sifatda jahon standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha xalqaro miqyosda umumqabul qilingan qoidalardir. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot*

---

<sup>8</sup> <http://www.ifac.org/publicsector> - Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi veb-sayti.

standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi a'zolari Xalqaro buxgaltyerlar uyushmasi tomonidan tayinlanadi. Jami 18 a'zo bo'lib 15 tasi Xalqaro buxgaltyerlar uyushmasi tomonidan, 3 tasi jamoatchilikdan tavsiya etiladi. Kengashning jamoatchilik a'zolari har qanday shaxsdan yoki tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin. Bundan tashqari Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari kengashiga cheklangan miqdorda davlat sektorida moliyaviy hisobotga manfaatdor organlardan kuzatuvchilar tayinlanadi va ular yig'ilishda fikr bildirish huquqiga ega, lekin ovoz berish huquqiga ega emas. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi tomonidan maslahat guruhi tashkil etiladi va ular ishchi guruh hisoblanib ovoz berish huquqidan foydalanmaydi. Maslahat guruhi rahbari bo'lib Kengash raisi hisoblanadi.



### 1.6.1-rasm. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashining maqsadi


Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi ishlab chiqadi:

- hisoblash usulida qo'llaniladigan Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari;
- kassa usulida qo'llaniladigan Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari.

Hisoblash (H) usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar, majburiyatlar) ular sodir bo'lgan paytda (pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lmagan holda) tan olinadi.

Kassa (K) usulida operatsiyalar va barcha hodisalar (daromadlar, xarajatlar) pul mablag'lari harakatiga bog'liq bo'lgan holda qayd qilinadi yoki tan olinadi. Amaliyotda qisman mamlakatlar kassa usulida (sof holda) hisobni yuritadi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hodisalar va operatsiyalarni moliyaviy hisobotda aks ettirish talablari (tan olish, baholash, axborotlarni ochib berish, axborotlarni taqdim etish)ni belgilaydi (1.6.2-rasm).



### 1.6.2-rasm. Davlat sektori uchum moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarining bo'limlari tarkibi

Davlat sektori uchum moliyaviy hisobotlarning standartlari quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish;
2. Hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqarayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi;
3. Hisobni yuritishda to'la foydalanish uchun qabul qilish (standartlardan o'zgartirishsiz foydalanish).

*Davlat sektori uchun moliyaviy hisobotlarning standartlarini mamlakatlarda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, axborotlarni shaffofligini oshiradi, byudjetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarni ishonchliligi va to'liqligini oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi, moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati yaratiladi, xalqaro munosabatlarni globallasuvi sharoitida mamlakat majburiyatlari qandayligi va uni o'z resurslari bilan qanday boshqarayotganligi shuningdek moliyaviy holatni tushinish asosida chet el investitsiyalari xajmini oshishi va donorlik mablag'larini ko'payishi imkonini beradi.*

*Hisoblash usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hisoblash (moliyaviy hisobotlar ular oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarishi uchun hisoblash usuli bo'yicha tuzilishi kerak) hamda faoliyatni uzluksizligi (moliyaviy hisobot odatda tashkilot faoliyat ko'rsatyapti va operatsion faoliyatini bundan keyin ham davom ettiradi degan taxmin asosida tuziladi) tamoyillariga asoslangan.*

*Hisoblash usuliga asoslangan moliyaviy hisobot tarkibi:*

- moliyaviy holati haqida hisobot;
- faoliyatning moliyaviy natijalari haqida hisobot;
- sof aktiv/kapital o'zgarishi haqida hisobot;
- pul mablag'lari harakati haqidagi hisobot;
- tasdiqlangan byudjet.

*Moliyaviy holati haqida hisobotda taqdim etiladigan axborotlar - asosiy vositalar, investitsion ko'chmas mulk, nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar, investitsiyalar, zaxiralar, almashuvsiz muomalalardan tushum (soliq va transfertlar), valyuta almashuv muomalalaridan tushumlar, pul mablag'lari va pul ekvivalentlari, to'lanadigan soliqlar va transfertlar, valyuta almashuv muomalalariga to'lovlar, rezervlardan iborat.*


*Faoliyatning moliyaviy natijalari haqida hisobotda taqdim etiladigan axborotlar – tushum, moliyalashtirish bo'yicha xarajatlar, ulushli metodda hisobga olinadigan uyushma tashkilotlarini profitsit yoki defitsitdagi ulushi,*

aktivlarni chiqib ketishi yoki majburiyatlarni tugatish bo'yicha soliq to'langunga qadar foyda va zarar, profitsit yoki defitsitdan iborat.

Sof aktiv/kapital o'zgarishi haqidagi hisobotda taqdim etiladigan axborot - hisobot davri profitsiti yoki defitsiti, tushumlar va xarajatlar moddalari bo'yicha jamlanmasidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ga muvofiq byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi hisoblash usulida yuritilishi nazarda tutilgan.

Kassa usulidagi Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari majburiy talablar (kassa usulidagi hisobga asoslangan moliyaviy hisobotlarni tuzishga qo'yilgan asosiy talablar keltirilgan) hamda majburiy bo'lmagan talablar (axborotlarni ochib berishda moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobdorligini hamda shaffofligini oshirish uchun subyekt tomonidan hisob siyosatida qo'shimcha belgilangan usullarni e'tirof etadi)dan iborat. Ya'ni kassa usuliga asoslangan Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari tashkilotlarga ixtiyoriy ravishda moliyaviy hisobotda hisoblash usulidagi axborotlarni ochib berishni tavsiya etadi. Bu o'z navbatida hisobni yuritishda kassa usulidan hisoblash usuliga o'tishga qulaylik yaratilishini ta'minlaydi.



1.6.3-rasm. Davlat moliyasi statistikasi talab etadigan hisobot shakllari<sup>9</sup>

<sup>9</sup> Muallif tomonidan me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlangan.

*Umuman davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan xalqaro tajribalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.*

*Xulosa qilib aytganda dunyodagi barcha mamlakatlar milliy hisob va hisobot tizimini shakllantirishda Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablaridan foydalanishi natijasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, investitsiyalarni jalb etishga hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini boshqa mamlakatlar ko'rsatkichlari bilan solishtirish imkonini beradi.*

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *“Byudjet hisoboti” fanining predmeti va metodi deganda nimani tushunasiz?*

2. *Byudjet hisobotining obyektlari va subyektlarini sanab bering.*

3. *“Byudjet hisoboti” fanining mazmun va mohiyatini tushuntiring.*

4. *Byudjet hisobotlarining tarkibi, ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari haqida gapirib bering.*

5. *Davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda “Byudjet hisoboti”ning o'rni va ahamiyatini izohlang.*

6. *Byudjet hisobotini shakllantirishda moliya organlarining vakolatlari nimalardan iborat?*

7. *Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari nimalardan iborat?*

8. *Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari nimalardan iborat?*

9. *Byudjet hisobotini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari deganda nimalarni tushunasiz?*

10. *“Byudjet hisoboti” fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi haqida gapirib bering.*

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot qaysi vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi;
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini;
- C) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
- D) Yuqorida turuvchi vazirliklar tomonidan

**2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni hisobot yilidan keyingi qaysi muddatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi?**

- A) 15-fevralgacha;
- B) 1-martgacha;
- C) 1-aprelgacha;
- D) Qonunchilikda belgilangan muddatda.

**3. Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qaysi muddatlarda taqdim etadi?**

- A) Yuqori turuvchi vazirliklar belgilagan muddatda;
- B) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda;
- C) Hisobot yilidan keyingi yilning 1-martigacha bo'lgan muddatlarda;
- D) To'g'ri javob keltirilmagan.

**4. O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobotini tashkil etishni tasdiqlash qaysi normativ-huquqiy hujjatga asosan tartibga solinadi?**

- A) "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'zR qonuniga asosan;
- B) "Byudjet kodeksi"ga asosan;
- C) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyruqlari, uslubiy A) ko'rsatmalariga asosan;

D) Davlat moliyasi tizimi qonuniy hujjatlariga asosan.

**5. “Byudjet hisoboti” fani predmeti nimani o‘rganadi?**

A) Byudjet ijrosi jarayonida mablag‘lar va ularni tashkil bo‘lish manbaalari harakatini;

B) Byudjet hisobotlarini tuzish va taqdim etishni;

C) Byudjet ijrosi jarayoni natijalari axborotlarini shakllantirishni tasdiqlash va taqdim etish bilan bog‘liq munosabatlarni;

D) To‘g‘ri javob keltirilmagan.

**6. Tumanlarning, shuningdek respublika (Qoraqalpog‘iston), viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlarning moliya organlari shahar, tuman byudjetining hisobot davridagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlari qaysi muddatda taqdim etiladi.**

A) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi bilan kelishilgan muddatlarda;

B) Viloyat, shahar, Respublika (Qoraqalpog‘iston) moliya organlari tomonidan belgilangan muddatda;

C) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda;

D) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda.

**7. Byudjet tashkilotlarini davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish qaysi me‘yoriy hujjatga asosan tartibga solinadi?**

A) 2017-yil 7-oktabrda 2260-son bilan O‘zR Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tgan Nizomga asosan;

B) 2008-yil 13-oktabrda 1865-son bilan O‘zR Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tgan Nizomga asosan;

C) 2018-yil 15-fevralda 2179-son bilan O‘zR Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tgan qoidalarga asosan;

D) 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan O‘zR Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tgan Nizomga asosan.

**8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar qaysi organlar tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi?**

A) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

B) O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi;

C) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari;

D) Hammasi to‘g‘ri.

**9. Moliya organlarida, shuningdek G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalarida Davlat byudjeti ijrosi bo‘yicha hisobotlar qaysi me‘yoriy hujjatga asosan tuziladi va taqdim etiladi?**

A) “Davlat byudjeti ijrosi buxgalteriya hisobi va hisobotlari yuritish tizimini muvofiqlashtirish choralari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 23-iyuldagi 99 – sonli buyrug‘i;

B) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyruqlari va uslubiy ko‘rsatmalari bo‘yicha xatlariga asosan;

C) “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosiga oid hisobot shakllarini muvofiqlashtirish choralari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 31-dekabrda 121-sonli buyrug‘i;

D) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-sonli buyrug‘i.

**10. Davlat maqsadli jamg‘armalariga mablag‘lar tushumi va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlar qaysi muddatlarda taqdim etiladi?**

A) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etadi;

B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasiga Moliya vazirligi belgilagan muddatda;

C) Qonunchilikda belgilangan muddatda;

D) 1 va 3 bandlarida keltirilgan muddatlarda.

### **11. Byudjet tizimi byudjetlari**

A) Davlat byudjeti;

B) Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti;

C) Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari;

D) Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari.

## **2-MAVZU: BYUDJET TASHKILOTLARI VA BYUDJET MABLAG‘LARI OLUVCHILARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI**

### **REJA:**

2.1. *Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari tarkibi ularni tuzishning maqsadi va xususiyatlari.*

2.2. *Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansini tuzilishi, ko‘rsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o‘zaro muvofiqligi.*

2.3. *Xarajatlar smetasi ijrosi to‘g‘risida hisobotni hamda debitorlik va kreditorlik qarzarlar to‘g‘risida ma‘lumotni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o‘zaro muvofiqligi.*

2.4. *Byudjetdan tashqari mablag‘lar harakati bo‘yicha hamda byudjet tashkilotlarida chet el valyuta mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi moliyaviy hisobotlari shakllarini tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o‘zaro muvofiqligi.*

2.5. *Joriy yilga moliyaviy natijalar, nomoliyaviy aktivlar harakati to‘g‘risida hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o‘zaro muvofiqligi.*

2.6. *Moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi.*

### **2.1. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari tarkibi ularni tuzishning maqsadi va xususiyatlari**

Byudjet tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotidir.

Byudjet mablag‘lari oluvchi - Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlaridan mablag‘lar oladigan yuridik yoki jismoniy

shaxsdir. Byudjet mablag'lari oluvchi byudjet tashkiloti maqomiga ega bo'la olmaydi.

Byudjet tashkilotlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatiladi.

Yillik moliyaviy hisobotlar hisobot yilidan keyingi yilning 1-yanvar holatiga tuziladi. Choraklik moliyaviy hisobotlar hisobot yilining 1-aprel, 1-iyul va 1 oktabr holatiga tuziladi. Tashkilotlar set, shtat va kontingentlar rejalarini bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllarga muvofiq tuzib topshiradilar. Amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilmagan holda moliyaviy hisobotlar shakllariga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan topshiriladigan yillik moliyaviy hisobotlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Balans (1-shakl);
- Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl);
- Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot;
- Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;
- Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;
- Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobot;
- Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobot;
- Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot;
- Nomoliyaviy aktivlarning harakati to'g'risida hisobot;
- Chet el valyutasi mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.

Agarda, tashkilotlar qonunchilikka muvofiq hisobot davrida mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish faoliyatlarini amalga oshirsa, u holda ushbu faoliyatlari bo'yicha belgilangan tartibda va

muddatlarda moliya organlariga 2-shakl – “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”ni taqdim qiladilar.

Tashkilotlar tomonidan topshiriladigan choraklik moliyaviy hisobotlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Balans (1-shakl);
- Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl);
- Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risida ma‘lumot;
- Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha pul

mablag‘lari harakati to‘g‘risida hisobot;

- Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida hisobot;

- Ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar harakati to‘g‘risida hisobot;

- Boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar harakati bo‘yicha hisobot;

- Chet el valyutasi mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot.

Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xati ilova qilinadi. Ushbu tushuntirish xatida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar ijrosi jarayonida vujudga kelgan asosiy omillar, jumladan, byudjetdan ajratilgan mablag‘larni iqtisod qilinishining sabablari (tahlillari) (agarda iqtisod qilingan bo‘lsa), debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablari va davri, agarda muddati o‘tgan qarzdorlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, undirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar, qonunchilikka muvofiq tashkilotlarga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lar va ularning sarflanishi, shuningdek, tashkilot tomonidan hisobot davrida kirim qilingan va sarflangan qog‘oz to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, o‘g‘irlik va kamomadlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va moliyaviy hisobotlar bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tushuntirishlar keltiriladi. Bundan tashqari, hisobot yilining birinchi choragi bo‘yicha moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xatida asosiy vositalar va boshqa aktivlarni (jumladan, tugallanmagan qurilish va o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni) qayta baholash bo‘yicha axborotlar ochib beriladi.

Tushuntirish xati tashkilot rahbari yoki uning o‘rinbosari (birinchi imzo huquqidan foydalanuvchi shaxs), tashkilot bosh hisobchisi yoki uning o‘rinbosari (ikkinchi imzo huquqidan foydalanuvchi shaxs) hamda moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i (shtatlar jadvaliga muvofiq holda reja-iqtisod bo‘yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Moliyaviy hisobot shakllaridagi barcha rekvizitlar va nazarda tutilgan ko‘rsatkichlar to‘ldirilishi kerak. Tashkilotlarda tegishli aktivlar, passivlar va operatsiyalarning mavjud emasligi sababli biror-bir modda (satrlar, ustunlar) to‘ldirilmagan taqdirda, ushbu modda (satr, ustun) ustidan chizib qo‘yiladi. Moliyaviy hisobotlar shakllari (jamlanma hisobotlardan tashqari) “Bosh-jurnal kitobi” (308-shakl) va boshqa tegishli hisob registrlari ma’lumotlari asosida tuziladi.

Moliyaviy hisobotlar shakllarining manzil (ust) qismi quyidagi tartibda to‘ldiriladi:

-“Tashkilot nomi” rekvizitida tashkilotning to‘liq nomi ko‘rsatiladi;

-“Bo‘lim, kichik bo‘lim, bob” rekvizitida tashkilotning byudjet tasnifining vazifaviy va tashkiliy jihatdan bo‘linishi (belgilanishi) keltiriladi;

-“Hisobot davri” rekvizitida hisobot tuzilayotgan tegishli davr (yil, chorak, oy) ko‘rsatiladi;

-“Byudjet turi” rekvizitida tashkilot tomonidan hisobot berilayotgan mablag‘ning manbasi O‘zbekiston Respublikasi byudjet tasnifiga muvofiq mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifining kodlari keltiriladi;

- “O‘lchov birligi” rekvizitida hisobot tuzilayotgan o‘lchov birligi keltiriladi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda quyidagi asosiy shartlar to‘liq saqlanishi lozim:

-hisobot davridagi barcha operatsiyalar hamda pul mablag‘lari, asosiy vositalar, moddiy boyliklarning inventarizatsiya qilinishi va hisob-kitoblar natijalarining to‘liq aks ettirilishi;

-analitik hisob ma’lumotlarining hisobot davrining birinchi sanasiga sintetik hisob yuritish hisobvaraqlari bo‘yicha aylanmalar va qoldiqlarga

bir xil bo'lishi, shuningdek moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlariga mosligi;

-moliyaviy hisobotlardagi tegishli yozuvlarni qayd etish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi hujjatlarning asos bo'lib xizmat qilishi.


Ushbu asosiy shartlarga rioya qilinmagan holda tuzilgan moliyaviy hisobotlar noto'g'ri tuzilgan deb hisoblanadi.

Tashkilotlar jamlama moliyaviy hisobotlarni o'zlari ko'rib chiqqan tasarrufdagi quyi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari hamda o'zining moliyaviy hisobotlari asosida tuzadilar. Moliyaviy hisobotlar, qoida tariqasida, o'sib boruvchi tartibda bitta o'n xonali sonda ming so'm hisobida tuziladi. Agarda, me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini buzmaganda holda moliyaviy hisobotlar ko'rsatkichlari manfiy qoldiq bilan chiqsa (manfiy qoldiqqa ega bo'lsa), u holda hisobotlarda ushbu ko'rsatkichlar "minus" ishora bilan aks ettiriladi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, shubhasiz balans (1-shakl) markaziy o'rinni egallaydi va byudjet tashkilotining ma'lum davrga barcha moliyaviy ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiradi.

Qolgan hisobot shakllari esa, mazkur balansda aks ettirilgan moliyaviy ko'rsatkichlarni ayrimlarini detallashtirib, aniq ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa, tashkilotlar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlarni uzluksizligini, o'zaro muvofiqligini va tizimlilikini ta'minlaydi.

Byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tuzishdan maqsad smetalar ijrosi jarayonida aktivlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi axborotni shakllantirish, taqdim etish uchun umumlashtirishdir. Bu axborotlar kelgusida byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'i oluvchilar faoliyatiga oid tegishli qarorlar qabul qilishga ya'ni smetalarni shakllantirish, moliyaviy nazoratni amalga oshirishga asosiy manba hisoblanadi.



**2.1.1-rasm. Byudjet tashkilotlarida moliya yilini yakunlash va hisobotlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarni sxematik ko'rinishi**

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarini tuzishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Hisobotlar hisob yuritishning hisoblash usuli talablari asosida shakllantiriladi.

2. Byudjet mablagʻlari va byudjetdan tashqari mablagʻlar harakati boʻyicha alohida hisobotlar tuziladi.

3. Byudjetdan tashqari pul mablagʻlar harakati toʻgʻrisidagi hisobotlar byudjetdan tashqari mablagʻlar turlari boʻyicha alohida –alohida shakllantiriladi.

4. Hisobotlarda kassa va haqiqiy xarajatlar toʻgʻrisida axborotlar ochib beriladi

5. Xarajatlarni iqtisodiy tasnifi boʻyicha kassa va haqiqiy xarajatlar koʻrsatkichlari shakllantiriladi.

Shu kabi byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarini tuzishning bir necha xususiyatlarini aytib oʻtish mumkin.

## **2.2. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansini tuzilishi, koʻrsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan oʻzaro muvofiqligi**

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansi bu tashkilot mablagʻlarini ularni turlari va tashkil topish manbaalari boʻyicha muayyan bir davrga pulda ifodalanib umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhlashdir. Byudjet tashkilotlari balansi tarkibi aktiv va passiv qismlardan iborat boʻlib, aktiv tomoni nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlar boʻlimlaridan iborat. Balansni passiv tomoni kreditorlar, moliyaviy natijalar boʻlimlaridan iborat.

Balans (1-shakl)ni tuzishdan oldin barcha mavjud memorial ordyerlar bilan rasmiylashtirilgan buxgalteriya provodkalarini dastlabki hujjatlarga muvofiq holda toʻgʻri tuzilganligi hamda “Bosh-jurnal kitobi” (308-shakl)ga toʻgʻri yozilganligi, subschyotlar boʻyicha oylik aylanmalar

va hisobot davri oxiriga “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) bo‘yicha qoldiqlar to‘g‘ri hisoblanganligi tekshirib chiqiladi.

**Byudjet tashkilotining daromadlar va xarajatlar smetalarini  
ijrosi bo‘yicha buxgalteriya balansi**

AKTIV		PASSIV	
Bo‘lim		Bo‘lim	
I	Nomoliyaviy aktivlar	IV	Kreditorlar
II	Moliyaviy aktivlar	V	Moliyaviy natijalar
III	Debitorlar		
	BALANS		BALANS
Byudjetdan tashqari hisoblar			

Hisobot davri oxiriga “Bosh-jurnal kitobi”da chiqarilgan qoldiqlar balansning “Yil (chorak) oxiriga” ustuniga ko‘chirib yoziladi.

Bunda, debitor va kreditor qarzlarni hisobga oluvchi subschyotlar bo‘yicha debitorlar va kreditorlar umumlashtirilmasdan, ya’ni, mavjud debitorlar balansning aktiv qismida, kreditorlik qarz esa, passiv qismida ko‘rsatiladi. Ushbu debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 285-shakl “Aylanma vedomost” va boshqa tegishli hisob registrilaridan olinadi.

“Yil boshiga” ustuni bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘tgan hisobot yili balansining “Yil (chorak) oxiriga” ustuni bo‘yicha ko‘rsatkichlarga aynan bir xil holda ko‘chiriladi. Agarda, tashkilot hisobot yilining 1-yanvaridan keyin tashkil topgan bo‘lsa, u holda balansning ushbu “Yil boshiga” ustuni to‘ldirilmaydi.

Balansning aktiv qismidagi “Yil (chorak) oxiriga” ustuni bo‘yicha:

"1-§. Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli nomoliyaviy aktivlar" paragrafining "Asosiy vositalar: Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati" qatorida tashkilotlarning hisobot davri oxiriga mavjud barcha asosiy vositalari, shu jumladan, ijaraga berilganlari ham dastlabki (tiklanish) qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Qayta baholash natijalari bo'yicha aniqlangan asosiy vositalarning tiklanish qiymati choraklik va yillik balanslarda "Yil boshiga" ustunida kasr chizig'i bilan (mahrajida) aks ettiriladi.

"Eskirish summasi" qatorida asosiy vositalarning balans tuzilgan hisobot davri oxiriga hisoblangan eskirish summasi aks ettiriladi.

"Qoldiq (balans) qiymati" qatorida asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymatidan hisoblangan eskirish qiymatini farqi (010-qatorda aks ettirilgan asosiy vositaning dastlabki (tiklanish) qiymatidan 011-qatorda aks ettirilgan eskirish summasini ayirmasi) aks ettiriladi.

"Nomoddiy aktivlar" qatorida tashkilotning hisobot davri oxiriga mavjud nomoddiy aktivlarining qiymati ko'rsatiladi.

"2-§. Noishlab chiqarish aktivlari" qatorida ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lmagan kapital xarajatlar, jumladan, yerni obodonlashtirish uchun amalga oshirilgan xarajatlar (040-subschyot) aks ettiriladi.

"3-§. Tovar-moddiy zaxiralar" paragrafida hisobot davri oxiriga mavjud bo'lgan tayyor mahsulot, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon va yarani bog'lash vositalari, inventar va xo'jalik jixozlari, yonilg'i, yoqilg'i-moylash materillari, mashina va asbob-uskunalarining ehtiyot qismlari va boshqa tovar-moddiy zaxiralarning qoldiq summalari ko'rsatiladi.

"4-§. Nomoliyaviy aktivlarga qo'yilmalar" paragrafida o'ratish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar, tugallanmagan qurilish, asosiy vositlarga boshqa xarajatlar, nomoddiy aktivlarga boshqa xarajatlar, tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar va tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi subschyotlarning "Bosh-jurnal kitobi" (308-shakl) bo'yicha hisobot davrining oxiriga qoldiq summasi aks ettiriladi.

"Moliyaviy aktivlar" bo'limida mavjud hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, akkreditivlar, kassadagi naqd pul qoldiqlari va boshqa pul mablag'larining, shuningdek g'aznachilik bo'linmalaridagi shaxsiy hisobvaraqlardagi pul mablag'larining balans tuzilayotgan sanaga qoldiq summalari aks ettiriladi.

"Debitorlar" bo'limida yil (chorak) oxiriga barcha hisob-kitoblar bo'yicha qoldiq summalar (debitorlik qarzlari) aks ettiriladi.

Balansning passiv qismidagi "Yil (chorak) oxiriga" ustuni bo'yicha:

"Kreditorlar" bo'limida yil (chorak) oxiriga barcha hisob-kitoblar bo'yicha qoldiq summalar (kreditorlik qarzlari) aks ettiriladi.

"Moliyaviy natijalar" bo'limida tashkilotning joriy yilga moliyaviy natijalari (300-343 qatorlar), shuningdek, yakuniy moliyaviy natijasi (350-356 qatorlar) har bir daromad (tushum)larning turlari bo'yicha alohida holda aks ettiriladi.

Bunda, joriy yilga moliyaviy natijalar (300-343 qatorlar) bo'yicha ko'rsatkichlar yillik balansda aks ettirilmaydi.

"Balansdan tashqari schyotlar" bo'limida tashkilotlarning balansdan tashqari schyotlarida hisobot davri oxiriga aks ettirilgan summalar ko'rsatiladi.

### **2.3. Xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobotni hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi**

Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobotni tuzishdan oldin tashkilotlar:

- tasdiqlangan xarajatlar smetalariga belgilangan tartibda kiritilgan o'zgartirishlarning hisob registrlariga (294-shakl daftarlariga) to'g'ri yozilganligini;

- hisobot davri uchun byudjetdan moliyalashtirilgan mablag'larni tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq holda (kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda) amalga oshirilganligini (tegishli memorial ordyerlar, 294-shakl daftari va boshqa hisob registrlari asosida);

- hisobot choragida amalga oshirilgan kassa xarajatlarining (G'aznachilik bo'linmalari orqali amalga oshirilgan to'lovlarning) to'g'riligini (tegishli memorial ordyerlar, 294-shakl daftarlari va boshqa hisob registrarlari asosida);

- haqiqiy xarajatlarning hisob registrariga to'g'ri yozilganligini (tegishli memorial ordyerlar va 294-shakl daftarlari ma'lumotlari asosida) tekshirib chiqishlari lozim.

"Tasdiqlangan (aniqlangan) reja" ustuniga tashkilotlarning tegishli tasdiqlangan xarajatlar smetalari bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar hisobi bilan hisobot davriga aniqlangan rejani xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat moddalari bo'yicha yoziladi.

"Hisobot davri uchun moliyalashtirilgan" ustuni bo'yicha tashkilotga byudjetdan xarajatlar smetalariga muvofiq yil boshidan o'sib boruvchi tartibda moliyalashtirilgan mablag'lar (294-shakl daftar ma'lumotlari asosida) xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha yoziladi (4-guruhning xarajat moddalaridan tashqari).

G'azna ijrosiga o'tilgan tashkilotlar ushbu ustun bo'yicha yil boshidan o'sib boruvchi tartibda G'aznachilik bo'linmalari orqali amalga oshirilgan to'lovlarni ko'rsatadilar.

"Kassa xarajati-jami" ustunida tashkilotning byudjet mablag'lari bo'yicha depozit hisob, raqamidan xarajatlar smetalarida ko'zda tutilgan maqsadlar uchun o'tkazilgan mablag'lar yil boshidan o'sib boruvchi tartibda (294-shakl daftar ma'lumotlari asosida) xarajatlar tasnifining hisobot shaklida keltirilgan xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha yoziladi.

G'azna ijrosiga o'tilgan tashkilotlar ushbu ustun bo'yicha yil boshidan o'sib boruvchi tartibda G'aznachilik bo'linmalari orqali amalga oshirilgan to'lovlarni ko'rsatadilar.

"Haqiqiy xarajatlar-jami" ustunida tashkilot tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar (byudjet bo'yicha) yil boshidan o'sib boruvchi tartibda (294-shakl daftarlari ma'lumotlari asosida) xarajatlar tasnifining

hisobot shaklida keltirilgan xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha yoziladi.

Tashkilotlar tomonidan o'tgan yillarda, shuningdek, joriy yilda byudjet mablag'lari hisobidan sotib olingan asosiy vositalariga hisoblangan eskirish summasi xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl)da xarajatlar iqtisodiy tasnifining 43 50 000 "Asosiy vositalarni sotib olish" xarajat moddasining tegishli kichik modda va elementlari bo'yicha haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettiriladi.

Bunda, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan o'tgan yillarda, shuningdek, joriy yilda sotib olingan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summasi esa, tegishli ravishda byudjetdan tashqari mablag'larning harakati to'g'risidagi hisobotlarda xarajatlar iqtisodiy tasnifining 43 50 000 "Asosiy vositalarni sotib olish" xarajat moddasining tegishli kichik modda va elementlari bo'yicha haqiqiy xarajatlar sifatida aks ettiriladi.

Byudjet tashkiloti bo'lmagan byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar tomonidan byudjetdan olingan mablag'larning ijrosi bo'yicha tuzilgan xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl)da byudjet mablag'ining ishlatilgan qismi doirasida xarajatlar iqtisodiy tasnifining tegishli moddalari, kichik moddalari va elementlari bo'yicha haqiqiy xarajatlarni to'liq aks ettiradilar.

Asosiy xarajatlar smetasi bo'yicha moliyalashtiriluvchi tegishli moliya organiga esa, mazkur hisobotlarning nusxalari ma'lumot uchun taqdim qilinadi.

Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot (2-shakl) tashkilotlar tomonidan xarajatlar tasnifining har bir bo'lim, kichik bo'lim va bobi bo'yicha alohida holda tuziladi.

Tashkilotning byudjet hisobraqamlaridagi (shaxsiy hisobvaraqlaridagi) hisobot choragining oxirgi ish kuniga tejab qolingan va belgilangan tartibda rivojlantirish jamg'armasi hisobraqamiga o'tkazilgan byudjet mablag'lari alohida (I-IV xarajat guruhlariga qo'shilmagan holda) "Byudjet tashkilotida hisobot choragining oxirgi kuniga tejab qolingan va byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi hisobraqamiga

o‘tkazilgan mablag‘lar” qatorida kassa xarajatlari sifatida aks ettiriladi va “Xarajatlarning hammasi”da hisobga olinadi.

Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot (2-shakl) tashkilotlar tomonidan har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar topshiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risida ma’lumot tashkilotning hisobot davri oxiriga byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

“Debitor qarzdorlik” qismida tashkilotning barcha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi. Jumladan:

“1-guruh jami. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 1-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi;

“2-guruh jami. Ish haqiga qo‘shimchalar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 2-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi;

“3-guruh jami. Kapital qo‘yilmalar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 3-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi;

“4-guruh jami. Boshqa xarajatlar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 4-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Xarajatlar guruhlari bo‘yicha jami” qatorida yuqoridagi 4 ta xarajat guruhlari bo‘yicha jami debitorlik qarzlari aks ettiriladi;

“To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha” qatorida yuqoridagi 4 ta xarajat guruhlari bo‘yicha aks ettirishning imkoni bo‘lmaydigan quyidagi hisob-kitoblar natijasida yuzaga kelgan debitorlik qarzlari aks ettiriladi:

a) bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalarida (bolalar bog‘chalari va yaslilarda) saqlanganligi;

b) bolalarning musiqa va san’at maktablarida o‘qitilganligi;

v) tarbiyalanuvchilarning maktab-internatlarda va boshqa ta'lim muassasalarida saqlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar;

g) ish joyida ovqat bilan ta'minlanganligi uchun xodimlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar va boshqa shu kabi hisob-kitoblar natijasida yuzaga kelgan debitorlik qarzlari.

Mazkur debitorlik qarzlari "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 156 – "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar" subschyotining hisobot davriga mavjud debet qoldig'iga mos bo'lishi lozim.

"Pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarni hisoblanishi bo'yicha" qatorida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladigan Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar va boshqa to'lovlarning hisoblanishi natijasida Pensiya jamg'armasidan yuzaga kelgan debitorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur debitorlik qarzlari "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 163–"Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bilan hisob-kitoblar" subschyotining Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar va boshqa to'lovlarning hisoblanishi natijasida Pensiya jamg'armasidan yuzaga kelgan debitorlik qarzlari qismi bo'yicha hisobot davriga mavjud debet qoldig'iga mos bo'lishi lozim;

"Kamomatlarga doir hisob-kitoblar bo'yicha" qatorida kamomadlar, talon-toroj qilingan pul mablag'lari va moddiy qimmatliklar qiymati, shuningdek, aybdor shaxslar hisobiga yozilgan va o'rnatilgan tartibda undirib olinishi lozim bo'lgan moddiy qimmatliklar qiymati va qonunchilikda belgilangan boshqa hollar hisobi bo'yicha yuzaga kelgan debitorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur debitorlik qarzlari "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 170 – "Kamomatlarga doir hisob-kitoblar" subschyotining hisobot davriga mavjud debet qoldig'iga mos bo'lishi lozim;

"Talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari yuzasidan hisob-kitoblar bo'yicha" qatorida ta'lim muassasalarida talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha, jumladan, to'lov-kontrakt mablag'larining

hisoblanishi natijasida yuzaga kelgan debitorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur debitorlik qarzlari “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 175–“Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” subschyotining to‘lov-kontrakt mablag‘larining hisoblanishi natijasida talabalardan yuzaga kelgan debitorlik qarzlari qismi bo‘yicha hisobot davriga mavjud debet qoldig‘iga mos bo‘lishi lozim;

“Yuqori va quyi tashkilotlar o‘rtasidagi boshqa hisob-kitoblar bo‘yicha” qatorida yuqori mablag‘ taqsimlovchilar bilan ularga qarashli bo‘lgan muassasalar orasida xarajatlar smetasining ijrosi jarayonida vujudga keladigan turli hisob-kitoblar, jumladan, markazlashgan tartibda berilgan moddiy aktivlarga doir operatsiyalar bo‘yicha yuzaga kelgan debitorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur debitorlik qarzlari “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 180–“Boshqa hisob-kitoblar” subschyotining hisobot davriga mavjud debet qoldig‘iga mos bo‘lishi lozim;

“Yuqoridagi aks ettirilganlardan tashqari boshqa hisob-kitoblar bo‘yicha debitorlik qarzlari” qatorida yuqorida keltirilmagan boshqa debitorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Hammasi” qatorida tashkilotning barcha mavjud debitorlik qarzlari aks ettiriladi.

“Kreditor qarzdorlik” qismida tashkilotning barcha mavjud kreditorlik qarzlari aks ettiriladi. Jumladan:

“1-guruh jami. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 1-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“2-guruh jami. Ish haqiga qo‘shimchalar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 2-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“3-guruh jami. Kapital qo‘yilmalar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining 3-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo‘yicha mavjud kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“4-guruh jami. Boshqa xarajatlar” qatorida xarajatlar iqtisodiy tasnifining

4-guruh xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo'yicha mavjud kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Xarajatlar guruhlari bo'yicha jami” qatorida yuqoridagi 4 ta xarajat guruhlari bo'yicha jami kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Byudjet tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo'ladigan mablag'lar yuzasidan hisob-kitoblar bo'yicha” qatorida tashkilotning ixtiyoriga vaqtinchalik tushgan va ma'lum shartlar bajarilgandan keyin qaytarilishi lozim bo'lgan summalar hisobi bo'yicha yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur kreditorlik qarzlari “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 155–“Byudjet tashkilotining ixtiyorida vaqtincha bo'ladigan mablag'lar bo'yicha hisob-kitoblar” subschyotining hisobot davriga mavjud kredit qoldig'iga mos bo'lishi lozim.

“To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha” qatorida yuqoridagi 4 ta xarajat guruhlari bo'yicha aks ettirishning imkoni bo'lmaydigan quyidagi hisob-kitoblar natijasida yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari aks ettiriladi:

a) bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida (bolalar bog'chalari va yaslilarda) saqlanganligi;

b) bolalarning musiqa va san'at maktablarida o'qitilganligi;

v) tarbiyalanuvchilarning maktab-internatlarda va boshqa ta'lim muassasalarida saqlanganligi uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar;

g) ish joyida ovqat bilan ta'minlanganligi uchun xodimlar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar va boshqa shu kabi hisob-kitoblar natijasida yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari.

Mazkur kreditorlik qarzlari “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 156 – “To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar” subschyotining hisobot davriga mavjud kredit qoldig'iga mos bo'lishi lozim.

“Byudjetga to'lovlar bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar bo'yicha (1 va 4-guruhda ko'rsatilganlaridan tashqari)” qatorida tashkilotlar tomonidan mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdan qonunchilikka muvofiq byudjetga hisoblangan va to'lanishi

lozim bo'lgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek mazkur shaklning 1 va 4-guruhlarida aks ettirilmagan boshqa byudjet bilan hisob-kitoblar natijasida hisobot davriga yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar bo'yicha (1, 2 va 4-guruhda ko'rsatilganlaridan tashqari)” qatorida tashkilotlar tomonidan mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdan qonunchilikka muvofiq byudjetdan tashqari jamg'armalarga hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek mazkur shaklning 1, 2 va 4-guruhlarida aks ettirilmagan boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar natijasida hisobot davriga yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari yuzasidan hisob-kitoblar bo'yicha” qatorida ta'lim muassasalarida talabalar bilan to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha, jumladan, to'lov-kontrakt mablag'larining hisoblanishi va to'lanishi natijasida yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur kreditorlik qarzlari “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 175–“Talabalar bilan boshqa hisob-kitoblar” subschyotining to'lov-kontrakt mablag'larini hisoblanganiga nisbatan ortiqcha to'lanishi natijasida talabalardan yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari qismi bo'yicha hisobot davriga mavjud kredit qoldig'iga mos bo'lishi lozim;

“Yuqori va quyi tashkilotlar o'rtasidagi boshqa hisob-kitoblar bo'yicha” qatorida yuqori mablag' taqsimlovchilar bilan ularga qarashli bo'lgan muassasalar orasida xarajatlar smetasining ijrosi jarayonida vujudga keladigan turli hisob-kitoblar, jumladan, markazlashgan tartibda berilgan moddiy aktivlarga doir operatsiyalar bo'yicha yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari aks ettiriladi. Mazkur kreditorlik qarzlari “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) va balans (1-shakl)da aks ettirilgan 180–“Boshqa hisob-kitoblar” subschyotining hisobot davriga mavjud kredit qoldig'iga mos bo'lishi lozim;

“Yuqoridagi aks ettirilganlardan tashqari boshqa hisob-kitoblar bo‘yicha kreditorlik qarzlari” qatorida yuqorida keltirilmagan boshqa kreditorlik qarzlari aks ettiriladi;

“Hammasi” qatorida tashkilotning barcha mavjud kreditorlik qarzlari aks ettiriladi.

“Jami qarzdorlik” ustuni bo‘yicha tashkilotning byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan hisobot davriga mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlarning jami summasi ko‘rsatiladi.

“Byudjet hisobidan” ustuni bo‘yicha “Jami qarzdorlik” ustunida ko‘rsatilgan summaning byudjet hisobiga vujudga kelgan qismi, “Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan” ustuni bo‘yicha esa, tashkilotning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan qismi ko‘rsatiladi.

Agarda, yuzaga kelgan debitorlik qarzni byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga aniq ajratishning imkoni bo‘lmasa, u holda ushbu debitorlik qarzi byudjet hisobidan o‘tkazilgan mablag‘ doirasida byudjet hisobidan ko‘rsatiladi. Debitorlik qarzning qolgan (byudjetdan oshgan) qismi byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga yoziladi.

Agarda, yuzaga kelgan kreditorlik qarzni byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga aniq ajratishning imkoni bo‘lmasa, u holda ushbu kreditorlik qarzi xarajatlar tasnifining tegishli moddasini byudjet bo‘yicha qoldiq limit mablag‘i doirasida mazkur xarajatlar tasnifining tegishli moddasi bo‘yicha byudjet hisobidan ko‘rsatiladi. Kreditorlik qarzning qolgan (byudjet limitidan oshgan) qismi byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga yoziladi.

“Shundan muddati o‘tgan qarzdorlik - jami” ustunida “Jami qarzdorlik” ustunida ko‘rsatilgan qarzdorlikdan muddati o‘tkazib yuborilgan, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so‘ndirilmagan qarzning umumiy summasi, “Byudjet hisobidan” ustunida byudjet mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan qismi, “Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan” ustunida esa, tashkilotning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan qismi ko‘rsatiladi.

"Shundan Respublika tashqarisida" ustunida muddati o'tgan qarzdorlikning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi qismi ko'rsatiladi.

"Izoh" ustunida qo'shimcha izohlar keltiriladi.

Zarurat tug'ilgan taqdirda tashkilotlarga hamda hisobot oluvchilarga (tegishli moliya organlariga) ushbu hisobot shaklida hisobot oluvchilar tomonidan qarzdorlik bo'yicha talab qilingan qo'shimcha ma'lumotlar olish imkonini beruvchi qo'shimcha rekvizitlar qo'shish huquqi beriladi.

Ushbu hisobot shakli tashkilotlar tomonidan har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar topshiriladi.

#### **2.4. Byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hamda byudjet tashkilotlarida chet el valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi moliyaviy hisobotlari shakllarini tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi**

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot tashkilotlar tomonidan hisobot byudjet tashkilotlari tomonidan hisobot davri mobaynida hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan va belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldirilgan mablag'lar, shuningdek homiylikdan olingan mablag'lari harakatini aks ettirish uchun tuziladi.

Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot shaklini tuzishdan oldin byudjet tashkilotlari:

- hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar, faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi, belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari

tasarrufida qoldirilgan mablag'lar, shuningdek homiylikdan olingan mablag'larga doir dastlabki hujjatlarning to'liqligini;

- shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan (hisobraqamlardan) olingan ko'chirmalarni va tegishli hisob registrlari ma'lumotlarining to'g'riligini tekshirib chiqadilar.

Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatoriga tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan (hisobraqamlardan) ko'chirmalarga muvofiq Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha hisobot yilining 1-yanvar sanasiga mavjud pul mablag'lari qoldig'i aks ettiriladi.

Hisobot davrida tushgan tushumlar — jami» qatorida «2.1 Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar» va «2.2 O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» qatorlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

Bunda «2.1 Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar» qatorida «a», «b», «v», «g» va «d» qatorlar bo'yicha hisobot davriga tushgan daromadlar (tushumlar)ning yig'indisi ko'rsatiladi. «a) hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar» qatorida tejab qolingani va belgilangan tartibda Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan davlat byudjeti mablag'lari ko'rsatiladi.

«b) faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan» qatorida faoliyat turi bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotishdan olingan jami tushumlar (pul mablag'lari) ko'rsatiladi.

«v) byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan» qatorida vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va boshqa mulklarni ijaraga berishdan tushgan daromadlar (pul mablag'lari) ko'rsatiladi.

«g) belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldirilgan mablag'lar» qatorida byudjet tashkilotiga qonun hujjatlarida belgilangan boshqa kelib tushgan tushumlar ko'rsatiladi.

«d) homiylikdan olingan» qatorida Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga homiy tashkilotlardan hamda jismoniy shaxslardan tushgan homiylik yordamlari ko'rsatiladi.

«2.2. O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» qatorida o'tgan moliya yilida kelib tushishi lozim bo'lgan mablag'larning joriy moliya yilida kelib tushgan summasi aks ettiriladi.

«Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» qatorida «3.1 Kassa xarajatlari» va «3.2 Qaytarilgan qoldiq» qatorlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

«3.1. Kassa xarajatlari» qatorida 4-ustun «Kassa xarajatlari — jami»da aks ettirilgan jami kassa xarajatlarining summasi ko'rsatiladi.

«3.2. Qaytarilgan qoldiq» qatorida o'tgan moliya yilida noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larning joriy moliya yilida qaytarilgan summasi aks ettiriladi.

«4. Hisobot davri oxiriga pul mablag'i qoldig'i» qatorida «1. Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatorida aks ettirilgan summa va «2. Hisobot davrida tushgan tushumlar — jami» qatorida aks ettirilgan tushumlar yig'indisidan «3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» qatori bo'yicha aks ettirilgan kassa xarajatlarining ayirmasi ko'rsatiladi.

«Xarajatlar yoyilmasi»da byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa va haqiqiy xarajatlar mazkur hisobot shaklida keltirilgan xarajatlar iqtisodiy tasnifining xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo'yicha aks ettiriladi.

**Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.** Byudjet tashkilotlari Mazkur hisobotni tuzishdan oldin tibbiyot tashkilotlari:

- Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalariga va sarflanishiga doir birlamchi hujjatlarning to'liqligini;

- shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan (hisobraqamlardan) olingan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hisob registrlarini tekshirib chiqadilar.

Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatorida tegishli shaxsiy g'azna hisobvaraqlarning (hisobraqamlarning) hisobot yilining 1-yanvar

sanasidagi ko'chirmalariga asosan Tibbiyot tashkilotining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari qoldig'i aks ettiriladi.

Hisobot davrida tushgan tushumlar — jami» qatorida «2.1. Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar» va «2.2. O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» qatorlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

Bunda «2.1. Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar» qatorida «a», «b», «v», «g», «d» va «e» qatorlar bo'yicha hisobot davriga tushgan daromadlar (tushumlar)ning yig'indisi ko'rsatiladi.

«a) tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan byudjet mablag'lari umumiy hajmining 5 foizigacha bo'lgan miqdorda byudjetdan ajratiladigan mablag'lar» qatorida tibbiyot tashkiloti uchun byudjetdan ajratiladigan umumiy mablag'larning (xarajatlar smetasida nazarda tutilgan jami mablag'larning) 5 foizigacha bo'lgan qismining tibbiyot tashkilotining mazkur jamg'armasiga o'tkazilgan summalari ko'rsatiladi.

«b) faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan» qatorida tibbiyot tashkilotining pulli davolash va xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lari ko'rsatiladi.

«v) hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar» qatorida qonun hujjatlariga muvofiq ko'rsatilgan jamg'armaga o'tkazilgan tejab qolingan mablag'lar summasi ko'rsatiladi.

«g) tibbiyot tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan» qatorida tibbiyot tashkilotlari vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va boshqa mulklarni ijaraga berishdan tushgan daromadlarini ko'rsatadilar.

«d) belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar» qatorida tibbiyot tashkilotiga qonun hujjatlarida belgilangan boshqa kelib tushgan tushumlar ko'rsatiladi.

«e) homiylikdan olingan» qatorida homiy va donor tashkilotlardan tushgan homiylik yordamlari ko'rsatiladi.

«2.2. O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» qatorida o'tgan moliya yilida kelib tushishi lozim bo'lgan mablag'larning joriy moliya yilida kelib tushgan summasi aks ettiriladi.

«3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» qatorida «3.1. Kassa xarajatlari» va «3.2. Qaytarilgan qoldiq» qatorlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

«3.1. Kassa xarajatlari» qatorida 4-ustun «Kassa xarajatlari — jami»da aks ettirilgan jami kassa xarajatlarining summasi ko'rsatiladi.

«3.2. Qaytarilgan qoldiq» qatorida o'tgan moliya yilida noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larning joriy moliya yilida qaytarilgan summasi aks ettiriladi.

«4. Hisobot davri oxiriga pul mablag'i qoldig'i» qatorida «1. Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatorida aks ettirilgan summa va «2. Hisobot davrida tushgan tushumlar — jami» qatorida aks ettirilgan tushumlar yig'indisidan «3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» qatori bo'yicha aks ettirilgan kassa xarajatlarining ayirmasi ko'rsatiladi.

«Xarajatlar yoyilmasi»da ko'rsatilgan Jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa va haqiqiy xarajatlar mazkur hisobot shaklida keltirilgan xarajatlar iqtisodiy tasnifining xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo'yicha aks ettiriladi.

**Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot.** Ushbu hisobot ta'lim muassasalaridagi o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan.

Ta'lim muassasalari mazkur hisobotni tuzishdan oldin quyidagilarni to'g'riligini tekshirib chiqadilar:

- o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'larning shakllanishi va sarflanishiga oid barcha dastlabki hujjatlarining to'liqligini;

- analitik hisob ma'lumotlarining tegishli sintetik hisob ma'lumotlarga muvofiqligini;

-tegishli hisob registrari ma'lumotlarining to'liq va to'g'ri yozilganligini.

«Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatorida tegishli hisobvaraqlardan ko'chirmalarga muvofiq hisobot yilining 1-yanvar sanasiga mavjud to'lov-kontrakt mablag'lari qoldig'i aks ettiriladi.

«Hisobot davrida tushgan tushumlar — jami» qatorida «2.1. Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar» va «2.2. O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» qatorlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

Bunda «2.1. Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar» qatorida «a», «b» va «v» qatorlar bo'yicha hisobot davriga tushgan daromadlar (tushumlar)ning yig'indisi ko'rsatiladi.

«2.2. O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» qatorida o'tgan moliya yilida kelib tushishi lozim bo'lgan mablag'larning joriy moliya yilida kelib tushgan summasi aks ettiriladi.

«3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» qatorida «3.1 Kassa xarajatlari» va «3.2. Qaytarilgan qoldiq» qatorlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

«3.1. Kassa xarajatlari» qatorida 4-ustun «Kassa xarajatlari — jami»da aks ettirilgan jami kassa xarajatlarining summasi ko'rsatiladi.

«3.2. Qaytarilgan qoldiq» qatorida o'tgan moliya yilida noto'g'ri yoki ortiqcha kelib tushgan mablag'larning joriy moliya yilida qaytarilgan summasi aks ettiriladi.

«4. Hisobot davri oxiriga pul mablag'i qoldig'i» qatorida «1. Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatorida aks ettirilgan summa va «2. Hisobot davrida tushgan tushumlar — jami» qatorida aks ettirilgan tushumlar yig'indisidan «3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari - jami» qatori bo'yicha aks ettirilgan kassa xarajatlarining ayirmasi ko'rsatiladi.

«Xarajatlar yoyilmasi»da to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa va haqiqiy xarajatlar mazkur hisobot shaklida keltirilgan xarajatlar iqtisodiy tasnifining xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo'yicha aks ettiriladi.

## **Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot**

Mazkur hisobot quyidagi byudjetdan tashqari mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun mo'ljallangan:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari;

- o'tgan yillar debitorlik qarzlarning tushgan summasi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushadigan tushumlar;

- maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushadigan tushumlar (musiqa va san'at maktablari);

- xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar;

- maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushadigan tushumlar;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari;

- umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar;

- kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar;

- turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar;

- taqsimlanishi nazarda tutilgan tushumlar;

- boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'laydigan to'lovlar;

- boshqa mablag'lar bo'yicha depozitlar;

- grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari;

- kredit va ssudalar.

Hisobotni tuzishdan oldin byudjet tashkilotlari quyidagilarni tekshiradilar:

- hisobot choragi mobaynidagi barcha mazkur byudjetdan tashqari mablag'larining shakllanish manbalariga va sarflanishiga doir birlamchi hujjatlarning to'liqligini;

- shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan (hisobraqamlardan) olingan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hisob registrlarini.

«Yil boshiga mablag' qoldig'i» ustuni bo'yicha byudjet tashkilotlari hisobot shaklida keltirilgan barcha byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisobot yilining 1-yanvar sanasiga bo'lgan mavjud qoldiq mablag'larni aks ettiradilar.

«Hisobot davrida tushgan daromadlar (tushumlar) jami» ustunida «Hisobot davrida tushgan daromadlar (tushumlar)» va «O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» ustunlarining yig'indisi ko'rsatiladi.

«Hisobot davrida tushgan daromadlar (tushumlar)» ustunida hisobot shaklida keltirilgan barcha byudjetdan tashqari mablag'larning turlari bo'yicha alohida holda hisobot davrida byudjet tashkilotining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga (hisobraqamiga) kelib tushgan tushumlar aks ettiriladi.

«O'tgan yil qoldig'i hisobidan tushgan tushum» ustunida o'tgan moliya yilida kelib tushishi lozim bo'lgan mablag'larning joriy moliya yilida kelib tushgan summasi aks ettiriladi.

«Xarajatlar yoyilmasi»da mazkur byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan hisobot davrida amalga oshirilgan kassa va xarajatlarni xarajatlar iqtisodiy tasnifining xarajatlar moddasi, kichik moddasi va elementlari bo'yicha har bir byudjetdan tashqari mablag'larning turlari bo'yicha alohida holda aks ettiradilar.

**Byudjet tashkilotlarida chet el valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot.** Mazkur hisobot byudjet tashkilotlarining hisobot davri mobaynidagi chet el valyuta mablag'lari harakati to'g'risidagi

ma'lumotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan. Byudjet tashkilotlari ushbu hisobotni tuzishdan oldin:

- hisobraqamlardan (shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan) olingan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hisob registrlari ma'lumotlarining to'g'riligini;

- chet el valyutalari shaklida tushgan mablag'larning shakllanishi va sarflanishiga oid barcha dastlabki hujjatlarning to'liqligini;

- analitik hisob ma'lumotlarining tegishli sintetik hisob ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirib chiqadilar.

«1. Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatoriga tegishli hisobraqamlardan (shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan) ko'chirmalarga muvofiq xorijiy valyutalar bo'yicha hisobot yilining birinchi yanvar sanasiga mavjud pul mablag'lari qoldig'i aks ettiriladi.

«2. Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar — jami» qatorida «a», «b», «v» «g», «d», «e» «j» va «z» qatorlar bo'yicha hisobot davriga tushgan daromadlar (tushumlar)ning yig'indisi ko'rsatiladi.

«a) chet el valyutasiga mahsulotlar sotish (ishlar, xizmatlar ko'rsatish)dan tushumlar» qatorida faoliyat turi bo'yicha chet el valyutasida mahsulotlar sotish (ishlar, xizmatlar ko'rsatish)dan tushgan tushumlar ko'rsatiladi.

«b) byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan chet el valyutasini sotib olish» qatorida byudjetdan ajratilgan mablag'lari hisobidan sotib olingan chet el valyutasi summasi aks ettiriladi;

«v) byudjetdan tashqari pul mablag'lari hisobidan chet el valyutasini sotib olish» qatorida byudjetdan tashqari pul mablag'lari hisobidan sotib olingan chet el valyutasi summasi aks ettiriladi;

«g) chet el valyutasida olinishi belgilangan kredit yoki grantlar» qatorida chet el valyutasida olingan kredit yoki grant mablag'lari summasi ko'rsatiladi.

«d) yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasida ko'rsatilgan homiylik (beg'araz) yordam» qatorida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga chet el valyutasida ko'rsatilgan xomiylik (beg'araz) yordam mablag'lari aks ettiriladi.

«e) byudjet tashkilotining vaqtincha ixtiyorida saqlanadigan chet el valyutasidagi mablag'lari» qatorida byudjet tashkilotlari ixtiyorida vaqtincha saqlanadigan chet el valyuta mablag'larining summasi ko'rsatiladi.

«j) valyuta kursining ijobiy farqi hisobiga hosil bo'lgan mablag'lar» qatoriga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan chet el valyutasining so'mga nisbatan kursining ijobiy farq hisobiga hosil bo'lgan mablag'lar summasi aks ettiriladi.

«z) boshqa tushumlar» qatorida qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar summasi ko'rsatiladi.

«3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» qatorida 4-ustun «Kassa xarajatlari — jami»da aks ettirilgan jami kassa xarajatlari summasi ko'rsatiladi.

«4. Valyuta kursining salbiy farqi hisobiga zararlar» qatorida hisobot davrining oxirgi kunida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan chet el valyutasining so'mga nisbatan qiymatining salbiy farqi hisobiga ko'rilgan zarar summasi aks ettiriladi.

145. «5. Hisobot davri oxiriga pul mablag'i qoldig'i» qatorida «1. Yil boshiga pul mablag'i qoldig'i» qatorida aks ettirilgan summa va «2. Hisobot davrida tushgan daromad (tushum)lar — jami» qatorida aks ettirilgan tushumlar yig'indisidan «3. Hisobot davrida amalga oshirilgan kassa xarajatlari — jami» va «4. Valyuta kursining salbiy farqi hisobiga zararlar» qatorlari ayirmasi ko'rsatiladi.

146. «Xarajatlar yoyilmasi» ustunida chet el valyutasi hisobidan amalga oshirilgan kassa va haqiqiy xarajatlar mazkur hisobot shaklida

keltirilgan xarajatlar iqtisodiy tasnifining xarajat moddalari, kichik moddalari va elementlari bo'yicha aks ettiriladi.

## **2.5. Joriy yilga moliyaviy natijalar, nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi**

**Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida** hisobot tashkilotning joriy yilning yakunlari bo'yicha moliyaviy faoliyatining natijasi, ya'ni, har bir daromad (tushum)larning turlarini mazkur daromadlar (tushumlar) hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

Hisobot "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) va daromadlar (tushumlar) va haqiqiy xarajatlar hisobi yuritiladigan boshqa hisob registrlari ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

"1. Daromadlar" bo'limi bo'yicha:

"1.1. Byudjetdan moliyalashtirish" qatorida "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) dagi 232-"Byudjetdan moliyalashtirish" subschyotining ma'lumotlari aks ettiriladi;

"1.2. To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar" qatorida "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) dagi 242-"Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari" subschyotining ma'lumotlari aks ettiriladi;

"1.3. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushadigan mablag'lar bo'yicha daromadlar" qatorida "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) dagi 252-"Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar" subschyotining ma'lumotlari aks ettiriladi. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar "To'lov-kontrakt mablag'lari", "Depozitga qo'yilgan mablag'lar bo'yicha daromadlar" va "Boshqa tushumlar" qatorlari bo'yicha alohida holda aks ettiriladi;

“1.4. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 262-“Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi. Shuningdek, ushbu ma‘lumotlar “Tovar (ish, xizmatlar realizatsiyasidan”, “Foydalanilmayotgan davlatning mol-mulklarini ijaraga berishdan” va “Xomiylik yordamlaridan” qatorlari bo‘yicha alohida holda aks ettiriladi;

“1.5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari” qatorida tibbiyot muassasalari tomonidan “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 262-“Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha daromadlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi. Shuningdek, ushbu ma‘lumotlar “Pulli davolash va xizmatlar ko‘rsatishdan”, “Xomiy va donor tashkilotlardan” va “Foydalanilmayotgan davlatning mol-mulklarini ijaraga berishdan” qatorlari bo‘yicha alohida holda aks ettiriladi;

“1.6. Boshqa daromadlar” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 272-“Boshqa byudjetdan tashqari daromadlar” va 273-“Inventarizatsiya natijasida ortiqcha chiqqan mol-mulklar” subschyotlarining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“1.7. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar” qatorida joriy yilda ta‘lim muassasalaridagi to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha hamda byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari bo‘yicha tegishli qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar aks ettiriladi.

“Daromadlar (tushumlar) jami” barcha daromadlar (tushumlar)ning yig‘indisi aks ettiriladi.

“2. Xarajatlar” bo‘limi bo‘yicha:

“2.1. Byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 231-“Byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“2.2. To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 241-“To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“2.3. Ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 251-“Ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“2.4. Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 261-“Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“2.5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” qatorida tibbiyot muassasalari tomonidan “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 261-“Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“2.6. Boshqa daromadlar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” qatorida “Bosh jurnal kitobi” (308-shakl) dagi 271-“Boshqa daromadlar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” subschyotining ma‘lumotlari aks ettiriladi;

“Xarajatlar jami” qatorida yuqoridagi barcha daromadlar (tushumlar) hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarning yig‘indisi aks ettiriladi.

“3. Moliyaviy natija” bo‘limi bo‘yicha:

“Joriy yilga moliyaviy natija” qatorida tashkilotning joriy yilga moliyaviy natijasi, ya‘ni, jami daromad (tushum) (080-qator)dan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar jami (150-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi.

“a) byudjet mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natija” qatorida “1.1. Byudjetdan moliyalashtirish” (010-qator)dan “2.1. Byudjet mablag‘lari bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” (090-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi;

“b) to‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natija” qatorida “1.2. To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar” (020-qator)dan “2.2. To‘lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” (100-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi;

“v) ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natija” qatorida “1.3. Ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushadigan mablag‘lar bo‘yicha daromadlar” (030-qator)dan “2.3. Ta‘lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” (110-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi;

“g) byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija” qatorida “1.4. Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari” (040-qator)dan “2.4. Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” (120-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi;

“d) tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natija qatorida “1.5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi daromadlari” (050-qator)dan “2.5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” (130-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi;

“e) boshqa daromadlar bo‘yicha joriy yilga moliyaviy natija” qatorida “1.6. Boshqa daromadlar” (060-qator)dan “2.6. Boshqa daromadlar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar” (140-qator)ning ayirmasi aks ettiriladi;

“g) byudjetga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga hisoblangan soliq va boshqa to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar” qatorida “1.7. Soliq va

boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar" (070-qator) ma'lumotlari aks ettiriladi.

Ushbu hisobot shakli tashkilotlar tomonidan hisobot yili uchun topshiriladigan balans bilan birga taqdim qilinadi.

**Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobot** tashkilotning hisobot yili mobaynidagi nomoliyaviy aktivlari (asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va tovar-moddiy zaxiralari)ning mavjudligi va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

Mazkur hisobot shaklini tuzishdan oldin tashkilotlar:

- hisobot yili boshiga mavjud asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy zaxiralar qoldig'ining to'g'riligini (asoslanganligini);

- yil mobaynida tashkilotga kirim bo'lgan va tashkilotdan chiqim bo'lgan barcha nomoliyaviy aktivlarni (byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi bo'yicha alohida holda) hisob registrlarida ("Asosiy vositalar bo'yicha aylanma vedomost" 326-shakl, "Moddiy qimmatliklarning miqdor-qiymat hisobi daftari (kartochkasi) 296-shakl, "Bosh jurnal kitobi" 308-shakl va boshqa tegishli registrlarda) to'g'ri aks ettirilganligini;

- kirim va chiqim operatsiyalarini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligini va to'liqligini tekshirib chiqadilar.

Ushbu hisobotda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar to'g'risida ma'lumotlar "Bosh jurnal kitobi" (308-shakl) va boshqa asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi yuritiladigan hisob registrari ma'lumotlari asosida to'ldiriladi. Hisobotda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning (byudjet yoki byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan olinganligi ko'rsatilgan holda) yil boshiga mavjud qoldig'i, hisobot yili mobaynida kirim bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qiymati va chiqim bo'lgan (hisobdan chiqarilgan)larining qiymati, shuningdek, hisobot davri oxiriga tashkilotlar balansidagi mavjud qiymati ko'rsatiladi.

Asosiy vositalarni har yilgi qayta baholash hisobiga dastlabki (tiklanish) qiymatining o'zgarishi (oshishi yoki kamayishi) hisobot shaklining alohida "Qayta baholash natijasida" qatorida aks ettiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga qoldig'i hamda tashkilot ehtiyojlariga sarflangan tovar-moddiy zaxiralarning summasi byudjet mablag'lari hisobidan hamda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan alohida holda ko'rsatiladi.

Shuningdek, tashkilotga kirim bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar, shundan bepul olinganlari, sotib olinganlari, ortiqcha materiallarning kirmga olinishi hamda yil mobaynida chiqim qilingan material zaxiralar, shundan bepul berilganlari, sotilganlari, kamomadlar va boshqa sabablar tufayli chiqim qilinganlarining qiymati ko'rsatiladi.

Ushbu hisobot shakli tashkilotlar tomonidan hisobot yili uchun topshiriladigan balans bilan birga taqdim qilinadi.

## **2.6. Moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi**

«UzASBO» dasturiy majmuasiga (bundan buyon matnda dasturiy majmua deb yuritiladi) ulangan byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarni elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda tegishli moliya organlari yoki byudjet mablag'larini taqsimlovchiga taqdim qiladilar. Dasturiy majmua orqali elektron shaklda topshirilgan moliyaviy hisobotlar bir nusxada qog'ozga chop etilib, hisobot beruvchi tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Bunda ushbu imzolangan moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi tashkilotda belgilangan tartibda saqlanadi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati jamlanma moliyaviy hisobotlarni dasturiy majmua orqali vakolatli xodimlari tomonidan elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda tegishli moliya organlariga taqdim etadilar. Jamlanma moliyaviy hisobotlar byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan Qoidalarning 148-bandida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va saqlanadi.

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati jamlanma moliyaviy hisobotlar u tashkil etilgan tashkilot rahbari hamda markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatining bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi va tashkilotda belgilangan tartibda saqlanadi. Moliyaviy hisobotlarni elektron shaklda taqdim qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda, byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlarni tegishli moliya organlariga qog'oz shaklida imzolangan holda bir nusxada taqdim etadi. Bunda ushbu imzolangan moliyaviy hisobotlarning bir nusxasi hisobot beruvchi tashkilotda belgilangan tartibda saqlanadi.

Byudjet tashkilotlarining muhrlarisiz hamda "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo'yicha" Qoidalarining 148-bandida ko'rsatilgan vakolatli shaxslarning imzolarisiz ushbu hisobotlar haqiqiy emas deb hisoblanadi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar (jamlanma) moliyaviy hisobotlarni mazkur Qoidalarining 11-ilovasiga muvofiq belgilangan muddatlarda tegishli moliya organlariga taqdim etadilar. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar O'zbekiston Respublika-sining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan o'z tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari asosida choraklik va yillik jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Moliyalashtirilishi (xarajatlarining to'lanishi) yil davomida bir byudjetdan boshqasiga o'tkazilgan yoki bir vazirlik (idora) tasarrufidan boshqasiga o'tkazilgan tashkilotlarda o'tkazish sanasiga moliyaviy hisobot (yillik hisobot shakllari hajmida) tuziladi hamda u ilgari va hozirgi yuqori turuvchi idoralarga taqdim etiladi. Kelgusida hisobot faqat yangi yuqori turuvchi vazirlikka (idoraga) taqdim etiladi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etish sanasi ular tomonidan haqiqatda taqdim etilgan sana hisoblanadi. Hisobot taqdim etish uchun belgilangan muddat ishlamaydigan kunga to'g'ri

kelgan taqdirda, keyingi ish kunida taqdim etiladi. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilar tomonidan moliyaviy hisobotlar belgilangan muddatda topshirilmagan taqdirda, tegishli moliya organlari byudjet mablagʻlari oluvchilar rahbarlarini yozma ravishda yoki dasturiy majmua orqali elektron shaklda ogohlantirgan holda Davlat byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirishni (toʻlash) cheklashlari, zarur hollarda toʻxtatib qoʻyishlari mumkin. Bunda, moliyaviy hisobotlarni elektron tarzda taqdim etuvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablagʻlari oluvchilar hisobotlarni topshirish muddatidan kamida 5 kun oldin dasturiy majmua orqali ularni taqdim etish muddatlari yaqinlashgani hamda moliyaviy hisobotlarni oʻz vaqtida taqdim etilmagan kundan boshlab toʻlovlarni amalga oshirishga avtomatik cheklovlar boʻlishi toʻgʻrisida ogohlantiriladi. Alohida hollarda, tegishli moliya organlariga moliyaviy hisobotlarni oʻz vaqtida taqdim etishga imkoniyatlar cheklanganligi yoki maʼlum bir asoslangan sabablar koʻrsatilgan holda byudjet tashkiloti va byudjet mablagʻlarini oluvchi tashkilot rahbarining yozma ravishdagi murojaatiga asosan hisobotlarni topshirish muddati koʻpi bilan 5 ish kuniga kechiktirilishi mumkin. Bunda hisobotlarni oʻz vaqtida topshirishga tashkilotlarni hisobchilari yoki rahbarining masʼuliyatsizligi sabab boʻlgan holatlar asosli deb qabul qilinmaydi.

Moliyaviy hisobotlarda oʻchirish va ustiga yozishlar boʻlmasligi kerak. Hisobotlarda xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli qaydlar qilinadi (elektron protokollar yuritiladi), ularni hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tasdiqlaydilar. Moliyaviy hisobotlarga kiritilgan barcha tuzatishlar haqida ularni yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tekshirish va tasdiqlashda mazkur moliyaviy hisobotlar taqdim etilgan barcha joylarga (manzilgohlarga) majburiy tartibda xabar qilinishi shart.

Byudjet tashkilotlari, byudjet mablagʻlari oluvchilar va byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar oʻz tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini qabul qiladilar, koʻrib chiqadilar hamda tasdiqlaydilar, qonun

hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlari o'tgan yilgi moliya yakunlarini chiqarishda byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning o'z tasarrufidagi tashkilotlarining yillik moliyaviy hisobotlarini ko'rib chiqishda ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari, moliyaviy hisobotlarda nomuvofiqliklar va noaniqliklar mavjud bo'lganda, o'z e'tiroz va takliflarini tegishli tashkilotlarga ular qabul qilingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmasdan xabar qiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

- 1. Byudjet tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlar tarkibini aytib bering?*
- 2. Byudjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan davriy hisobotlarni aytib bering?*
- 3. Har bir davriy moliyaviy hisobotlar bo'yicha ularni tuzish tartibini aytib bering?*
- 4. Hisobotlar qayerga va qachon taqdim qilinadi, qanday tasdiqlanadi?*
- 5. Balans (1-shakl) shaklini tuzish taribini aytib bering?*
- 6. Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl) shaklini tuzish tartibini aytib bering?*
- 7. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot shaklini tuzish tartibini aytib bering?*
- 8. Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?*
- 9. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?*
- 10. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?*

11. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?

12. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?

13. Nomoliyaviy aktivlarning harakati to'g'risida hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?

14. Byudjet tashkilotlarida chet el valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot shaklini tuzish tartibini aytib bering?

15. Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari axborot imkoniyatlari haqida nimalarni bilasiz?

16. Moliyaviy hisobotni Balans (1-shakl) axborot imkoniyatlarini aytib bering?

17. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotni axborot imkoniyatlari haqida nimalarni ayta olasiz?

18. Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl) axborot imkoniyatlarini aytib bering?

19. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobotni axborot imkoniyatlari haqida aytib bering?

20. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobot shaklini axborot imkoniyatlarini aytib bering?

21. Nomoliyaviy aktivlarning harakati to'g'risida hisobot shaklini axborot imkoniyatlari haqida aytib bering?

22. Byudjet tashkilotlarida chet el valyutasi mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot shaklini axborot imkoniyatlari haqida aytib bering?

## **MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI**

**1. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansi tarkibiy qismlarini aytib bering?**

A) Uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, O'z mablag'lar manbalari, majburiyatlar;

B) Nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, majburiyatlar, moliyaviy natijalar;

C) Nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlar, kreditorlar, moliyaviy natijalar;

D) Nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, O'z mablag'lar manbalari, majburiyatlar.

### **2. Byudjet tashkilotida rivojlantirish jamg'armasi shakllanish manbaalarini ko'rsating.**

A) Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan tushgan daromadlar;

B) Vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mulklarini ijaraga berishdan tushgan tushumlar;

C) Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga ko'rsatiladigan xomiylik (beg'araz) yordami hisobiga olingan tushumlar;

D) Hisobot choraginging oxirgi ish kunida tejab qolingan byudjet mablag'lari hisobidan tushumlar;

A) 1) 1, 2;

B) 2, 3, 4

C) 1, 2, 3, 4

D) 1, 3, 4

### **3. Byudjet tashkilotlari buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarini hisob registrlari bilan muvofiqligini ko'rsatib bering?**

A) Bosh jurnal kitobi va memorial order shakllari, tegishli dastlabki va yig'ma hujjatlar;

B) Bosh jurnal kitobi, 294 shakldagi daftar;

C) 294 shakldagi daftar, 296 shakldagi daftar;

D) Bosh jurnal kitobi, dastlabki va yig'ma hujjatlar.

### **4. Balansda moliyaviy aktivlar bo'limida qanday mablag'lar aks ettiriladi?**

A) Qimmatli qog'ozlar va pul mablag'lari;

B) Nomoddiy aktivlar va depozitlar;

C) Pul mablag'lari;

D) Depozit mablag'lari.

### **5. Smeta xarajatlari ijrosi to'g'risidagi hisobot shakli (2-shakl) qaysi muddatda taqdim etiladi.**

- A) Har chorakda keyingi oyning 5-sanasigacha
- B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha
- C) Har chorakda va yillik qonunchilikda belgilangan muddatda
- D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**6. Smeta xarajatlari ijrosi to'g'risidagi hisobot shakli (2-shakl) tuzilishini sharxlab bering?**

A) Aniqlashtirilgan reja, hisobot davri uchun moliyalashtirilgan, jami kassa xarajatlari, jami haqiqiy xarajatlar;

B) Aniqlashtirilgan reja, jami kassa xarajatlari, jami haqiqiy xarajatlar;

C) Smeta rejasi, hisobot davri uchun moliyalashtirilgan, jami kassa xarajatlari, jami haqiqiy xarajatlar;

D) Reja, hisobot davri uchun moliyalashtirilgan, kassa xarajatlari, haqiqiy xarajatlar;

**7. Hisobot davri uchun moliyalashtirilgan hisobot ko'rsatkichi qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?**

A) Bosh-jurnal kitobi (232-subschyot krediti), 294 – shakl daftar, shaxsiy hisobvaraq ko'chirmalari, joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot;

B) Bosh-jurnal kitobi (231-subschyot debeti), 294 – shakl daftar, bank, hisobvaraq ko'chirmalari, joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot;

C) Bosh-jurnal kitobi (100-subschyot krediti), 296 – shakl daftar, bank, hisobvaraq ko'chirmalari, joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot;

D) Bosh-jurnal kitobi (140-subschyot krediti), 294 – shakl daftar, bank, hisobvaraq ko'chirmalari;

**8. Tasdiqlangan (aniqlangan) reja hisobot ko'rsatkichi qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?**

A) Smeta, 294 – shakl daftar, bank, hisobvaraqlar ko'chirmalari, joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot;

B) Tasdiqlangan xarajatlar smetasi, 294-shakl, Ma'lumotnoma-bildirishnomalar;

C) Tasdiqlangan xarajatlar smetasi, 292-shakl, Ma'lumotnoma-bildirishnomalar;

D) To'g'ri javob yo'q.

**9. Byudjet tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari harakati bo'yicha qaysi hisobot shakli to'ldiriladi?**

A) 2-RJ shakli;

B) 2-TK shakli;

C) qonunchilikda keltirilgan shaklda;

D) 2-shakl.

**10. Byudjet tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari harakati bo'yicha hisobot shakli qaysi muddatda taqdim etiladi.**

A) Har chorakdan keyingi oyning 5-sanasigacha;

B) Har chorakdan keyingi oyning 10-sanasigacha;

C) Har chorakdan va yillik qonunchilikda belgilangan muddatda;

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilangan kunlarda.

**11. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov kontrakt shakli mablag'lari harakati bo'yicha hisobot shakli qaysi muddatda taqdim etiladi.**

A) Har chorakdan keyingi oyning 5-sanasigacha;

B) Har chorakdan keyingi oyning 10-sanasigacha;

C) Har chorakdan va yillik qonunchilikda belgilangan muddatda;

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilangan kunlarda.

**12. Byudjet tashkilotlarida boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobot shakli qaysi muddatda taqdim etiladi.**

A) Har chorakdan keyingi oyning 5-sanasigacha;

B) Har chorakdan keyingi oyning 10-sanasigacha;

- C) Har chorakdan va yillik qonunchilikda belgilangan muddatda;
- D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**13. Byudjet tashkilotlarida joriy yilga moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot qaysi muddatda taqdim etiladi.**

- A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 5-sanasigacha;
- B) Har chorakda keyingi oyning 15-sanasigacha;
- C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda;
- D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**14. Byudjet tashkilotlarida joriy yilga moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot nima maqsadda tuziladi?**

A) Tashkilotning joriy yilning yakunlari bo'yicha har bir daromad (tushum)larning turlarini mazkur daromadlar (tushumlar) hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

B) Tashkilotning joriy yilning yakunlari bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash, har bir daromad (tushum)larning turlarini mazkur daromadlar (tushumlar) hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

C) Tashkilotning joriy yilga amalga oshirilgan daromadlar va haqiqiy xarajatlarni solishtirish uchun tuziladi.

D) To'g'ri javob yo'q

**15. Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobot qaysi muddatda taqdim etiladi**

- A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 5-sanasigacha
- B) Har chorakda keyingi oyning 15-sanasigacha
- C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda
- D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**16. Byudjet tashkilotlarida debitorlik va kreditorlik majburiyatlar to'g'risida ma'lumot qaysi muddatda taqdim etiladi**

- A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha;
- B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha;

- C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda;
- D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**17. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarning analitik hisobi qaysi buxgalteriya hujjatida yuritiladi?**

- A) Boshlang'ich hujjatlarda;
- B) Inventar kartochkalarida;
- C) Qabul qilish-topshirish dalolatnomasida;
- D) Bosh daftarda.

**18. Yil mobaynida tashkilotga kirim bo'lgan va tashkilotdan chiqim bo'lgan barcha nomoliyaviy aktivlarni (byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi bo'yicha alohida holda) qaysi hisob registrlarida yuritiladi?**

A) "Asosiy vositalar bo'yicha aylanma vedomost" 326-shakl, "Moddiy qimmatliklarning miqdor-qiyamat hisobi daftari (kartochkasi) 296-shakl, "Bosh jurnal kitobi" 308-shakl va boshqa tegishli registrlarda;

B) "Moddiy qimmatliklarning miqdor-qiyamat hisobi daftari (kartochkasi) 296-shakl, "Bosh jurnal kitobi" 308-shakl va boshqa tegishli registrlarda;

C) Asosiy vositalar bo'yicha aylanma vedomost" 326-shakl;

D) "Bosh jurnal kitobi" 308-shaklda.

**19. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni to'g'risidagi ma'lumotnomada debitorlik qarzdorlik ko'rsatkichi qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrari bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?**

A) 292-shakl kitobi va boshqa tegishli hisob registrari ko'rsatkichlari, Bosh daftardagi tegishli subschyotlar ma'lumotlari, Tegishli solishtirish dalolatnomalari ma'lumotlari;

B) 296-shakl kitobi va boshqa tegishli hisob registrari ko'rsatkichlari, Bosh daftardagi tegishli subschyotlar ma'lumotlari, Tegishli solishtirish dalolatnomalari ma'lumotlari;

C) 292-shakl kitobi, Bosh daftardagi tegishli subschyotlar ma'lumotlari, Tegishli solishtirish dalolatnomalari ma'lumotlari, schyotlardagi qoldiqlar;

D) To'g'ri javob yo'q

**20. Byudjet tashkilotini chet el valyutalari bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot qaysi muddatda taqdim etiladi.**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 5-sanasigacha;

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha;

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda;

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

### **3-MAVZU: DAVLAT BYUDJETIGA VA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BYUDJETLARIGA DAROMADLAR TUSHUMLARI TO'G'RISIDA HISOBOTLAR**

#### **REJA:**

*3.1. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar tarkibi va ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.*

*3.2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblanishi va tushumi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish hamda moliya organlariga taqdim etilishi tartibi. Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari tushumlari to'g'risidagi hisobotlarni tuzilishi.*

*3.3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzish.*

#### **3.1. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar tarkibi va ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi" ga muvofiq Davlat byudjeti daromadlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;

➤ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

### **O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari:**

1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) bojxona bojlari;

3) qo'shimcha foyda solig'i;

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'implar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, esident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aktsiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari:**

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- yagona soliq to‘lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat‘iy belgilangan soliq;

- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aksiz solig‘i;
- yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan:

– transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- yagona yer solig‘i;

– ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish uchun yig‘im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Davlat maqsadli jamg'armalari, boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari, bojxona organlarining g'azna depozit hisobvarag'iga tushadigan mablag'lar bo'yicha daromadlar manbaalari qonunchilikda belgilangan.

Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari, bojxona organlari g'azna depozit schyoti daromadlari kassa ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'limlari tomonidan yuritiladi.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha xodimlar ko'chirmalar va ularga ilova qilingan hujjatlarni olgandan so'ng hujjatlarni sinchiklab tekshirib, tegishli byudjet, jamg'arma byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari, bojxona organlari g'azna depozit schyoti daromadlari bo'yicha tushgan summalarni to'g'ri qabul qilinganligini o'rnatishi va ushbu tushumlar olib borilishi lozim bo'lgan daromadlar tasnifi kodini aniqlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aktsiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari:

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

- boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'zni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararining o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lar, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasining daromadlari:

- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;

- vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasining daromadlari:

– davlat mulki bo‘lgan korxonalarni, xo‘jalik jamiyatlarining ustav jamg‘armalaridagi aksiyalarni (ulushlarni), yer uchastkalari va boshqa mol-mulknı realizatsiya qilish;

– ustav jamg‘armalarida davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarini tugatishdan tushgan tushumlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining daromadlari:

– belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;

– vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasining daromadlari:

– umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

– vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yyerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi daromadlari:

- har yili tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yyerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining asosiy parametrlari doirasida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to‘lanadigan yagona yer solig‘i bo‘yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;

- byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag‘lar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlari:

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Amaldagi tartibga muvofiq daromadlar bo'yicha summalarni qaytarish yoki hisobga olish to'g'risidagi xulosa ijro etilishi uchun moliya boshqarmasining bosh buxgalteriga taqdim etiladi. Moliya boshqarmasining buxgalteriyasi hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirgandan so'ng byudjet daromadiga ortiqcha o'tkazilgan summani qaytarish bo'yicha bankka taqdim etadi.

### **3.2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblanishi va tushumi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish hamda moliya organlariga taqdim etilishi tartibi**

Tumanlar va shaharlar davlat soliq inspeksiyalari tegishli tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlariga hisobot davri uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi hamda tushumi to'g'risida hisobot taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari hamda Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, shu jumladan ixtisoslashtirilgan bo'linmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga hisobot davri uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi hamda tushumi to'g'risida hisobotlar taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hisobot davri uchun

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi hamda tushumi to'g'risida hisobotlar taqdim etadi.

Solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi va tushumi to'g'risidagi hisobotlarning shakllari hamda ularni taqdim etish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar va muddatlarda Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlarining tushumlari to'g'risida hisobot taqdim etadi.

Solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalari bank muassasalari, tegishli davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar hamda tegishli g'aznachilik bo'linmalari o'rtasida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Avtomatlashtirilgan tizimi («O'RMV» AT)da:

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga daromadlar tushumi to'g'risida tezkor ma'lumot;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjetiga daromadlar tushumi to'g'risida tezkor ma'lumot;

– Tumanlar va shaharlar byudjetlariga daromadlar tushumi to'g'risida tezkor ma'lumot;

DMJ byudjetlariga daromadlar tushumi to'g'risida tezkor ma'lumot;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjetiga daromadlar tushumi to'g'risida jamlanma ma'lumot;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga daromadlar tushumi to'g'risida jamlanma ma'lumot;

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga daromadlar tushumi to‘g‘risida jamlanma ma‘lumot.

Daromadlar tushumi to‘g‘risidagi hisobot to‘lovlar turlari kesimida:

– Tumanlar va shaharlar byudjetlari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjeti;

– O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti;

DMJ byudjetlari bo‘yicha shakllantiriladi.

Daromadlar tushumi to‘g‘risidagi jamlanma hisobot to‘lovlar turlari kesimida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjeti, Toshkent shahrining shahar byudjeti;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlari bo‘yicha shakllantiriladi.

Har kuni moliya-hisob xodimlari tomonidan g‘aznachilikka xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan taqdim etilgan ko‘chirmalarga asosan tegishli byudjet, jamg‘arma byudjeti, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag‘lari, bojxona organlari g‘azna depozit schyoti mablag‘lari bo‘yicha alohida-alohida Daromadlar haqida ma‘lumotnoma (3-shakl) rasmiylashtirilib tegishli 274 - son shakldagi Memorial orderga muomala sodir bo‘lgan vaqtdan so‘ng keyingi kundan kechiktirmay o‘tkaziladi va hujjatlar ilova qilinib tikiladi. Daromadlar kitobiga ma‘lumotlar avtomatik o‘tkaziladi. Shundan keyin shu kundan kechiktirilmay G‘aznachilik organi bosh buxgalteri tomonidan Daromadlar haqida ma‘lumotnoma (3-shakl)da daromadlar tasnifini aks ettirilganligi, buxgalteriya yozuvlari tekshiriladi va 274 - son shakldagi Memorial order tasdiqlanadi.

Moliya organi bosh buxgalteri G‘aznachilik buxgalteriyasi tomonidan tasdiqlangan yuqorida keltirilgan hujjatlarni tekshirib chiqadi. Unda sintetik va analitik hisob ma‘lumotlarini muvofiqligi tekshiriladi va G‘azna dasturiy majmuada “Ijroga” belgisini qo‘yadi va ma‘lumotlar bosh daftarga va hisobot shakllariga avtomatik o‘tadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning byudjetga ortiqcha to'langan summalarini qaytarilishi bo'yicha yozgan arizalari soliq inspeksiyasiga kelib tushadi. Soliq inspeksiyasi to'lovchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridagi ma'lumotlarga asosan ko'rsatilgan to'lov bo'yicha to'lovchida ortiqcha to'langan summaning mavjudligi to'g'risida xulosa beradi va uni to'lovchining arizasi bilan birga ko'rsatilgan summani byudjetdan qaytarish yoki uni kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun moliya organiga beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" "Soliq organining xulosasi" bo'yicha tegishli band kiritilgan bo'lib, unda soliq organining xulosalari davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga ortiqcha to'langan mablag'larni qaytarish yoki kelib tushgan daromadlarni bir turidan boshqa turiga o'tkazish uchun to'lov hujjatlarini rasmiylashtirilishiga asos bo'ladi.

Soliq organi xulosalarini rasmiylashtirish shartlari va tartibi hamda uni ijro etish me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari tushumlari to'g'risidagi hisobotlarni tuzilishi.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining hisobot davrida tushgan daromadlari bo'yicha yillik hisobotni "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi va tushumlari to'g'risidagi hisobotlar, tushumlar bo'yicha solishtirish

dalolatnomalarni tuzish hamda taqdim qilish tartibi to'g'risidagi Nizom" ning 18 – 21-ilovalariga muvofiq shaklda hisobot yilidan keyingi yilning 15 martiga qadar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga va Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga taqdim etadi.

### **3.3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzish**

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalari "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi va tushumlari to'g'risidagi hisobotlar, tushumlar bo'yicha solishtirish dalolatnomalarni tuzish hamda taqdim qilish tartibi to'g'risidagi Nizom" ga asosan tuziladi. Mazkur nizomga muvofiq Tuman (shahar) davlat soliq inspektsiyalari tomonidan hisobot davri uchun ularda mavjud ma'lumotlar hamda belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi to'g'risidagi hisobotlar tayyorlanib, har chorakda choraklik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga (yil yakuni bo'yicha yillik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga) qadar qog'oz shaklda;

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushumlari to'g'risidagi hisobotlar tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga qadar tegishli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlariga elektron shaklda (har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga qadar qog'oz shaklda) taqdim etiladi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan tayyorlangan hisobotlarning elektron shakli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlariga taqdim etish belgilangan muddatlarda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tegishli tuman (shahar) bo'linmalariga taqdim qilinadi.

Davlat soliq boshqarmasi hisobot davri uchun ularda mavjud ma'lumotlar hamda belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi to'g'risidagi hisobotlar tayyorlanib, har chorakda choraklik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga (yil yakuni bo'yicha yillik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga) qadar qog'oz shaklda;

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushumi to'g'risidagi hisobotlar tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o'n beshinchi ish kuniga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga elektron shaklda (har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o'n beshinchi ish kuniga qadar qog'oz shaklda) taqdim etiladi.

Davlat soliq boshqarmalari tomonidan tayyorlangan hisobotlarning elektron shakli va nusxalari Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etish belgilangan muddatlarda Pensiya jamg'armasining tegishli boshqarmalariga taqdim qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmalari tomonidan hisobot davri uchun ularda mavjud ma'lumotlar hamda belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

Davlat byudjetiga boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi to'g'risidagi hisobot tayyorlanib, har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o'n beshinchi ish kuniga qadar;

Davlat byudjetiga boshqa majburiy to'lovlarning tushumlari to'g'risida hisobot tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o'n beshinchi ish kuniga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan, davlat soliq xizmati organlarida mavjud ma'lumotlar, ularning hisobotlari belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

– Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalar byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi to'g'risidagi hisobotlar tayyorlanib, har chorakda choraklik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga (yil yakuni bo'yicha yillik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o'ninchi ish kuniga) qadar qog'oz shaklda;

– Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalar byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushumlari to'g'risidagi hisobotlar tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o'n yettinchi ish kuniga qadar (operativ hisobotlardan tashqari), mos ravishda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, Pensiya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi (bundan buyon matnda Respublika yo'l jamg'armasi deb yuritiladi) va Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga elektron shaklda (har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o'n yettinchi ish kuniga qadar qog'oz shaklda) taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan davlat bojxona organlarida mavjud ma'lumotlar, ularning hisobotlari belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

– Davlat byudjetiga boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi to'g'risidagi hisobot tayyorlanib, har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o'n yettinchi ish kuniga qadar;

– Davlat byudjetiga boshqa majburiy to‘lovlarning tushumlari to‘g‘risida hisobot tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o‘n yettinchi ish kuniga qadar (operativ hisobotlardan tashqari), O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Elektron shaklda tuzilgan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining hisobot davrida tushgan daromadlari bo‘yicha ma‘lumot O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan elektron shaklda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kunlik taqdim etib boriladi. Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan hisobot oyidan keyingi oyning uchinchi ish kuniga qadar:

– Davlat byudjetiga 23402 — «Respublika byudjetining mablag‘lari» balans hisobvarag‘i orqali tushgan tushumlar bo‘yicha;

– Pensiya jamg‘armasiga tushumlar bo‘yicha;

– Respublika yo‘l jamg‘armasiga tushumlar bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga tushumlar bo‘yicha solishtirish dalolatnomalari tuziladi.


Solishtirish dalolatnomalari xizmat ko‘rsatuvchi bank ko‘chirmalarida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar asosida tayyorlanib, tegishli davlat soliq inspeksiyasi rahbari tomonidan imzolanganidan keyin kelishish uchun xizmat ko‘rsatuvchi bankka (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi. Xizmat ko‘rsatuvchi banklar tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning to‘rtinchi ish kunigacha ko‘rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli bank rahbari tomonidan imzolanadi va kelishish uchun tegishli tuman (shahar) bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmalariga (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu ma‘lumotlarga bank tomonidan

aniqlik kiritiladi. Tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oying beshinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

### Daromadlar nazoratining manbalari



#### 3.2.1-chizma. Daromadlar nazoratining manbalari

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimidagi ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lmagan taqdirda, solishtirish

dalolatnomalari tegishli tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Bunda:

– solishtirish dalolatnomalari kelishish uchun tegishli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlariga, solishtirish dalolatnomasini esa, Pensiya jamg'armasining tegishli tuman (shahar) bo'linmasiga kelishish uchun taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu ma'lumotlarga tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari tomonidan aniqlik kiritiladi.

Tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari hamda Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'linmalari G'aznachilik bo'linmalari tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning oltinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari yoki Pensiya jamg'armasining bo'linmalari rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari hamda Pensiya jamg'armasining bo'linmalari imzolangan solishtirish dalolatnomalari nusxalarini tegishli davlat soliq inspeksiyasi, xizmat ko'rsatuvchi bank va G'aznachilik bo'linmasiga keyingi ish kunidan kechiktirmasdan yuboradi.

Imzolangan solishtirish dalolatnomalarining bir nusxasi hisobot oyidan keyingi oyning yettinchi ish kuniga qadar:

tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan tegishli davlat soliq boshqarmasiga;

tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasiga;

tuman (shahar) G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmasiga;

tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmasiga;

Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'linmalari tomonidan Pensiya jamg'armasining tegishli boshqarmasiga taqdim etiladi.

Davlat soliq boshqarmalari taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalari asosida (Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida ochilgan 23402 — «Respublika byudjetining mablag'lari» balans hisobvarag'i orqali tushadigan tushumlarni ham hisobga olgan holda) hisobot oyidan keyingi oyning to'qqizinchi ish kunigacha:

Davlat byudjetining 23402 — «Respublika byudjetining mablag'lari» balans hisobvarag'i orqali tushadigan tushumlar bo'yicha;

Pensiya jamg'armasi daromadlari bo'yicha;

Respublika yo'l jamg'armasi daromadlari bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzadi.

Solishtirish dalolatnomalari tegishli hududiy davlat soliq boshqarmasi rahbari tomonidan imzolangandan keyin kelishish uchun Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga (jumladan, elektron shaklda) taqdim etadi.

23403 — «Bojxona to'lovlari bo'yicha Respublika byudjetining daromadlari» balans hisobvarag'ining tegishli Shartli hisobvaraqlari ochilgan xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining tegishli hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmalariga va Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasiga 23403 — «Bojxona to'lovlari bo'yicha Respublika

byudjetining daromadlari» balans hisobvarag'ining tegishli Shartli hisobvaraqlari bo'yicha bank ko'chirmalari va ilovalari elektron va qog'oz shaklda kunlik taqdim etib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmalari tomonidan solishtirish dalolatnomalari tuziladi. Mazkur solishtirish dalolatnomalari Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazining ko'chirmalari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi banklar ko'chirmalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida tayyorlanib, Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmasi va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi rahbari tomonidan imzolanganidan keyin kelishish uchun Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga hisobot oyidan keyingi oyning yettinchi ish kunigacha (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi hududiy davlat soliq boshqarmasi va davlat bojxona boshqarmasi va unga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning o'ninchi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan banklar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi rahbari tomonidan imzolanadi va kelishish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha tegishli G'aznachilik boshqarmalariga (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha tegishli G'aznachilik boshqarmasi taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning o'n birinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi. Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot

tizimidagi ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli G'aznachilik boshqarmasi rahbari tomonidan imzolanadi.

Bunda:

– solishtirish dalolatnomalari kelishish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga, solishtirish dalolatnomasini esa, Pensiya jamg'armasining tegishli boshqarmalariga taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu ma'lumotlarga tegishli G'aznachilik boshqarmasi tomonidan aniqlik kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari hamda Pensiya jamg'armasining boshqarmalari taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning o'n ikkinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari ularning rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari va Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari imzolangan solishtirish dalolatnomalari nusxalarini tegishli davlat soliq, bojxona boshqarmasi va unga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi, Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalariga keyingi kundan kechiktirmasdan taqdim qiladi.

Imzolangan solishtirish dalolatnomalari hisobot oyidan keyingi oyning o'n uchinchi ish kunigacha:

– davlat soliq boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga;

– Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligiga;

– Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmalari tomonidan Pensiya jamg‘armasining Ijro etuvchi direktsiyasiga;

Davlat bojxona qo‘mitasining hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasiga taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy banki, Moliya vazirligi G‘aznachiligi, Pensiya jamg‘armasining Ijro etuvchi direktsiyasi hamda Davlat bojxona qo‘mitasi quyi turuvchi organlar tomonidan taqdim qilingan solishtirish dalolatnomalarini ko‘rib chiqadi. Solishtirish dalolatnomalarida ko‘rsatilgan ma‘lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Markaziy banki, Moliya vazirligi G‘aznachiligi, Pensiya jamg‘armasining Ijro etuvchi direktsiyasi hamda Davlat bojxona qo‘mitasi rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Bunda:

– solishtirish dalolatnomalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Hududlar moliyasi bosh boshqarmasiga;

– solishtirish dalolatnomalarini Respublika yo‘l jamg‘armasi Ijro etuvchi direktsiyasiga;

– solishtirish dalolatnomalarini Umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi Ijro etuvchi

direktsiyasiga hisobot oyidan keyingi oyning o'n beshinchi ish kuniga qadar taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarining belgilangan muddatlarda tuzilishi, tasdiqlanishi va yuqori tashkilotlarga taqdim qilinishi bo'yicha javobgarlik Davlat soliq boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasining moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari va Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar tarkibi va ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlarini gapirib bering.

2. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari manbaalarini sanab bering?

3. Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjet daromadlari hisobini hujjatlashtirish tartibini aytib bering?

4. O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari manbaalarini sanab bering.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari manbaalarini sanab bering.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Avtomatlashtirilgan tizimi deganda nimani tushunasiz?

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va DMJ byudjetlariga daromadlar tushumi to'g'risida jamlanma ma'lumot qanday shakllantiriladi?

8. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblanishi va tushumi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish hamda moliya organlariga taqdim etilishi tartibini aytib bering.

9. Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari tushumlari to'g'risidagi hisobotlarni tuzilishi haqida gapirib bering.

10. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzish tartibini aytib bering.

11. Soliq organi xulosalarini rasmiylashtirish shartlari hamda uni ijro etish tartibi haqida gapirib bering.

12. Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining hisobot davrida tushgan daromadlari bo'yicha yillik hisobotini topshirish tartibini aytib bering.

13. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi to'g'risidagi hisobotlarning taqdim etilish muddatlarini aytib bering?

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

1. G'azna hisobvaraqlariga kelib tushgan daromadlar to'g'risidagi ma'lumot buxgalteriya hisobi xodimlari tomonidan qancha vaqt oralig'ida xizmat ko'rsatuvchi bankning g'azna hisobvaraqlaridan ko'chirmalari asosida tayyorlanadi?

- A) har hafta;
- B) 3 kunda bir;
- C) har kuni;
- D) kuniga ikki marta,

2. Byudjet daromadlari bo'yicha hisobot shakli ko'rsatkichlari qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?

A) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, 274 – son shakldagi memorial order, daromadlar daftari, daromadlar haqida ma'lumotnoma;

B) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, 274 – son shakldagi memorial order, daromadlar daftari, daromadlar va xarajatlar haqida ma'lumotnoma;

C) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, daromadlar daftari, daromadlar haqida ma'lumotnoma;

D) Hammasi to'g'ri.

**3. Moliya organlari tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan yig'ma hisobot keltirilgan javobni ko'rsating?**

A) Balans, daromadlar haqida hisobot;

B) Byudjet tashkilotlari tomonidan tejalgan va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan byudjet mablag'lari to'g'risida ma'lumot;

C) Xarajatlar bo'yicha hisobot;

D) To'g'ri javob keltirilmagan.

**4. Moliya organlari tomonidan byudjet daromadlari bo'yicha hisobot qaysi muddatlarda taqdim etiladi.**

A) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan muddatlarda;

B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan muddatlarda;

C) Qonunchilikda belgilangan muddatlarda;

D) To'g'ri javob aks ettirilmagan.

**5. Soliqlar bo'yicha, daromadlar tushumi bo'yicha hisobotlar kim tomonidan tuziladi?**

A) Soliq organlari;

B) Bojxona organlari;

C) Moliya organlari;

D) Tegishli vazirliklar.

## **4-MAVZU: BYUDJET KASSA IJROSIGA OID HISOBOTLAR**

### **REJA:**

4.1. *G'aznachilik bo'linmalarida byudjet ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.*

4.2. *Hududiy g'azna tranzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushimi hamda xarajatlari haqida kunlik hisobotlarni tuzish tartibi.*

4.3. *G'aznachilik bo'limlarida Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.*

4.4. *G'aznachilik bo'limlarida byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlari va ulardan foydalanish.*

### **4.1. G'aznachilik bo'linmalarida byudjet ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlat byudjeti kassa ijrosi to'g'risidagi davriy hisobotlar tuziladi. Davriy hisobotlaga asosan kunlik, oylik, choraklik va yillik hisobotlar kiradi.

Hududiy g'aznachilik bo'linmalari har kunlik tezkor hisob ma'lumotlarini tegishli moliya organlariga taqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida moliya organlari byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet mablag'larining sarflanish holatini tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar byudjet daromadlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladi. Har oyda g'aznachilik bo'linmalari tegishli moliya organlari bilan hisobot oyining boshiga tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) rejalashtirilgan ajratmalar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro solishtirib chiqadi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan taqdim etiladigan davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar asosida davlat byudjetini ijrosi bo'yicha tezkor axborotlar shakllantirilib boradi. Bu esa byudjet ijrosini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan moliya organlariga taqdim etilgan hisobotlar asosida moliya organlari davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzadi va tegishli organlarga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Davlat byudjeti ijrosi hisobi kassa usulida yuritilishi belgilangani sababli byudjet hisobotlarini tuzish bo'yicha barcha vazifalar g'aznachilik bo'linmalari zimmasiga yuklatiladi.

Moliya organlari belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuziladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan shakllarda va muddatlarda Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuzadi va taqdim etadi.

Belgilangan tartibda moliya organlari byudjet ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha oylik hisobot shaklida byudjetning daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi asosiy ko'rsatkichlar beriladi. Oylik hisobotda daromadlar byudjet tasnifi bo'yicha aks ettirilib, aniqlangan reja, bajarilishi, bajarilishi foizda va farqi aks ettiriladi. Hisobotda byudjet xarajatlari ham byudjet tasnifi bo'yicha aks ettirilib, unda aniqlangan reja, kassa xarajatlari, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar hamda bajarilishi foizda ko'rsatiladi va farqi aks ettiriladi. Ushbu hisobotda byudjet Davlat maqsadli jamg'armalari, boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larning hududiy g'azna schyotlaridagi, g'azna tranzit schyotlaridagi qoldiqlari aks ettiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi yig'ma oylik hisobotlar tegishli moliya organlari tomonidan o'zlari ijro etayotgan byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga quyi byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini ham qo'shish yo'li bilan tuziladi.

Moliya organlari choraklik hisobotni tegishli shakllarda o'sib boruvchi yakun bo'yicha tuzadi.

Moliya organlarida byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisoboti tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans.

2. Daromadlar.

3. Xarajatlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining byudjet tasnifi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi.

5. Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlari rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot.

6. Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot.

Moliya organlari choraklik hisobotlar tarkibida yuqoridagilardan tashqari tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha quyidagi yig'ma hisobotlarni ham taqdim etadi:

1. Balans.

2. Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot.

3. Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida ma'lumot.

4. Byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;

6. Ta'lim muassasalarini o'qitishni to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

7. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risida hisobot.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans moliya organlari tomonidan Bosh-jurnal daftari va aylanma qaydnomalar asosida tuziladi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balansning aktiv qismi 5 - bo'limdan iborat bo'lib, pul mablag'lari, xarajatlar, berilgan ssudalar, hisob-kitoblar va o'tkazilgan mablag'lar bo'limlari tashkil etadi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balansning passiv qismi 5 - bo'limdan iborat bo'lib, daromadlar, olingan ssudalar, hisob-kitoblar, olingan mablag'lar va natijalar bo'limlari tashkil etadi.

Bosh-jurnal daftaridagi sintetik schyotlar qoldig'i balansdagi ko'rsatkichlar bilan bir xil bo'ladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Daromadlar qismida byudjet tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromadlar summalari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi.

### Daromadlar haqida hisobot

Daromad nomi	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Reja	Bajarilishi
<b>Jami</b>					

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Xarajatlar qismida byudjet tasnifi xarajatlar bo'yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. Shuningdek, bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

### Xarajatlar haqida hisobot

Xarajat nomi	Bo'lim	Kichik bo'lim	Bob	Aniqlangan reja	Moliyalashtirish	Bajarilishi		qabul qilingan yuridik majburiyat	qabul qilingan moliyaviy majburiyat
						kassa	haqiqiy		
<b>Jami</b>									

Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi hisobotda byudjet tasnifining har bir bo'limini boblari, paragraflari va turkumlari bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga shtatlarning miqdori keltiriladi. Shuningdek, o'rtacha miqdorda yillik reja va bajarilishi aks ettiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumotda byudjet tasnifi bo'yicha rezerv fondi mablag'lari sarflanishi va mablag'lar qoldig'i aks ettiriladi.

#### **4.2. Hududiy g'azna tranzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushimi hamda xarajatlari haqida kunlik hisobotlarni tuzish tartibi**

Hududiy g'aznachilik bo'linmalari har kunlik tezkor hisob ma'lumotlarini tegishli moliya organlariga taqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida moliya organlari byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet mablag'larining sarflanish holatini tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar byudjet daromadlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Har oyda g'aznachilik bo'linmalari tegishli moliya organlari bilan hisobot oyining boshiga tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) rejalashtirilgan ajratmalar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro solishtirib chiqadi. Solishtirish natijasi bo'yicha belgilangan shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan byudjet ijrosiga doir kunlik ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

1. Hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldiqlari va daromadlar tushumi to'g'risida ma'lumot.

2. Hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumot.

3. Byudjetlarning hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumot.

## Byudjetlarning hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldiqlari to'g'risida ma'lumot

20\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga

(ming so'm)

Mintaqalarning nomi	Hududiy g'azna hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'i	Shu jumladan		Tranzit g'azna hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'i	Byudjet mablag'lari qoldig'i	Byudjetdan tashqari mablag'lar qoldig'i
		Byudjet mablag'lari qoldig'i	Byudjetdan tashqari mablag'lar qoldig'i			

### G'aznachilik bo'linmasi rahbari

G'aznachilik bo'linmasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi  
(sho'bas) boshlig'i

M.O'. 20\_\_ yil " \_\_ " \_\_\_\_\_

Davlat maqsadli jamg'armalari, boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari, bojxona organlarining g'azna depozit hisobvarag'iga tushadigan mablag'lar bo'yicha daromadlar manbaalari qonunchilikda belgilangan.

Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari, bojxona organlari g'azna depozit schyoti daromdlari kassa ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'limlari tomonidan yuritiladi.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha xodimlar ko'chirmalar va ularga ilova qilingan hujjatlarni olgandan so'ng hujjatlarni sinchiklab tekshirib, tegishli byudjet, jamg'arma byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari, bojxona organlari g'azna depozit schyoti daromadlari bo'yicha tushgan summalarni to'g'ri qabul qilinganligini o'rnatishi va ushbu tushumlar olib borilishi lozim bo'lgan daromadlar tasnifi kodini aniqlashi kerak.

Moliya organlari va g'aznachilik bo'limlarida nazorat va taftish ishlarini amalga oshirishda byudjet tasnifi asosiy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, byudjet tasnifi daromad va xarajatlarni guruhlashdan iboratdir. Guruhlarning moddalari bo'yicha nazoratni amalga oshirish uni haqiqiyliги va samaradorligini ta'minlaydi. Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashdan iboratdir.

*Byudjet tasnifi Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u byudjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi.*

Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat. Ya'ni, daromadlar tasnifi yordamida Davlat byudjetiga kelib tushayotgan barcha ko'rinishdagi daromadlar va tushumlarni turlari, kimlardan kelib tushayotganligi va respublikamizning qaysi hududlaridan kelib tushayotganligi to'g'risida yetarlicha aniq ma'lumotlarni olish mumkin.

Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega:

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- tashkiliy tasnif
- hududiy tasnif.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi	Daromadlar turi	Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif
X XXX X X	X XXX XXX	XXX	XX XXX

Tekshirilgan hujjatlar kunlik ravishda daromadlar turi bo'yicha dasturiy majmuaga byudjet tasnifining har bir kodi bo'yicha kiritiladi.

Byudjet tasnifi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2010-yil 20-avgustda Moliya vazirining 65-son buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi" bilan tartibga solinadi.

Moliya organlari hamda g'aznachilik bo'linmalarida byudjet xarajatlari nazoratini amalga oshirish xarajat manbalarini aniqlash va shakllanish jarayonini tekshirishdan boshlanadi. "Byudjet kodeksi"ga asosan Davlat byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- 2) joriy byudjet transfertlari shaklida;
- 3) kapital xarajatlar shaklida:

– asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

- chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga;
- davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

– davlat zaxiralarini vujudga keltirishga;

4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;

6) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;

7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

8) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Respublika byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);

2) ijtimoiy ta'minot;

3) mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash;

4) sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash;

5) davlat zaxirasi va safarbarlik zaxirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;

6) davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;

7) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash;

8) iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlarini saqlash;

9) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

10) yer tuzish, meliorativ holatni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

11) qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish;

12) gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari;

13) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);

2) ijtimoiy ta'minot;

3) aholini ijtimoiy himoya qilish;

4) Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;

5) iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash;

6) qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, bojxona organlari depozit schyoti, shuningdek byudjetdan moliyalanadigan tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari kassa xarajatlari ijrosini ta'minlaydi. Byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlari ularning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida yoki uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlaridagi byudjetdan ajratilgan mablag'lar qoldiqlari doirasida to'lov topshiriqnomalari bo'yicha amalga oshiriladi. G'azna hisobvarag'idan to'lanadigan byudjetlarning kassa xarajatlari hisobi har bir byudjetdan mablag' oluvchi yoki xarajatlar yo'nalishi bo'yicha g'aznachilik bo'linmalarida bank ko'chirmalari va unga ilova qilingan to'lov hujjatlar asosida byudjet tasnifining bo'limlari, boblari, paragraflari va moddalari (xarajat turlari, obyekt va kichik obyekt) bo'yicha ochilgan tegishli shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek boshqa byudjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi. Ya'ni xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi yordamida Davlat byudjetidan amalga

oshirilayotgan xarajatlar Davlatning aynan qaysi vazifasini bajarish uchun amalga oshirilayotganligini aniq belgilab olishimiz mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

Xarajatlarni iqtisodiy tasnifi O'zbekiston Respublikasi barcha darajadagi byudjetlari xarajatlarini xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab beradi. Davlat byudjetining iqtisodiy xarajatlar tasnifining tuzilmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

<b>Toifa</b>	<b>Modda va kichik modda</b>	<b>Element</b>
<b>xx</b>	<b>xx</b>	<b>xxx</b>

Iqtisodiy xarajatlar tasnifi toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o'z ichiga olgan 7 raqamdan iborat.

toifa – 2 ta raqam;

modda – 1 ta raqam;

kichik modda – 1 ta raqam;

element – 3 ta raqam.

Buxgalteriya xodimlari G'azna dasturiy majmuada g'aznachilikka xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan taqdim etilgan ko'chirmalarga asosan tegishli byudjet, jamg'arma byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari, bojxona organlari g'azna depozit schyoti mablag'lari bo'yicha tegishli kassa xarajatlari kitobi, 274-son shakldagi Memorial order rasmiylashtiriladi. G'aznachilik organi bosh buxgalteri muomala sodir bo'lgan kuni keyingi kundan kechiktirmay dasturiy majmuada kassa xarajatlari bo'yicha Memorial orderga kiritilgan yozuvlarni tekshirib tasdiqlaydi.

### **4.3. G'aznachilik bo'limlarida Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi**

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan byudjet ijrosiga doir oylik hisobot va ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risidagi hisobot.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari to'g'risidagi hisobot.

3. Kapital qo'yilmalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot.

4. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetida va mahalliy byudjetlarda turuvchi byudjet tashkilotlarining tushumlari va kassa xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot.

Byudjet yilining oxirida, yillik hisobot tuzilishidan oldin moliya organining buxgalteriyasi har bir balans hisobvaraqlaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligini, byudjet ssudalari bo'yicha hisob-kitoblar va byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarning holatini tekshiradi. Boshqa byudjetlar bilan o'zaro hisob-kitoblar va olingan va berilgan ssudalar bo'yicha hisob-kitoblar yil oxirigacha, qo'shimcha davrdagi operatsiyalarni qo'shib hisoblaganda tugatilishi lozim, yangi yil boshiga hisob-kitoblar hisobvaraqlarida qoldiqlar bo'lmasligi kerak. Yil yakuni bo'yicha byudjetlar ijrosi bilan bog'liq buxgalteriya operatsiyalari yopish bo'yicha yakunlash operatsiyalari amalga oshiriladi

Moliya yili yakuni bo'yicha byudjet ijrosi natijalarini aniqlash jarayonida buxgalteriya ma'lumotnomalari rasmiylashtirilib memorial ordyerlarga buxgalteriya yozuvlari berilib o'tkaziladi. Memorial orderdagi yozuvlar Bosh-jurnal kitobiga o'tkaziladi.

Moliya organlarida byudjet ijrosi natijalari nazorati quyidagi hisobvaraqlar ma'lumotlari haqqoniyligini o'rganish orqali amalga

oshiriladi “Yakuniy moliyaviy natijalar”ni hisobga oluvchi 9-sonli hisobvaraqla yuritiladi. Ya’ni u quyidagi ko‘rinishga ega:

Balans hisobvaraqlar		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqlar
9	X	X	X X X X X X X

Bunda, balans hisobvarag‘ida davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari g‘azna ijrosining yakuniy moliyaviy natijalari aks ettiriladi.

Valyuta turi kodida yakuniy moliyaviy natijalar milliy yoki xorijiy valyutada ekanligi aks ettiriladi.

Ikkilamchi hisobvaraqla yakuniy moliyaviy natijalar hisoblash yoki kassa usuli bo‘yicha alohida aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlar tarkibi quyidagicha:

90 – Davlat byudjeti mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar;

91 – byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar;

92 – davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar;

93 – bojxona qo‘mitasining g‘aznachilikdagi mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar;

94 – byudjet tashkilotlarni Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy nafaqalari to‘lash bo‘yicha mablag‘lari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari;

95 – o‘tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko‘ra byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mablag‘lar bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar.

Moliya yili davomida moliya organlari byudjetdan mablag‘ oluvchilarning tegishli xarajatlar smetasiga va byudjetlarga o‘zgartirishlar kiritish davomida g‘aznachilik bo‘linmalariga, qonunchilikda belgilangan

muddatlarda, ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlariga muvofiq ko'zda tutilgan, belgilangan maqsadlar yo'nalishlari va miqdorlari, har bir holat va byudjetdan mablag' oluvchi bo'yicha byudjet mablag'larning erkin qoldiqlari summalari to'g'risida yozma ma'lumot beradi.

### **Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risida hisobot**

20\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga

(ming so'm)

Ko'rsat- kich- larning nomlari	Bo'lim	Paragraf	Noyob hisob- vara- raqami	Aniqlanga n reja	Baja- rilishi	Shu jumladan joriy oyda*	Farq (+;-)
A	B	V	1	2	3	4	5=3-2
<b>Balans</b>							

#### **G'aznachilik bo'linmasi rahbari**

G'aznachilik bo'linmasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi  
(sho'bas) boshlig'i

M.O'.                      20\_\_ yil " \_\_ " \_\_\_\_\_

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risida hisobot" tegishli hududiy moliya organlariga hisobot oyidan keyingi oying 5-sanasiga (dekabr oyidan tashqari) taqdim etiladi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot

20\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga  
(ming so'm)

o'rsatkichlarning nomlar	Bo'lim	Bob	Paragraf	Xarajatlar moddasi	Aniqlangan reja	Kassa xarajatlari	Shu jumladan joriy oйда	Qabul qilingan yuridik majburiyatlar	Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar	Farq (+;-)
A	B	V	G	1	2	3	4	5	6	7=2-3
Balans										

### G'aznachilik bo'linmasi rahbari

\_\_\_\_\_

G'aznachilik bo'linmasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi  
(sho'bas) boshlig'i

\_\_\_\_\_

M.O'. 20\_\_ yil " \_\_ " \_\_\_\_\_

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot" tegishli hududiy moliya organlariga hisobot oyidan keyingi oying 5-sanasisga (dekabr oyidan tashqari) taqdim etiladi.

**Kapital qo'yilmalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti  
va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot**

20\_\_yil \_\_\_\_\_ holatiga

Ko'rsatkichlarning nomlari	Shaxsiy hisobvaraq raqami	Bo'lim	Bob	Paragraf	Modda	Aniqlangan reja	Kassa xarajati	Qabul qilingan yuridik majburiyatlar	Qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar
<b>Balans</b>									

(ming so'm)

**G'aznachilik bo'linmasi rahbari**

\_\_\_\_\_

G'aznachilik bo'linmasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi  
(sho'bas) boshlig'i \_\_\_\_\_

M.O'. 20\_\_yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan "Kapital qo'yilmalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot" tegishli hududiy moliya organlariga hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga (dekabr oyidan tashqari) taqdim etiladi.

**Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetida va mahalliy byudjetlarda turuvchi byudjet tashkilotlarining tushumlari va kassa xarajatlari to‘g‘risida ma‘lumot\***

20\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga  
(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlarning nomlari	Bo‘lim	Bob	Paragraf	Yil boshiga qoldiq	Tushumlar	Kassa xarajati	Hisobot davri oxiriga qoldiq
Balans							

**G‘aznachilik bo‘linmasi rahbari**

G‘aznachilik bo‘linmasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (sho‘basi) boshlig‘i \_\_\_\_\_

M.O‘.                      20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

Byudjetdan tashqari mablag‘lar har bir turi bo‘yicha tushumlar haqidagi ma‘lumotlar alohida aks ettiriladi:

1) xodimlar tomonidan o‘zlarining ish joylari (maktabgacha bolalar muassasalarida, internatlarda va boshqalarda) ovqatlangani uchun hisob-kitoblar bo‘yicha xodimlardan tushumlar.

2) maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalarda bolalar saqlangani uchun ota-onalar to‘lovlari (musiq va san‘at maktablarida bolalar o‘qitilgani uchun to‘lovlar ham qo‘shilgan holda) tushumlar.

3) pensiya, ijtimoiy nafaqa to‘lovi uchun byudjetdan tashqari pensiya fondi mablag‘lari.

4) tekshirish natijasida aniqlangan ortiqcha pul mablag‘lari va tovar-moddiy qiymatlikning kamomadlari bo‘yicha tushumlar;

5) byudjet mablag‘lari hisobidan xarid qilingan asosiy vositalarni, tovar-moddiy qiymatliklarni sotishdan tushgan mablag‘lar;

6) joriy moliya yilida o‘tgan yillari byudjet mablag‘lari hisobidan paydo bo‘lgan debitor qarz summalarining qaytarilishi;

7) hududiy g‘azna hisobvarag‘iga qabul qilingan boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar.

G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan “Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetida va mahalliy byudjetlarda turuvchi byudjet tashkilotlarining tushumlari va kassa xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumot” tegishli hududiy moliya organlariga hisobot oyidan keyingi oying 5-sanasiga (dekabr oyidan tashqari) taqdim etiladi.

G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan tegishli hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan byudjet ijrosiga doir choraklik hisobot va ma‘lumotlar quyidagilardan iborat:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobot;

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to‘g‘risidagi hisobot;

3. Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to‘g‘risida hisobot;

4. Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetida va mahalliy byudjetlarda turuvchi byudjet tashkilotlarining tushumlari va kassa xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumot.

G‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan byudjet ijrosiga doir barcha choraklik hisobot va ma‘lumotlar tegishli hududiy moliya organlariga

hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga (dekabr oyidan tashqari) taqdim etiladi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan byudjet ijrosiga doir yillik hisobot va ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risidagi hisobot.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risidagi hisobot.

3. Kapital qo'yilmalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot.

4. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetida va mahalliy byudjetlarda turuvchi byudjet tashkilotlarining tushumlari va kassa xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi barcha yillik hisobot va ma'lumotlar tegishli hududiy moliya organlariga hisobot yilidan keyingi fevral oyining 1-sanasiga (dekabr oyidan tashqari) taqdim etiladi.

Byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetalarining kassa ijrosi to'g'risidagi oylik, chorak va yillik hisobotlaridagi kassa xarajatlariga taalluqli ma'lumotlar g'aznachilik organlarining ma'lumotlari bilan solishtiradi va bu hisobotlarning kassa xarajatlariga taalluqli ma'lumotlari g'aznachilik organlari ma'lumotlari bilan bir xilligi g'aznachilik organlari tomonidan kafolatlanadi. Byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlar smetalarining kassa va haqiqiy ijrosi to'g'risidagi oylik, chorak va yillik hisobotlarini tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

Byudjet mablag'lari oluvchilarning hisobotlari hamda kapital qo'yilmalar va boshqa tadbirlarning to'lovi bo'yicha hisobotlarni «Byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet mablag'lari bo'yicha kassa xarajatlari

hisobi» kitobida (3-kbs-shakl) subschyotlarning ochilish xronologik tartibiga muvofiq alohid-alohida papkalarda saqlanadi. Oylik, chorak va yillik hisobotlar turlari bo'yicha alohida saqlanadi.

Hisobotlarning saqlanishi va arxivga berilishini g'aznachilik organi rahbari ta'minlaydi. Hisobotlar, ular arxivga topshirilgunga qadar, maxsus xonalarda yoki yopiladigan shkaflarda g'aznachilik organi rahbari tomonidan tayinlangan mas'ul shaxsning javobgarligida saqlanishi kerak. Joriy hisobot yilining hisobotlari o'tgan yillarga tegishli hisobotlardan alohida saqlanishi kerak. G'aznachilik organining arxivida hisobotlar belgilangan muddat davomida saqlanadi. Hisobotlarning g'aznachilik organi arxivida saqlash muddati tugagandan so'ng belgilangan tartibda tegishli davlat arxivga topshiriladi. Hisobotlarning arxivga topshirilganligiga dalil bo'ladigan hujjatlar g'aznachilik organida doimiy saqlanadi.

Hududiy g'aznachilik bo'linmalari har kunlik tezkor hisob ma'lumotlarini tegishli moliya organlariga taqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida moliya organlari byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet mablag'larining sarflanish holatini tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar byudjet daromadlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Har oyda g'aznachilik bo'linmalari tegishli moliya organlari bilan hisobot oyining boshiga tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) rejalashtirilgan ajratmalar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro solishtirib chiqadi. Solishtirish natijasi bo'yicha belgilangan shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Hisob davri tugagandan so'ng g'aznachilik organlari "Bosh-jurnal" kitobi, "Byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet mablag'lari bo'yicha kassa xarajatlari hisobi" kitobi (3-kbs-shakl), "Byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjetdan tashqari Pensiya fondi mablag'larining tushumi va sarflanishi hisobi" kitobi (3-kvpf-shakl), "Byudjetdan mablag' oluvchilarga boshqa byudjetdan tashqari mablag'larining tushumi va sarflanishi hisobi"

kitobi (3-kvbs-shakl), "Byudjet ssudalari bo'yicha byudjetlar o'rtasidagi hisob-kitoblar hisobi" kitobi

**Byudjetlarning hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi  
mablag'lar qoldirlari to'g'risida  
ma'lumot**

20\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga  
(ming so'm)

Mintaqa- larning nomi	Hududiy g'azna hisob- varag'i- lagi mab- lag'lar qoldig'i	Shu jumladan		Tranzit g'azna hisobva- rag'idagi mablag'- lar qoldig'i	Byudjet mablag'- lari qoldig'i	Byudjetdan tashqari mablag'lar qoldig'i
		Byudjet mablag'- lari qoldig'i	Byudjet- dan tashqari mablag'- lar qoldig'i			

**G'aznachilik bo'linmasi rahbari**

G'aznachilik bo'linmasi buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi  
(sho'bas) boshlig'i

M.O'. 20\_\_ yil " \_\_ " \_\_\_\_\_

(4-bs-shakl), "Boshqa byudjetlar bilan hisob-kitoblar hisobi" kitobi (4-k-shakl) va "byudjet mablag'lari bo'yicha daromadlar va tushumlar hisobi"

kitobi (5-k-shakl) ma'lumotlariga asosan byudjet daromadlari va xarajatlari kassa ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzadi va ularni belgilangan muddatlarda tegishli moliya organlariga taqdim etadi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan byudjet ijrosiga doir kunlik ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

1. Hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldiqlari va daromadlar tushumi to'g'risida ma'lumot.

2. Hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumot.

3. Byudjetlarning hududiy va tranzit g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumot.

#### **4.4. G'aznachilik bo'limlarida byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlari va ulardan foydalanish**

Samarali g'aznachilik boshqaruvi tizimini yaratishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llashning asosiy maqsadi – bu g'aznachilik tizimining turli sohalarida axborotlarga bo'lgan talablarni to'liq qondirish, davlat miqiyosida moliyaviy axborotlarni qayta ishlashning yangicha avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni boshqarishni tubdan o'zgartirishga erishishdir.

Yaratilajak g'aznachilik axborot tizimining asosiy maqsadi-davlat byudjeti ijrosidagi barcha moliyaviy operatsiyalar va jarayonlarni qayd qilish orqali samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishi uchun tezkor, to'liq va ishonchli axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Mazkur axborot tizimi moliya va g'aznachilik organlarining barcha (markaziy, viloyat, tuman bosqichlaridagi) bo'g'inlarini Markaziy bank,

tijorat banklari, soliq va shunga bogʻliq boʻlgan boshqa tashkilotlarni oʻzaro bogʻlab va birlashtirib turishi lozim.

Gʻaznachilik axborot tizimining asosiy maqsadi davlat byudjetini samarali boshqarishga yoʻnaltirilgan boʻlib, unga erishish uchun quyidagi vaziflarni hal etish talab qilinadi:

– byudjet ijrosi jarayonlarida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qiluvchi shaxslarni toʻliq, ishonchli, tezkor va kerakli darajada batafsil boʻlgan axborotlar bilan taʼminlash;

– markazlashgan byudjet ijrosining moliyaviy resurslarini boshqarishda ishonchli va muntazam maʼlumotlar bazasini yaratish;

– davlat byudjeti koʻrsatkichlarini shakllantirishning tezkorligini va ishonchliligini oshirish;

– davlat byudjeti ijrosini bashoratlashning ishonchliligini oshirish;

– byudjet ijrosining barcha bosqichlarida byudjet tushumlarining miqdori va maqsadli ishlatilishini nazorat qilishni taʼminlash;

– byudjet ijrosining barcha bosqichlarida hisobotlarning aniq shakllanishini tezlashtirish.

Gʻaznachilik axborot tizimini yaratishning pirovard maqsadi davlat byudjeti mablagʻlarini boshqarishni yanada samarasini oshirishga qaratilgandir, buning oqibatida esa:

– davlat byudjeti hisob-kitoblari va hisobotlarning sifati va oʻz vaqtida bajarilishi yanada yaxshilanadi;

– davlat moliyaviy tizimini monitoring qilish va uning yaqqol boʻlishiga xizmat qila olish imkoniyati yaratiladi.

Gʻaznachilik axborot tizimini yaratish doirasida yechiladigan vazifalar orqali gʻaznachilikning asosiy quyi boʻgʻinlari ishini avtomatlashtirish, byudjet jarayonining barcha bosqichlarini, yaʼni rejalashtirish, ijro qilish, nazorat qilish va roʻyxatdan oʻtkazish, hisobotlarni ishlab chiqish va boshqa masalalarni, shuningdek uning

funksional modullari ijrosini ta'minlash ham qamrab olingan bo'lishi kerak.

Ko'rinib turibdiki, ushbu vazifalarni amalga oshirish axborot texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llashni talab qiladi va ana shu yo'l orqaligina samarali g'aznachilik axborot tizimini yaratish mumkin bo'ladi.

Davlat byudjetini boshqarishdagi g'aznachilik axborot tizimining zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali amalga oshiriladigan asosiy vazifalariga quyidagilar taalluqlidir:

- davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi axborotlarning tezkorlik bilan to'plash va ularni qayta ishlash orqali davlat miqyosidagi mavjud moliyaviy resurslardan tezkor va samarali foydalanishga imkon berish;

- davlat byudjeti mablag'larini YaG'HRda to'planib borishi va saqlanishini ta'minlash;

- barcha bosqichlarda va pog'onalarda (mablag' ajratishdan boshlab kassa chiqimlarigacha) byudjet ijrosining nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash, natijada esa, nazoratni to'lovlar amalga oshirilishi kutilayotgan vaqtdan boshlab nazorat qilinishiga va o'z navbatida nazoratning o'ta samarali bo'lishiga erishiladi;

- byudjet ijrosi va resurslarini boshqarish jarayonining samarasini yanada oshirishni ta'minlash;

- moliyaviy hujjatlar va elektron xabarlarini standartlashtirish;

- moliyaviy hujjatlarning samarali, tezkor, ishonchli va konfidentsial almashinuvini ta'minlash;

- byudjetni qabul qiluvchilarga qilinadigan xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;

- byudjet tasniflanishini markazlashtirilgan holda olib borish va uni barcha boshqarmalar va bo'limlarga tezkor yetkazib turish.

Axborot tizimi quyidagi umumiy talablarga javob berishi lozim bo'ladi:

– g‘aznachilik, bank, moliya, soliq va boshqa tashkilotlarning o‘zaro aloqalarini hamda ularning g‘aznachilik tizimining yagona axborot bazasi bilan tezkor axborot almashinuvini, g‘aznachilikning asosiy masalalarini avtomatlashtirish va byudjet bilan bog‘liq tashkilotlar bilan telekommunikatsion vositalar orqali axborot almashishini ta‘minlash;

– byudjet tizimidagi xususiy masalalarni avtomatlashtirishdan, boshqarish jarayonidagi barcha masalalarni keng qamrovli integrallashgan holda avtomatlashtirishga o‘tish;

– g‘aznachilik bo‘limlarida axborotlarni markazlashtirilgan holda avtomatik ravishda qayta ishlash texnologiyasiga o‘tish;

– Moliya vazirligining g‘aznachilik departamenti qoshida turli xil moliyaviy masalalarni yechish uchun yagona va markazlashgan tarzda avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar bazasini saqlash imkoniyatini yaratish;

– hukumat boshqaruvi organlariga byudjet tizimi bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun doimiy, to‘liq, tezkor va ishonchli axborotlarni muntazam ravishda yetkazib turish;

– byudjet tizimidagi alohida-alohida xususiy masalalarni avtomatlashtirishdan voz kechib, shu tufayli sarflanadigan umumiy xarajatlarni kamaytirish, axborotlarni markazlashgan holda qayta ishlash texnologiyasini joriy qilish va qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirish hisobiga uning iqtisodiy samaradorligini ham oshirish.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *G‘aznachilik bo‘linmalarida byudjet ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlarini gapirib bering.*

2. *Byudjet kassa ijrosiga oid hisobotlar tarkibini sanab bering?*

3. *Byudjet ijrosi to‘g‘risidagi balans shaklini tushuntirib bering?*

4. *Byudjet daromadlari tasnifini tushuntirib bering?*

5. Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjet daromadlari hisobini hujjatlashtirish tartibini aytib bering?

6. Byudjet xarajatlari tasnifini tushuntirib bering?

7. Byudjet xarajatlari kassa ijrosi nimani anglatadi?

8. Moliya organlarida xarajatlar hisobini hujjatlashtirish tartibini tushuntirib bering?

9. G'aznachilik bo'limlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi haqida gapirib bering.

10. G'aznachilik bo'limlarida Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi haqida qytib bering.

11. G'aznachilik bo'limlarida byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlari va ulardan foydalanish deganda nimalarni tushunasiz?

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

1. Moliya organlarida davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini tarkibiy qismlarini ko'rsating?

A) Pul mablag'lari, Xarajatlar, Berilgan ssudalar, Hisoblashuvlar, Berilgan mablag'lar, Daromadlar, Olingan ssudalar, Hisoblashuvlar, Olingan mablag'lar, Natijalar;

B) Pul mablag'lari, Xarajatlar, Hisoblashuvlar, Berilgan mablag'lar, Daromadlar, Olingan mablag'lar, Natijalar;

C) Pul mablag'lari, Xarajatlar, Berilgan ssudalar, Hisoblashuvlar, Berilgan mablag'lar, Daromadlar, Olingan ssudalar, Hisoblashuvlar, Olingan mablag'lar, Moliyaviy natijalar;

D) Daromadlar, Xarajatlar.

2. "Bosh-jurnal"daftari asosida har bir byudjet bo'yicha byudjetning g'azna ijrosi balansi qanday shakllanadi?

A) umumiy;

- B) alohida;
- C) qo'shilgan holda;
- D) 1 va 2.

**3. Moliya organlari byudjet ijrosiga oid hisobotlarni qaysi muddatda tuzadi va taqdim etadi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan shakllarda va muddatlarda;
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan muddatlarda;
- C) Qonunchilikda belgilangan muddatlarda;
- D) To'g'ri javob aks ettirilmagan.

**4. Moliya yili yakuni bo'yicha buxgalteriya hisobi bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari xodimlari tomonidan byudjetlar ijrosi natijalari bo'yicha yillik hisobot tuzishdan oldin...**

- A) barcha balans hisobvaraqlari ma'lumotlarining ishonchliligi tekshiriladi.
- B) balans hisobvaraqlari ma'lumotlarining ishonchliligi, byudjet ssudalari bo'yicha hisob-kitoblar va byudjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar holati tekshiriladi
- C) balans hisobvaraqlari ma'lumotlarining ishonchliligi, byudjet ssudalari va byudjetlar o'rtasidagi hisob-kitoblar holati tekshiriladi
- D) byudjet ssudalari bo'yicha hisob-kitoblar va byudjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar holati tekshiriladi.

**5. Moliya organlarida davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?**

- A) Bosh jurnal daftardagi tegishli subschyotlar ma'lumotlari, Memorial order va boshqa tegishli hisob registrlari.
- B) Bosh daftardagi tegishli subschyotlar ma'lumotlari, Tegishli solishtirish dalolatnomalari ma'lumotlari, schyotlardagi qoldiqlar.

C) Faqat Bosh jurnal daftari.

D) To'g'ri javob yo'q.

**6. Moliya organlarida davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi shakli qaysi me'yoriy hujjatga asosan tasdiqlangan?**

A) "Davlat byudjeti ijrosi buxgalteriya hisobi va hisobotlari yuritish tizimini muvofiqlashtirish choralari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 23-iyuldagi 99-sonli buyrug'i;

B) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyruqlari va uslubiy ko'rsatmalari bo'yicha xatlariga asosan;

C) "Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosiga oid hisobot shakllarini muvofiqlashtirish choralari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 31-dekabrda 121-sonli buyrug'i;

D) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016 yil 17 martdagi 49 – sonli buyrug'i.

## **5-MAVZU: MOLIYA ORGANLARIDA DAVLAT BYUDJETI IJROSIGA OID HISOBOTLAR**

### **REJA:**

*5.1. Moliya organlarida Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.*

*5.2. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini tuzilishi.*

*5.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.*

*5.4. Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobotlarni, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzish.*

*5.5. Moliya organlarida byudjet tashkilotlariga tegishli moliyaviy hisobotlarni umumlashtirish.*

### **5.1. Moliya organlarida Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.**

Moliya organlari (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, shahar va tuman moliya bo'limlari) O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini ijro etish qoidalarini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan byudjet hisobotlarini shakllantiradi.

**Moliya organlarida, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida byudjet hisobotlarni tuzishdan maqsad** - byudjet ijrosi jarayonini borishi va byudjet jarayonini tashkil etish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishga asos bo'luvchi axborotlarni shakllantirishdan iborat.

## **Moliya organlarida G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida byudjet hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:**

- Davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayoni muomalalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirish;
- Byudjet hisobi schyotlarida byudjet mablag'larini holati va harakatini aks ettirish;
- Davlat byudjeti ijrosi natijalarini aniqlash;
- Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik byudjet hisobotlarini tuzish, taqdim etish va boshqalar.

Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalarni byudjet hisobini yuritish uchun operatsiyalar amalga oshirilganligini belgilovchi hujjatlar va ularni o'tkazishga doir farmoyishlar kabi birlamchi hisob hujjatlari asos bo'ladi.

Birlamchi hisob hujjatlari byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilgan paytda yoki ular amalga oshirilgandan so'ng tuziladi.

Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha hisobot davriga doir operatsiyalarni amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo'lsa, ular buxgalteriya hisobida tegishli birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish orqali aks ettiriladi.

Bunda, o'tgan yilga doir byudjetning g'azna ijrosi amalga oshiriladigan moliya yiliga qo'shimcha davrda byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning hisobi, belgilangan tartibda aks ettirilgan, qo'shimcha davr mobaynida tuzilgan birlamchi hisob hujjatlari asosida, o'tgan yilning byudjetlarning g'azna ijrosi byudjet hisobida amalga oshiriladi.

Birlamchi hisob hujjatlarini tuzgan va imzolagan shaxslar, ushbu hujjatlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning o'z vaqtida tuzilishi, to'g'riligi va haqqoniyligi, shuningdek ularni buxgalteriya hisobotida aks ettirilishi uchun belgilangan muddatlarda yetkazilishi uchun javobgardirlar.

Birlamchi va boshqa hisob hujjatlariga, operatsiyalar qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Bank va kassa hujjatlarini o'zgartirish va bo'yashga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir ish kuni tugashi bilan respublika byudjeti ijrosi bo'yicha, mahalliy byudjet ijrosi bo'yicha, jamg'armalar byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari, shuningdek bojxona organlari g'azna depozit schyoti mablag'lari operatsiyalari barcha birlamchi va hisob hujjatlari g'aznachilik bo'linmalari buxgalteriya hisobi xodimlari tomonidan ularning kelib tushishi bo'yicha jamlanadi va broshyuralanadi.

Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalarning byudjet hisobi registrlari ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq tasdiqlangan blankalar (shakllar), jurnallar, kitoblarni o'zida ifodalaydi.

Byudjetlarning ijrosi bo'yicha operatsiyalarning byudjet hisobi quyidagi hisobga olish registrlarida yuritiladi:

a) "Bosh jurnal" daftari;

b) byudjet mablag'lari kassa xarajatlari kitobi, jamg'arma mablag'lari taqsimlovchilari kassa xarajatlari kitobi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarflanishi hisob-kitobi, bojxona organlari g'azna depozit schyotiga mablag'lar tushumi va sarflanishi hisob-kitobi, byudjetdan mablag' oluvchilarning boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari tushumi va sarflanishi hisob-kitobi;

Bunda, byudjetlarning g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi registrlari bo'yicha operatsiyalar elektron shaklda yuritiladi. Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, bojxona organlari g'azna depozit schyoti shuningdek byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari bo'yicha amalga oshirilgan kassa xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot Davlat byudjetining g'azna ijrosi dasturiy majmuida kunlik asosida va hisobot oyi, choragi va yilining o'sib boruvchi yakuni bilan bank ko'chirmalaridan olingan va tegishli g'azna hisobvaraqlariga (operatsiya amalga oshirilgan kunning ertangi bank kunidan kechiktirmasdan) kelib tushgan va ko'chirilgan mablag'lar to'lov hujjatlari ma'lumotlari asosida aks ettiriladi.

Moliya organlari belgilangan tartibda byudjet hisobi ma'lumotlari asosida Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuziladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan

shakllarda va muddatlarda Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuzadi va taqdim etadi.

Belgilangan tartibda moliya organlari byudjet ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzadi.

Qorqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha oylik hisobot shaklida byudjetning daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi asosiy ko'rsatkichlar beriladi. Oylik hisobotda daromadlar byudjet tasnifi bo'yicha aks ettirilib, aniqlangan reja, bajarilishi, bajarilishi foizda va farqi aks ettiriladi. Hisobotda byudjet xarajatlari ham byudjet tasnifi bo'yicha aks ettirilib, unda aniqlangan reja, kassa xarajatlari, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar hamda bajarilishi foizda ko'rsatiladi va farqi aks ettiriladi. Ushbu hisobotda byudjet Davlat maqsadli jamg'armalari, boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larning hududiy g'azna schyotlaridagi, g'azna tranzit schyotlaridagi qoldiqlari aks ettiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi yig'ma oylik hisobotlar tegishli moliya organlari tomonidan o'zlari ijro etayotgan byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga quyi byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini ham qo'shish yo'li bilan tuziladi.

Moliya organlari choraklik hisobotni tegishli shakllarda o'sib boruvchi yakun bo'yicha tuzadi.

Moliya organlarida byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisoboti tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans.
2. Daromadlar.
3. Xarajatlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning byudjet tasnifi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi;
5. Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlari rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot;
6. Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot.

Moliya organlari choraklik hisobotlar tarkibida yuqoridagilardan tashqari tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha quyidagi yig'ma hisobotlarni ham taqdim etadi:

1. Balans.

2. Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot.

3. Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida ma'lumot.

4. Byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

6. Ta'lim muassasalarini o'qitishni to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

7. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risida hisobot.

8. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot.

9. Nomoliyaviy aktivlarni harakati to'g'risida ma'lumot.

10. Chet el valyutasidagi pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.

Moliya organlarida byudjet hisobotlarini tuzishning xususiyatlari quyidagicha:

1. Respublika byudjeti ijrosi bo'yicha hisobot alohida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar mahaliy byudjetlar ijrosi bo'yicha hisobot alohida shakllantiriladi.

2. Hisob yuritishning kassa usuli bo'yicha byudjet hisobotlari tuziladi;

3. Tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha yig'ma hisobotlar shakllantiriladi va boshqalar.

Moliya organlari, G'aznachilik va uning hududiy bo'limlarida hisobot tuzilayotganda buxgalteriya hisobini yuritishning quyidagi shartlariga amal qilish lozim:

- hisobot davrida amalga oshirilgan byudjet ijrosiga oid muomalalarni to'liq aks ettirishi;

- buxgalteriya hisobining schyotlarida amaldagi qonunchilikka asosan daromad va xarajatlarni joriy yilda to'g'ri hisobga olinishi;
- byudjet ijrosiga oid buxgalteriya kitoblaridagi hisob ma'lumotlarining sintetik hisob ma'lumotiga mos kelishi;
- Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha daromadlar va xarajatlarni kassa usulida aks ettirilishi va boshqalar.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasining sintetik hisobvaraqlari tasnifi\***

5.1.1-jadval

<b>YAGONA HISOBVARAQLAR REJASI</b>		
№	Sintetik hisobvaraqlar	Hisobvaraqlar nomlanishi
1.	1000000000	Mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar ( <i>Aktiv</i> )
2.	2000000000	Kassa xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar ( <i>Aktiv</i> )
3.	3000000000	Hisoblangan xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar ( <i>Aktiv</i> )
4.	4000000000	Kassa daromadlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar ( <i>Passiv</i> )
5.	5000000000	Hisoblangan daromadlar ( <i>Passiv</i> )
6.	6000000000	Aktivlar, majburiyatlar, vaqtincha pul mablag'larini joylashtirilishi, byudjet ssudalari, o'zaro hisob-kitoblar hamda byudjetlararo olingan va berilgan mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar
7.	9000000000	Moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar

Moliya organlarida, shuningdek G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, shuningdek byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari bo'yicha amalga oshirilgan kassa xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'iga asosan

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari g‘azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma”siga muvofiq yuritiladi.

Mazkur Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Xalqaro valyuta jamg‘armasining Davlat moliyasi statistikasi bo‘yicha qo‘llanmasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, milliy byudjet hisobini davlat sektorida moliyaviy hisob va hisobotlarning xalqaro standartlari bilan uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutadi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari g‘azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini moliya organlari va g‘aznachilik bo‘linmalarida qo‘llash tartibini belgilaydi.

\*O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari g‘azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasining analitik hisobvaraqlari ilovada keltiriladi.

## **5.2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo‘yicha buxgalteriya balansini tuzilishi**

Byudjet ijrosi to‘g‘risidagi balans moliya organlari tomonidan bosh-jurnal daftari va aylanma qaydnomalar asosida tuziladi. Byudjet ijrosi to‘g‘risidagi balansning aktiv qismi 5 - bo‘limdan iborat bo‘lib, Pul mablag‘lari, Xarajatlar, Berilgan ssudalar, Hisob-kitoblar va O‘tkazilgan mablag‘lar bo‘limlari tashkil etadi. Byudjet ijrosi to‘g‘risidagi balansning passiv qismi 5 - bo‘limdan iborat bo‘lib, Daromadlar, Olingan ssudalar, Hisob-kitoblar, Olingan mablag‘lar va Natijalar bo‘limlari tashkil etadi.

Bosh-jurnal daftaridagi sintetik schyotlar qoldig‘i balansdagi ko‘rsatkichlar bilan bir xil bo‘ladi.

Joriy yil bo'yicha mahalliy byudjet ijrosining buxgalteriya hisobi yozuvlarida topilgan xatolar quyidagi tartibda to'g'rilanadi:

a) mazkur hisobot davrida buxgalteriya balansi taqdim qilingunga qadar aniqlangan, memorial order ma'lumotlarini o'zgartirishni talab qilinmaydigan xato noto'g'ri summalar va matnni ustidan, o'qib bo'ladigan darajada ingichka chiziq tortish, kerak bo'lgan paytda chizilganlar ustiga to'g'ri summalarni va yangi matnni yozish orqali to'g'rilanadi. Har bir tuzatish bosh buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi;

b) buxgalteriya balansini taqdim qilingunga qadar, memorial orderdagi xato natijasida topilgan xato yozuv, uning xarakteriga muvofiq qo'shimcha memorial order tuzish orqali yoki "Qizil storno" usuli bilan tuzatiladi. Balans taqdim qilingandan so'ng hisobot davri buxgalteriya hisobi yozuvlaridagi topilgan xatolar ham huddi shu tarzda tuzatiladi. Xatolar "Qizil storno" usuli bilan tuzatilganda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi: xato yozuv qilib qizil siyohda qaytadan yozilib, to'g'risi esa - qora (ko'k, siyoh rang) siyohda yoziladi. Jami summalarni hisoblashda qizil siyohda yozilgan summalar qora (ko'k, siyoh rang) siyohda yozilgan summalar yig'indisidan ayiriladi. Xatolarni tuzatish bo'yicha qo'shimcha buxgalteriya yozuvlari, shuningdek "Qizil storno" usuli bilan xato tuzatishlar, odatdagi rekvizitlar bilan bir qatorda memorial ordyerlar bilan rasmiylashtirilib, tuzatish kiritilgan memorial orderning tuzilgan sanasi va raqamiga asosan tuzilganligi ta'kidlab o'tiladi.

Hisobot yili tugashi bilan va yakuniy balans tuzilishidan oldin buxgalteriya hisobi daftarlarida har bir sintetik va analitik (tahliliy) hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalar yig'indisi hisoblanib, ushbu hisobvaraqlar bo'yicha qoldiqlar chiqariladi.

Yangi hisobot yilida sintetik va analitik hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya registrarlarida yilning boshiga mavjud bo'lgan qoldiqlar yakuniy balans va o'tgan yilning hisob registrarlaridagi yozuvlarga to'liq mos kelgan holda yoziladi.

Moliya organlarining Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi quyidagi bo'limlardan iboratdir.

Sodir bo'lgan buxgalteriya operatsiyalari "Bosh jurnal"ga, analitik (tahliliy) hisob daftarlariga memorial ordyerlar va ularga ilova qilingan hujjatlarga hujjatlar asosida yoziladi. Moliya organlari, shuningdek G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari buxgalteriya bo'limida byudjet ijrosiga oid dastlabki hujjatlar asosida yig'ma hujjatlar tuziladi va buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilib memorial order va tegishli buxgalteriya kitoblari rasmiylashtiriladi, shuningdek memorial ordyerlardagi yozuvlar Bosh daftarga o'tkaziladi.

Oyning oxirida buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligi ustidan nazorat qilish uchun tahliliy hisob daftarida ko'rsatilgan debet va kredit bo'yicha aylanmalar yig'indilari va qoldiqlar "Bosh jurnal" daftarining sintetik hisobvaraqlaridagi aylanmalar yig'indilari va qoldiqlar bilan solishtiriladi.

Buxgalteriya balansini tuzish uchun asos bo'lib, Bosh jurnal daftaridagi chiqarilgan qoldiq summolari olinadi.

Hisobot yili tugashi bilan va yakuniy balans tuzilishidan oldin buxgalteriya hisobi daftarlarida har bir sintetik va analitik (tahliliy) hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalar yig'indisi hisoblanib, ushbu hisobvaraqlar bo'yicha qoldiqlar chiqariladi.

### **Moliya organlari, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarini Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini**

<b>AKTIV</b>		<b>PASSIV</b>	
Bo'lim		Bo'lim	
I	Pul mablag'lari	I	Daromadlar
II	Xarajatlar	II	Olingan ssudalar
III	Berilgan ssudalar	III	Hisoblashuvlar
IV	Hisoblashuvlar	IV	Olingan mablag'lar
V	Berilgan mablag'lar	V	Natijalar
<b>BALANS</b>		<b>BALANS</b>	

Yangi hisobot yilida sintetik va analitik hisobvaraqlar bo'yicha buxgalteriya registrlarida yilning boshiga mavjud bo'lgan qoldiqlar yakuniy

balans va o'tgan yilning hisob registrlaridagi yozuvlarga to'liq mos kelgan holda yoziladi.

Moliya organlarining Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi quyidagi bo'limlardan iboratdir, buni tekshirish yuqori bo'g'indan boshlangan jarayonda sintetik hisobning analitik hisobga mosligini aniqlashdan iborat

### **5.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahaliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi**

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Daromadlar qismida byudjet tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromadlar summalari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Xarajatlar qismida byudjet tasnifi xarajatlar bo'yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. Shuningdek, bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning byudjet tasnifi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi qismida xarajatlarning turlari bo'yicha, aniqlangan, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan xarajatlar kassa xarajati, haqiqiy xarajatlar, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlar rejasining bajarilishi to'g'risida hisobotda byudjet tasnifining har bir bo'limini boblari, paragraflari va turkumlari bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga shtatlarning miqdori keltiriladi. Shuningdek, o'rtacha miqdorda yillik reja va bajarilishi aks ettiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumotda byudjet

tasnifi bo'yicha rezerv fondi mablag'lari sarflanishi va mablag'lar qoldig'i aks ettiriladi.

Moliya organlari tomonidan tuziladigan Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risida yillik buxgalteriya hisobotlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans.

2. Daromadlar.

3. Xarajatlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning byudjet tasnifi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi.

5. Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlari rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot.

6. Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotning Daromadlar qismida byudjet tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromadlar summolari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi.

### Daromadlar haqida hisobot

Daromad nomi	Bo'lim	Paragraf	Daromad turi	Reja	Bajarilishi
<b>Jami</b>					

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Xarajatlar qismida byudjet tasnifi xarajatlar bo'yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summolari aks ettiriladi. Shuningdek, bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summolari aks ettiriladi.

## Xarajatlar haqida hisobot

Xarajat nomi	Bo'lim	Kichik bo'lim	Bob	Aniqlangan reja	Moliyalash tirish	Bajarilishi		qabul qilingan yuridik majburiyat	qabul qilingan moliyaviy majburiyat
						ka a	haqi y		
Jami									

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning byudjet tasnifi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi qismida xarajatlarning turlari bo'yicha, aniqlangan, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan xarajatlar kassa xarajati, haqiqiy xarajatlar, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

### 5.4. Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobotlarni, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzish

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet tasnifiga muvofiq muayyan davr uchun Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi natijalaridan iborat bo'ladi.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot quyidagi hisobot shakllarini o'z ichiga oladi:

- Davlat byudjeti ijrosining balansini;
- Davlat byudjeti daromadlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni;
- Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni;
- byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnomani;

➤ Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha tarmoq, shtatlar va kontingentga doir rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobotni.

Tumanlar va shaharlar bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari tegishli tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlariga tumanlar va shaharlar byudjetlarining kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari hisobot davri uchun tumanlar va shaharlar byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha:

- yuqori turuvchi moliya organlariga — ular belgilagan muddatlarda;
- tegishli hokimliklarga — tumanlar va shaharlar byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot yuqori turuvchi moliya organlariga taqdim etilganidan so'ng uch ish kuni ichida taqdim etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha g'aznachilik boshqarmalari Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etadi.

G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli byudjetlarning kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni moliya organlariga taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari hisobot davri uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — u belgilagan muddatlarda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimliklarga — Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilganidan so'ng uch ish kuni ichida taqdim etadi.

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotni tuzadi.

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

– Davlat byudjeti ijrosining borishi to‘g‘risidagi choraklik hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda;

Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha taqdim etadi.

### **5.5. Moliya organlarida byudjet tashkilotlariga tegishli moliyaviy hisobotlarni umumlashtirish**

Amaldagi tartibga muvofiq moliya organlari byudjet tashkilotlariga tegishli moliyaviy hisobotlarni umumlashtiradi

Moliya organlari choraklik hisobotlar tarkibida yuqoridagilardan tashqari tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo‘yicha quyidagi yig‘ma hisobotlarni ham taqdim etadi:

Balans, xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida ma‘lumot, byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida hisobot, tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risida hisobot, ta‘lim muassasalarini o‘qitishni to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lari harakati to‘g‘risida hisobot, boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar harakati to‘g‘risida hisobot, joriy yilning moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot, nomoliyaviy aktivlarni harakati to‘g‘risida ma‘lumot, chet el valyutasidagi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot.

Moliya organlari yillik hisobotlar tarkibida yuqoridagilardan tashqari tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo‘yicha quyidagi yig‘ma hisobotlarni ham taqdim etadi:

1. Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida ma‘lumotnoma.

2. Byudjet tashkilotlari tomonidan tejalgan va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan byudjet mablag'lari to'g'risida ma'lumot.

3. Byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

4. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

5. Ta'lim muassasalarini o'qitishni to'lov-kontrakt shakli mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

6. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risida hisobot.

7. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot.

8. Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida ma'lumot.

9. Byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari va material qiymatliklar kamomadi va yo'qotishlar bo'yicha hisobot.

10. Qo'shimcha davrda amalga oshirilgan xarajatlar bo'yicha hisobot.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Moliya organlarida Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari haqida gapirib bering.*

2. *Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini tuzilishi tartibini aytib bering.*

3. *Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi haqida qanday tushunchalarga egasiz?*

4. *Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobotlarni, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzish tartibi haqida gapirib bering.*

5. *Byudjet ijrosi natijalarini shakllantirish ketma-ketligini tushuntirib bering?*

6. *Byudjet ijrosi natijalarini buxgalteriya yozuvlarida aks ettirishni tushuntirib bering?*

7. *Moliya organlarida shakllantiriladigan buxgalteriya hisobotlari tarkibini aytib bering?*

8. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans shaklini tushuntirib bering?

9. Moliya organlari choraklik hisobotlar tarkibida tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha qanaqa yig'ma hisobotlarni qabul qiladilar?

10. Moliya organlarida byudjet tashkilotlariga tegishli moliyaviy hisobotlarni umumlashtirish tartibini tushuntirib bering.

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Moliya organlari tomonidan tuziladigan va taqdim etiladigan yig'ma hisobot keltirilgan javobni ko'rsating?**

A) Balans, daromadlar haqida hisobot.

B) Byudjet tashkilotlari tomonidan tejalgan va rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan byudjet mablag'lari to'g'risida ma'lumot.

C) Xarajatlar bo'yicha hisobot.

D) To'g'ri javob keltirilmagan.

**2. Moliya organlari tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida ma'lumotnoma qaysi muddatlarda qabul qilinadi?**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha.

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha.

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda.

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**3. Moliya organlari tomonidan Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari harakati to'g'risida hisobot qaysi muddatlarda qabul qilinadi?**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha.

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha.

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda.

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**4. Moliya organlari tomonidan Ta'lim muassasalarini o'qitishni to'lov-kontrakt shakli mablag'lari harakati to'g'risida hisobot qaysi muddatlarda qabul qilinadi?**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha.

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha.

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda.

D) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**5. Moliya organlari tomonidan Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida ma'lumot qaysi muddatlarda qabul qilinadi?**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha.

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha.

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda.

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**6. Moliya organlari tomonidan Byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari va material qiymatliklar kamomadi va yo'qotishlar bo'yicha hisobot qaysi muddatlarda qabul qilinadi?**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha.

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha.

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda.

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**7. Moliya organlari tomonidan qo'shimcha davrda amalga oshirilgan xarajatlar bo'yicha hisobot qaysi muddatlarda qabul qilinadi?**

A) Har chorakda va yillik keyingi oyning 15-sanasigacha.

B) Har chorakda keyingi oyning 10-sanasigacha.

C) Yillik balans bilan belgilangan muddatda.

D) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi belgilagan kunlarda.

**8. Moliya organlarida yig'ma hisobotlar tarkibini ko'rsating?**

A) Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar.

B) Moliya organlarida tuziladigan hisobotlar.

C) Byudjet tashkilotlari hisobotlari.

D) Hammasi to'g'ri.

**9. Moliya organlarida yig'ma hisobotlarni tuzish qaysi me'yoriy hujjatlarga asosan tartibga solinadi?**

A) "Davlat byudjeti ijrosi buxgalteriya hisobi va hisobotlari yuritish tizimini muvofiqlashtirish choralari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 23-iyuldagi 99-sonli buyrug'i.

B) O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyruqlari va uslubiy ko'rsatmalari bo'yicha xatlariga asosan.

C) “Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosiga oid hisobot shakllarini muvofiqlashtirish choralari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 31-dekabrda 121-sonli buyrug‘i;

D) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martda 49-sonli buyrug‘i.

**10. Moliya organlarida yig‘ma hisobotlarni tuzish tartibini qaysi organ belgilaydi?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi.
- B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
- C) Qonunchilikda belgilangan tartibda.
- D) To‘g‘ri javob aks ettirilmagan.

## **6-MAVZU: DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BYUDJETI IJROSIGA OID HISOBOTLAR**

### **REJA:**

6.1. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.

6.2. Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning tashkiliy jihatlari.

6.3. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.

6.4. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti xarajatlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.

6.5. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.

### **6.1. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari**

Byudjet kodeksiga muvofiq Davlat maqsadli jamg'armalari quyidagilardir:

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;

✓ Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi;

✓ O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari,

akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi;

✓ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi.

Yuqorida keltirilgan maqsadli jamg'armalar byudjetlari ijrosi bo'yicha hisob va hisobotlar yuritiladi. Davlat jamg'armalari byudjetlari kassa ijrosi hisobi g'aznachilik bo'linmalari tomonidan yuritiladi.

Mazkur yo'riqnomaga ko'ra, "**Byudjet hisobi hujjatlari**" - Byudjet hisobi hujjatlari davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi bo'yicha ma'lumotlarini shakllantirish va asoslash uchun xizmat qilishi belgilangan.

Byudjet hisobini yuritishda o'z xususiyatidan kelib chiqib quyidagi hujjatlar asos bo'ladi:

a) me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi jarayonida g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etiladigan birlamchi hujjatlar (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha so'rovnoma, hisobvara-q-faktura, to'lov topshiriqnomasi, g'azna memorial orderi va h.k.);

b) o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha ma'lumotnoma-bildirishnomalar;

v) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalariga hisoblangan daromadlar bo'yicha vakolatli organlarning ma'lumotlari;

g) vakolatli organlarning daromadlarni qaytarilishi yoki ularni bir turdan boshqa turga o'tkazilishi bo'yicha taqdim qilgan xulosalari;

d) tayinlash sertifikatini;

e) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi bo'yicha hisobotlari;

j) qonunchilikka muvofiq boshqa hujjatlar.

**Byudjet hisobi registrlari** - Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalar g'azna ijrosi byudjet hisobi quyidagi (elektron va qog'oz) shakldagi hisobga olish registrlarida yuritiladi:

a) bosh kitob (mazkur yo'riqnomaga 1-ilova);

b) daromadlar hisoblanishi va tushumi bo'yicha ma'lumotlar kitobi (mazkur yo'riqnomaga 2-ilova);

v) kassa va haqiqiy xarajatlarni hisobga olish kitobi (294-shakl);

g) boshqa byudjetlar bilan hisob-kitoblar kitobi (mazkur yo'riqnomaga 3-ilova).

d) byudjet ssudalari bo'yicha ma'lumotlar kitobi (mazkur yo'riqnomaga 4-ilova);

e) g'azna ijrosi bo'yicha kunlik memorial order (mazkur yo'riqnomaga 5-ilova);

j) yagona g'azna hisobvarag'iga daromadlar tushumi bo'yicha ma'lumotnoma (mazkur yo'riqnomaga 6-ilova).

1. Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalar g'azna ijrosi bo'yicha byudjet hisobi registrlari ularning har biri bo'yicha alohida yuritiladi.

**Byudjet hisobi hujjatlari va registrlarini saqlash** - har bir hisobot davri oxirida barcha byudjet hisobi hujjatlari va registrlari tegishli hujjatlari bilan birga tikib borilishi kerak. Byudjet hisobi hujjatlari, registrlari va hisobotlarini saqlash muddatlari qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

Balans hisobvarag'i		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvara q
X	X	X	X X X X X X X

**Yagona hisobvaraqlar rejasining tavsifi va tarkibi** - Yagona hisobvaraqlar rejasi byudjet hisobini yuritishga mo'ljallangan bo'lib, (mazkur yo'riqnomaga 7 - ilova) 10 ta raqamli belgidan tashkil topgan va quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvarag'i yagona hisobvaraqlar rejasining asosiy qismi bo'lib, u byudjet hisobini yuritishda pul mablag'larini shakllanishi, xususiyatlari, turlari, va natijalari bo'yicha ma'lumotlarni byudjet ijrosi balansida aks ettiradi. U ikki belgidan tashkil topgan bo'lib, birinchi belgi pul mablag'lari harakatini byudjet hisobida aks etish xususiyatini anglatadi, ikkinchi belgi ma'lumotlarni byudjet turlari yoki manbalari bo'yicha guruhlariga ajratadi.

Valyuta turi kodida byudjet hisobi ma'lumotlarini milliy yoki xorijiy valyuta mablag'lari hisobidan shakllanganligi aks ettiriladi. Bunda milliy valyutadagi pul mablag'larni 1 raqami bilan, xorijiy valyutadagi pul mablag'larni milliy valyutadagi ekvivalent qiymatini 2 raqami bilan aks ettiriladi. Agar pul mablag'lari bo'yicha ma'lumotlar bir nechta xorijiy valyutada bo'lsa, ularning aynan qaysi valyutada ekanligi analitik ma'lumotlarda aks ettiriladi.

Xorijiy valyutaning so'mga nisbatan ekvivalent qiymati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan qiymati bo'yicha aniqlashtirib turiladi.

Ikkilamchi hisobvaraqlar byudjet tasnifining tegishli kodlari va balans hisobvarag'ini qismlarga ajratuvchi boshqa tegishli kodlar bilan ifodalangan. Ular yetti raqamli belgidan iborat bo'lib, bu belgilar tegishli ravishda byudjet tasnifining mablag'lar manbai, xarajatlarning iqtisodiy tasnifi, daromadlar tasnifi hamda manbalarga aniqlik kirituvchi boshqa kodlardan iborat.

Byudjet hisobi hisobvaraqlar o'tkazmalari mazkur Yo'riqnomaning 8-ilovasida keltirilgan (8a-namunaviy, 8b-umumiy).

Byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

a) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

b) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari pul mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

v) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari pul mablag'lari bo'yicha hisoblangan xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

g) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarining kassa daromadlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

d) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarga hisoblangan daromadlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

e) aktivlar, majburiyatlar, pul mablag'larining vaqtinchalik joylashtirilishi, byudjet ssudalari, o'zaro hisob-kitoblar va byudjetlar o'rtasidagi olingan va berilgan mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

j) uzoq muddatli aktivlarning eskirishini hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

z) asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi hamda tannarxini hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

i) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi yakuniy moliyaviy natijalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar.

## **6.2. Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning tashkiliy jihatleri**

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning tashkiliy jihatleri byudjet tizimi

byudjetlari ijrosining byudjet hisobi va hobotini tashkil etish bilan bog'liq normativ-hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda mahalliy byudjet hisobini davlat sektorida moliyaviy hisob va hisobotlarning xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-sonli buyrug'i chiqarilgan. Unga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlanishi;

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013-yil 2-dekabrda 157-son buyrug'ining 1-bandi ikkinchi va uchinchi xatboshlari o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi belgilab qo'yilgan.

Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" hamda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013-yil 2-dekabrda 157-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnomalariga asosan tegishli hujjatlar, hisob registrlariga binoan g'aznachilik bo'linmalari davlat jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar shakllantiriladi.

Mazkur Yo'riqnomalar O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga

muvofiq, Xalqaro valyuta jamg'armasining Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanmasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, milliy byudjet hisobini davlat sektorida moliyaviy hisob va hisobotlarning xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini moliya organlari va g'aznachilik bo'linmalarida qo'llash tartibini belgilaydi.

2. Byudjet hisobi tegishli g'aznachilik bo'linmalari tomonidan quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar hamda davlat maqsadli va boshqa jamg'armalarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha ijrosi – Moliya vazirligi G'aznachiligining buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetidan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar hamda davlat maqsadli va boshqa jamg'armalarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha ijrosi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari buxgalteriya hisobi va hisoboti sektori (guruhi);

Tuman (shahar) byudjetidan mablag' oluvchi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar hamda davlat maqsadli va boshqa jamg'armalarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari ijrosi bo'yicha – tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari moliyaviy resurslarni boshqarish, buxgalteriya hisobi va hisoboti mutaxasislari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Byudjet hisobi bo'yicha ma'lumotlar elektron ko'rinishda doimiy arxivlashtiriladi va tashqi axborot saqlash qurilmalarida qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda saqlanadi.

**Buxgalteriya hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi:** Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi jarayonida g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilinadigan birlamchi hujjatlar hisoblanadi. Shunga muvofiq, Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi jarayonida g'aznachilik bo'linmalariga belgilangan tartibda taqdim qilinadigan birlamchi hujjatlar asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishli provodkalar beriladi.

### **1. O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha bildirishnoma-ma'lumotnoma**

O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha bildirishnoma-ma'lumotnoma va unga ilova qilinadigan hisob-kitoblar hududiy moliya organlari byudjet bo'limlari tomonidan tegishli tarmoq bo'linmalari taqdim qilgan hujjatlar asosida tuziladi. O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha bildirishnoma-ma'lumotnoma tuzish va taqdim etish me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**2. Hisoblangan daromadlar bo'yicha ma'lumotlar.** Hisoblangan daromadlar bo'yicha ma'lumotlar - davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlar qismi ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi.

Hisoblangan daromadlar bo'yicha ma'lumotlar daromadlarni undiruvchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlariga taqdim qilinadi. Ushbu hujjatlarda har bir daromad turi bo'yicha hisoblangan daromadlar ma'lumotlari keltiriladi.

Hisoblangan daromadlar bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish va taqdim etish me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**3. Tayinlash sertifikat.** Tayinlash sertifikatini byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'larini oluvchilarning byudjet mablag'lari bo'yicha talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'iga byudjet hisobidan kapital

qo'yilmalar va boshqa tadbirlarni moliyalashtirishga mablag'larni o'tkazish uchun to'lov hujjatini rasmiylashtirilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tayinlash sertifikatini moliya organining tarmoq bo'limi yoki byudjet bo'limi xodimi tomonidan, byudjet tashkilotlari yoki byudjet mablag'larini oluvchilarning byudjet mablag'lari bo'yicha talab qilib olinadigan depozit hisobvaraqlari bo'yicha, byudjet daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi va byudjetni ijro etish jarayonida unga kiritilgan o'zgartirishlar asosida, byudjet tashkilotlarining tarmog'i, shtati va kontingentining holati to'g'risidagi davriy hisobot tahlili va boshqa o'zgarishlarni hisobga olgan holda ikki nusxada tuziladi va tarmoq bo'limining vakolatli xodimi va byudjet bo'limining boshlig'i tomonidan imzolanadi. Birinchi nusxa ijro etish uchun moliya organining buxgalteriyasiga beriladi, ikkinchi nusxasi byudjet bo'limida qoldiriladi.

Byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun korxonalar va xo'jalik birlashmalari hisobiga mablag'larni o'tkazishda tayinlash sertifikatida bank muassasalarida nobyudjet tashkilotlar uchun ajratilgan byudjet mablag'lari bo'yicha hisobvaraqlarning nomlari va raqamlari keltiriladi. Ilovada o'tkazilayotgan summa byudjet xarajatlari tasnifining qaysi bo'linmasiga o'tkazilishi kerakligi ko'rsatiladi.

### **6.3. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi**

Har kuni g'aznachilikka xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan taqdim etilgan ko'chirmalarga asosan tegishli jamg'arma byudjeti mablag'lari bo'yicha alohida-alohida Daromadlar haqida ma'lumotnoma rasmiylashtirilib tegishli Memorial orderga o'tkaziladi va hujjatlar ilova qilinib tikiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari sintetik hisobi "Kassa daromadlari"ni hisobga oluvchi 4-sonli hisobvaraqda yuritiladi. Analitik hisobi Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti mablag'lari daromadlari va tushumlari hisob-kitobida yuritiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari kassa ijrosi hisobi "Kassa daromadlari"ni hisobga oluvchi 4-sonli hisobvaraqa yuritilib, unda davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadiga o'tkazilgan mablag'lar aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlar passiv hisobvaraqa hisoblandi.

Kassa daromadlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvarag'i		Valyuta turi	Daromadlar tasnifi kodlari
4	X	X	XXXXXXX

Balans hisobvarag'i yagona g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan kassa daromadlarini tegishli mablag'lar manbalari bo'yicha balansda aks ettiradi. Valyuta turi kodida kassa daromadlari qaysi valyutada (milliy yoki xorijiy) kelib tushganligini aks ettiradi.

Ikkilamchi hisobvaraqlarda daromadlar tasnifi kodlari qo'llaniladi.

**Kassa daromadlari hisobvaraqlari quyidagilarga bo'linadi:**

40 – davlat byudjeti kassa daromadlari (daromad tasnifining davlat byudjetiga kiritiladigan tegishli kodlari orqali tarkibiy qismlarga ajratiladi);

41 – byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari kassa daromadlari (tegishli tasnif kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajraladi (4002, 4004 va 4028 mablag'lar manbai bilan boshlanuvchi shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan tashqari));

42 – davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarning kassa daromadlari (tegishli daromadlar tasnifi kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajraladi);

43 – Davlat bojxona qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarining g'aznachilikdagi depozit shaxsiy hisobvaraqlari (tegishli tasnif kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajraladi);

44 – byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy nafaqalarni to‘lash uchun o‘tkazib bergan pul mablag‘lari (tegishli tasnif kodlari bo‘yicha tarkibiy qismlarga ajraladi);

45 – byudjet tashkilotlarini o‘tgan yillar debitorlik qarzlarning qaytarilishi va boshqa shu turdagi tegishli byudjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari (tegishli tasnif kodlari bo‘yicha tarkibiy qismlarga ajraladi);

46 – aniqlanmagan tushumlar bo‘yicha kassa daromadlari. Mazkur hisobvaraqa Yagona g‘azna hisobraqamga kirim qilingan, ammo tegishli byudjetlarga o‘tkazish uchun yetarli asos (ma‘lumotlar) mavjud bo‘lmagan to‘lov hujjatlar bilan kirim qilingan mablag‘lar ushbu hisobvaraqa vaqtinchalik hisobga olinadi. Aniqlanmagan tushumlar elektron to‘lov markazida va tegishli byudjet darajalarida hisobga olinishi mumkin. Ushbu passiv hisobvaraqa shakllangan mablag‘lar bo‘yicha aktiv hisobvaraqlardagi qoldiqlardan xarajatlar (aniqlanmagan tushumlarni qaytarishdan tashqari) amalga oshirilmaydi.

Hisoblangan daromadlar “Hisoblangan daromadlar”ni hisobga oluvchi 5-sonli hisobvaraqa yuritilib, unda davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalariga vakolatli organlar tomonidan hisoblangan daromadlar aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlar passiv hisobvaraqa hisoblanadi.

“Hisoblangan daromadlar” hisobvaraqlari quyidagi ko‘rinishga ega:

Balans hisobvaraqa		Valyuta turi	Daromadlar tasnifi kodlari
5	X	X	X X X X X X X

Balans hisobvarag‘i hisoblangan daromadlarning tegishli mablag‘lar manbalari bo‘yicha balansda aks ettiradi.

Valyuta turi kodida hisoblangan daromadlar qaysi valyutada (milliy yoki xorijiy) hisoblanganligi aks ettiriladi.

Ikkilamchi hisobvaraqlarda daromadlar tasnifi kodlari qo'llaniladi.

Hisoblangan daromadlar hisobvaraqlari quyidagilarga bo'linadi:

50 – davlat byudjetiga hisoblangan daromadlar (daromad tasnifining davlat byudjetiga kirim qilinadigan tegishli kodlari orqali tarkibiy qismlarga ajraladi);

51 – byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari jamg'armalariga hisoblangan daromadlar (tegishli tasnif kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajratadi

(4002, 4004 va 4028 mablag'lar manbai bilan boshlanuvchi shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan tashqari));

52 – davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalariga hisoblangan daromadlar (tegishli daromadlar tasnifi kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajraladi);

54 – byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun o'tkazib bergan pul mablag'lari (tegishli tasnif kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajraladi);

55 – byudjet tashkilotlarini o'tgan yillar debetorlik qarzlarning qaytarilishi va boshqa shu turdagi tegishli byudjetlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari (tegishli tasnif kodlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajraladi).

“Aktivlar, majburiyatlar, pul mablag'larini vaqtincha joylashtirilishi, byudjet ssudalari, o'zaro hisob-kitoblar va byudjetlar o'rtasida olingan va berilgan mablag'lar”ni hisobga oluvchi 6 - sonli hisobvaraq.

“Aktivlar, majburiyatlar, pul mablag'larini vaqtincha joylashtirilishi, byudjet ssudalari, o'zaro hisob-kitoblar va byudjetlar o'rtasida olingan va berilgan mablag'lar” hisobi 6-sonli hisobvaraqda yuritilib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

a) 60 – naqd pul olish uchun, konvertatsiya va depozitlarga joylashtirilgan mablag'larni, olingan yoki berilgan kredit va qarzlarni, shuningdek, aktsiya va kapitalda ishtirok etish hamda olingan yoki sotilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

b) 61 – daromadlar bo‘yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

v) 62 – xarajatlar bo‘yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

g) 63 – olingan va berilgan byudjet ssudalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

d) 64 – o‘zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

e) 65 – O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag‘larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar;

j) 66 – mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag‘larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar.

60-sonli hisobvaraqlar quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

a) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlarga o‘tkazilgan mablag‘larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Ushbu hisobvaraqlar quyidagi ko‘rinishga ega:

Balans hisobvaraqlari		Valyuta turi	Mablag‘lar manbai
6	0	X	X X X X X X X

Bunda balans hisobvarag‘ida naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlarga o‘tkazilgan mablag‘lar aks ettiriladi. Valyuta turi kodi naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlarga o‘tkazilgan mablag‘larni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi. Mablag‘lar manbaida naqd pul olish uchun tranzit hisobvaraqlarga o‘tkazilgan pul mablag‘larni davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjetlari yoki byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga tegishligini aks ettiradi;

b) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari

jamg'armalari hisobidan konvertatsiya uchun o'tkazib berilgan mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Bunda, 6010000300 hisobvaraqda konvertatsiya uchun milliy valyutada o'tkazib berilgan pul mablag'lari, 6020000300 hisobvaraqda konvertatsiya uchun xorijiy valyutada o'tkazib berilgan pul mablag'lar hisobga olinadi. Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari xorijiy valyutadagi mablag'lari to'liq g'azna ijrosi bilan qamrab olinguniga qadar, hisobot davri oxirida konvertatsiya uchun ochilgan 6010000300-sonli hisobvarag'ida jamlangan mablag'larni kassa xarajatlariga o'tkazish bo'yicha tegishli buxgalteriya provodkalari beriladi;

v) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan ichki va tashqi depozitlarga o'tkazilgan mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Ushbu aktiv hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraq		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraq
6	0	X	X X X X X X X

Bunda, balans hisobvarag'ida ichki yoki tashqi depozitlarga o'tkazilgan mablag'lar aks ettiriladi. Valyuta turi kodi ichki yoki tashqi depozitlarga o'tkazilgan mablag'larni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi. Ikkilamchi hisobvaraqda mablag'larni manbalari hamda ichki yoki tashqi depozitlarga o'tkazilganligini aks ettiriladi;

g) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan olingan va berilgan ichki va tashqi kredit hamda qarzlilar bo'yicha mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Ushbu hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqq		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqq
6	0	X	X X X X X X X

Bunda, balans hisobvaraqq'ida olingan va berilgan ichki va tashqi kredit hamda qarzlarni bo'yicha mablag'lar aks ettiriladi. Valyuta turi kodi olingan va berilgan ichki va tashqi kredit hamda qarzlarni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi. Ikkilamchi hisobvaraqqda kreditlarni olingan yoki berilganligi, shuningdek ularni ichki yoki tashqi manbalar ekanligi aks ettiriladi;

d) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan ichki va tashqi aktsiya va kapitalda ishtirok etishni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Ushbu hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqq		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqq
6	0	X	X X X X X X X

Bunda, balans hisobvaraqq'ida ichki yoki tashqi aktsiya va kapitalda ishtirok etish bo'yicha mablag'lar aks ettiriladi. Valyuta turi kodi ichki yoki tashqi aktsiya va kapitalda ishtirok etishni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi. Ikkilamchi hisobvaraqqda aktsiya va kapitalda ishtirok etishni ichki yoki tashqi shaklda ekanligi aks ettiriladi;

e) davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan olingan yoki sotilgan qimmatli qog'ozlar (aktsiyadan tashqari)ni hisobga oluvchi hisobvaraqlar. Ushbu hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqq		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqq
6	0	X	X X X X X X X

Bunda, balans hisobvarag'ida chiqarilgan va olingan qimmatli qog'ozlar (aktsiyadan tashqari) aks ettiriladi. Valyuta turi kodi olingan yoki sotilgan qimmatli qog'ozlar (aktsiyadan tashqari)ni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi. Ikkilamchi hisobvara qimmatli qog'ozlar (aktsiyadan tashqari)ni olingan yoki sotilganligi shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarini ichki yoki tashqi manbalarga tegishli ekanligini o'zida aks ettiradi.

Daromadlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalariga daromadlar tushumi bo'yicha vakolatli organlarning (daromadlar tushumini ta'minlashi kerak bo'lgan vazirlik, qo'mita, idora va boshqalar) daromadlar tushumi bo'yicha barcha turdagi majburiyatlarini aks ettiradi. Bunda hisoblangan majburiyat aktiv, bajarilgan majburiyat esa passiv hisobvaraqlar hisoblanib, quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvara q		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvara q
6	1	X	X X X X X X X

Balans hisobvarag'ida daromadlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlar aks ettiriladi. Valyuta turi kodi daromadlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi.

Ikkilamchi hisobvara qda berilgan mablag'lar bo'yicha hisoblangan foizlarni ichki va tashqa manbalardan ekanligi hamda hisobga olingan daromadlar majburiyati va ularni bajarilishi aks ettiriladi.

Xarajatlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalaridan hisoblangan va bajarilgan barcha turdagi xarajatlar majburiyatlari aks ettiriladi. Bunda

hisoblangan majburiyat passiv, bajarilgan majburiyat aktiv hisobvaraqlar bo'lib, ular quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqlari		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqlari
6	2	X	X X X X X X X

Balans hisobvarag'i xarajatlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni aks ettiradi.

Valyuta turi kodi xarajatlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni milliy yoki xorijiy valyutada ekanligini aks ettiradi.

Ikkilamchi hisobvaraqlarda xarajatlar bo'yicha hisoblangan va bajarilgan majburiyatlarni turi va manbalari aks ettiriladi.

Olingan va berilgan byudjet ssudalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlari mablag'lari hisobidan olingan va berilgan byudjet ssudalarini o'zida aks ettiradi. U quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqlari		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqlari
6	3	milliy	X X X X X X X

Balans hisobvarag'ida olingan va berilgan byudjet ssudalari aks ettiriladi. Valyuta turi kodi olingan va berilgan byudjet ssudalarini milliy valyutada ekanligini aks ettiradi.

Ikkilamchi hisobvaraqlarda olingan va berilgan byudjet ssudalarini byudjet darajalari hamda ssuda oluvchilar (tegishli byudjetlar, maqsadli jamg'armalar yoki rezident yuridik shaxslar) aks ettiriladi.

O'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi

byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlarini aks ettiradi. U quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqa		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqa
6	4	milliy	X X X X X X

6411000100 hisobvaraqa O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblar, 6411000200 hisobvaraqa Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjeti bilan tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar shuningdek, 6411000300 hisobvaraqa davlat byudjeti bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zaro-hisob kitoblar aks ettiriladi.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar:

- a) qonun hujjatlari qabul qilinganligi;
- b) Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlarining prognozi aniqlashtirilganligi;
- v) byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning bo'ysunuvi o'zgarganda xarajatlar bir byudjetdan boshqa byudjetga o'tkazilganligi;
- g) kapital qo'yilmalar limitlari byudjetlar darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganligi munosabati bilan yuzaga keladi.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarga kiritilishi lozim bo'lgan summa yuqori turuvchi moliya organi tomonidan aniqlanadi.

Byudjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarga summalarni o'tkazish uchun asos bo'lib, tegishli hududiy moliya organlari tomonidan tuzilgan bildirishnoma - ma'lumotnomalar hisoblanadi.

Byudjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning mavjud summalariga yuqori moliya organi belgilangan shakldagi xabarnomani rasmiylashtiradi va tegishli quyi moliya organiga yuboradi. Ushbu hisobvaraqlar byudjet darajalariga muvofiq tarzda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi

respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjeti o'rtasidagi shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjeti bilan tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oladi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetiga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan berilgan yoki ulardan olinadigan mablag'lar hisobga olinadi. U quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqlari		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqlar (daromadlar va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi)
6	5		
6	5	milliy	X X X X X X X

Balans hisobvarag'ida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'lar aks ettiriladi. Valyuta turi kodida ushbu o'zaro hisob-kitoblar milliy valyutada aks ettiriladi.

Ikkilamchi hisobvaraqlarda tegishli ravishda daromadlar tasnifi yoki xarajatlarning iqtisodiy tasnifi kodlari aks ettirilib, daromadlar tasnifi O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetiga daromadlarni berilishi va olinishida ishtirok etsa, xarajatlar iqtisodiy tasnifi ushbu byudjetlar o'rtasida xarajatlarning berilishi va olinishida ishtirok etadi.

Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag'larni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetidan O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga hamda tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlariga berilishi yoki ulardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobi yuritiladi. U quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvaraqlari		Valyuta turi	Ikkilamchi hisobvaraqlar ( daromadlar va xarajatlarning iqtisodiy tasnifi )
6	6	milliy	X X X X X X X

Balans hisobvaraqlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetidan O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga va tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlariga berilishi yoki ulardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar aks ettiriladi.

Valyuta turi kodida ushbu o'zaro hisob-kitoblar milliy valyutada aks ettiriladi.

Ikkilamchi hisobvaraqlar tegishli ravishda daromadlar tasnifi yoki xarajatlarning iqtisodiy tasnifi kodlari aks ettirilib, daromadlar tasnifi Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetidan O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga va tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlariga berilishi yoki ulardan olinishi lozim bo'lgan daromadlarning turlarini ifodalaydi, xarajatlarning iqtisodiy tasnifi esa xarajatlar rejasiga kiritilgan o'zgarishlarni har bir moddalar kesimida aks ettiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan buxgalteriya yozuvlari memorial ordyerlarda aks ettiriladi va "Bosh jurnal" daftoriga o'tkaziladi. "Bosh jurnal" daftoridan daromadlar bo'yicha qoldiqlar buxgalteriya balansi hisobot shakliga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi"ga asosan rasmiylashtiriladi.

#### 6.4. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti xarajatlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi

G'aznachilikka xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan taqdim etilgan ko'chirmalarga asosan Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti bo'yicha xarajatlar memorial orderga o'tkaziladi va hujjatlar ilova qilinib tikiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti xarajatlari bo'yicha sintetik hisob "Kassa xarajatlari"ni hisobga oluvchi 2-sonli hisobvaraqa yuritiladi.

2 – sonli "Kassa xarajatlari" hisobvaraqa moliya yilida jamg'armalar tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari hisobga olinadi. Bu schyotning debet tomonida Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar summasi kredit tomonida xarajatlarni hisobdan chiqarilishi yoki tiklanishi aks ettiriladi.

Kassa xarajatlarini hisobga oluvchi 2-sonli hisobvaraqa davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlarni o'zida aks ettirib, aktiv hisobvaraqa hisoblanadi. Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvarag'i		Valyuta turi	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi kodlari
2	X	X	X X X X X X X

Kassa xarajatlari balans hisobvaraqlari quyidagilarga bo'linadi:

20 – davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari;

21 – byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari (4002, 4004 va

4028 mablag'lar manbai bilan boshlanuvchi shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan tashqari);

22 – davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari pul mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari;

23 – davlat bojxona qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarini g'aznachilikda ochilgan depozit shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari (4028 mablag'lar manbai bilan boshlangan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari) hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari;

24 – byudjet tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun o'tkazib bergan pul mablag'lari (4002 mablag'lar manbai bilan boshlangan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari) bo'yicha kassa xarajatlari;

25 – byudjet tashkilotlarining o'tgan yillar debitorlik qarzlarini qaytarilishi va boshqa shu turdagi tegishli byudjetlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari (4004 mablag'lar manbai bilan boshlangan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari) hisobidan amalga oshirilgan kassa xarajatlari.

Valyuta turi kodi davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari pul mablag'lari hisobidan kassa xarajatlarni milliy yoki xorijiy valyutada amalga oshirilganligini aks ettiradi.

Ikkilamchi hisobvaraqa xarajatlarning iqtisodiy tasnif kodlaridan iborat bo'lib, kassa xarajatlarini xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet hisobi ma'lumotlarida aks ettiradi. Bunda iqtisodiy tasnif kodlari tegishli balans hisobvaraqlari bilan mos ravishda shakllantiriladi.

**“Hisoblangan xarajatlar”ni hisobga oluvchi 3-sonli hisobvaraqa.** Hisoblangan xarajatlar 3-sonli hisobvaraqa yuritilib, unda byudjet tashkilotlari (byudjet mablag'lari oluvchilar) tomonidan davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan

olingan moliyaviy majburiyatlar summolari aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlar passiv hisobvaraqlar hisoblanadi.

Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari pul mablag'lari bo'yicha hisoblangan xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar quyidagi ko'rinishga ega:

Balans hisobvarag'i		Valyuta turi	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi kodlari
3	X	X	X X X X X X X

Hisoblangan xarajatlar bo'yicha hisobvaraqlar quyidagilarga bo'linadi:

30 – davlat byudjeti mablag'lari hisobidan hisoblangan xarajatlar;

31 – byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan hisoblangan xarajatlar;

32 – davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari mablag'lari hisobidan hisoblangan xarajatlar;

34 – byudjet tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun o'tkazib bergan pul mablag'lari (4002 mablag'lar manbai bilan boshlangan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari) bo'yicha hisoblangan xarajatlar;

35 – byudjet tashkilotlarini o'tgan yillar debitorlik qarzlarning qaytarilishi va boshqa shu turdagi tegishli byudjetlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari (4004 mablag'lar manbai bilan boshlangan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari) bo'yicha hisoblangan xarajatlar.

Valyuta turi kodida davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan hisoblangan xarajatlar milliy yoki xorijiy valyutada aks ettiriladi.

Ikkilamchi hisobvaraqlar xarajatlarning iqtisodiy tasnif kodlaridan iborat bo'lib, hisoblangan xarajatlarni xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet hisobi ma'lumotlarida aks ettiradi. Bunda iqtisodiy tasnif kodlari tegishli balans hisobvaraqlar bilan mos ravishda shakllantiriladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan buxgalteriya yozuvlari memorial ordyerlarda aks ettiriladi va "Bosh jurnal" daftariga o'tkaziladi. "Bosh jurnal" daftaridan xarajatlar bo'yicha qoldiqlar buxgalteriya balansi hisobot shakliga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martdagi 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma"sga asosan tartibga solinadi.

#### **6.5. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili**

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar har oyda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tahliliy maqsadlar uchun davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning shakllari, taqdim etish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga:

✓ davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda;

✓ davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha taqdim etadi.

**1. Bosh kitob.** Ushbu kitobda davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlarining yagona hisobvaraqlari bo'yicha xronologik, tartiblashtirilgan va jamlangan yozuvlar birlashtiriladi.

Yangi yilda ochilgan bosh kitobning birinchi satrida o'tgan yil bo'yicha moliya organi tomonidan qabul qilingan yakuniy balansga muvofiq hisobvaraqlardagi qoldiqlar summalari yoziladi. Balans aktiv summalari kitobning tegishli hisobvaraqlari debetiga, passiv summalari esa kreditiga yoziladi.

Operatsiyalar bo'yicha yozuvlar har bir bank kuni uchun memorial order va unga ilova qilingan hujjatlar asosida har kuni yozib boriladi. Memorial orderning umumiy summasi oldin "Memorial order bo'yicha summa" ustuniga yoziladi, so'ngra bitta yoki bir nechta hisobvaraqlarning alohida debet va alohida kredit satrlariga yozib qo'yiladi.

Bosh kitobga operatsiyalar yozib qo'yilganidan keyin analitik hisobning tegishli registrilariga yozuvlar yoziladi.

Bosh kitobda oy bo'yicha aylanmalarining umumiy yig'indisi hisoblanadi va navbatdagi oyning boshiga barcha hisobvaraqlarning debeti va krediti bo'yicha qoldiqlar hisoblab chiqariladi. Bunda, oy bo'yicha aylanmalar summasi hamda navbatdagi oyning boshiga barcha hisobvaraqlarning debetidagi qoldiq summalar aylanmalar summasiga yoki barcha hisobvaraqlardagi kredit bo'yicha mavjud qoldiqlarga mos ravishda teng bo'lishi kerak. Barcha hisobvaraqlarning debeti va krediti bo'yicha oylik aylanma summasi "Memorial order bo'yicha summa" ustunidagi yig'indiga teng bo'lishi shart.

Bosh kitob har bir byudjet turi va darajasi bo'yicha alohida va barcha bir turdagi byudjetlar uchun jamlangan holda ham shakllantiriladi.

**2. Daromadlar hisoblanishi va tushumi bo'yicha ma'lumotlar kitobi.** Daromadlar hisoblanishi va tushumi bo'yicha ma'lumotlar kitobida davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetlariga daromadlar tasnifi bo'yicha kelib tushishi hisoblangan va kelib tushgan daromadlar hamda noaniq (aniq bo'lmagan) tushumlarning summolari hisobga olinadi. Ushbu kitob har bir byudjet turi va uning darajasi uchun alohida va bir turdagi byudjetlar uchun jamlangan holda shakllantiriladi.

Kitobda vertikal ravishda satrning tartib raqami, ish kunlarida kelib tushgan jami daromadlar va aniqlanmagan tushumlarni oy bo'yicha hamda yil boshidan tanlangan kungacha jami kelib tushgan mablag'lar daromadlar tasnifi bo'yicha aks etadi. Bundan tashqari ushbu qatorlarda daromatlarni tanlangan davr uchun (odatda oylik) hisoblangan qismi har bir daromadlar tasnifi bo'yicha jamlangan holda aks ettiriladi.

Kitobda gorizontaal ravishda ish kunlari hamda ularning har birida kelib tushgan daromadlar va aniqlanmagan tushumlarni oy bo'yicha hamda yil boshidan tanlangan kungacha jami kelib tushgan mablag'larning daromadlar tasnifi bo'yicha jami aks etadi. Ushbu kitobda tahliliy hisob har bir daromad turi bo'yicha alohida yuritiladi.

Memorial order va kelib tushgan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnomalarga asosan Kredit ustuniga, har bir turdagi daromad uchun belgilangan satrlarga hisoblangan va kelib tushgan daromadlar summolari yozib qo'yiladi.

Noto'g'ri yoki ortiqcha tushgan daromatlarni qaytarilishi ushbu kitobda hisobdan chiqarilgan xolda debetida aks etadi, lekin ular bo'yicha ma'lumotlar alohida registrlarda yoziladi. Aniqlanmagan tushumlar bo'yicha summalar ushbu kitobning 46-hisobvarag'ida yozilib boradi.

**3. Xarajatlar hisoblanishi va kassa xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar kitobi.** Xarajatlar hisoblanishi va kassa xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar kitobida davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan hisoblangan va amalga oshirilgan xarajatlar xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha (20, 30-sonli

hisobvaraqlar) hisobga olinadi. Ushbu kitob har bir byudjet turi va uning darajasi uchun alohida va bir turdagi byudjetlar uchun jamlangan holda shakllantiriladi.

Kitobda vertikal ravishda satrning tartib raqami, ish kunlarida amalga oshirilgan kassa xarajati, xarajatlarni oy bo'yicha hamda yil boshidan tanlangan kungacha jami kassa xarajati xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha aks etadi. Ushbu qatorlarda xarajatlarni tanlangan davr uchun (odatda oylik) hisoblangan qismi har bir xarajat moddasi bo'yicha jamlangan holda aks ettiriladi.

Kitobda gorizontal ravishda ish kunlari hamda ularning har birida amalga oshirilgan kassa xarajatlari, oy bo'yicha hamda yil boshidan tanlangan kungacha jami hisoblangan va kassa xarajatlari xarajatlar iqtisodiy tasnifi bo'yicha jami aks etadi. Ushbu kitobda tahliliy hisob har bir xarajat iqtisodiy tasnifi kodlari bo'yicha alohida yuritiladi.

Memorial order va kassa xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot-nomalarga asosan "Debet" ustuniga, har bir turdagi xarajat uchun belgilangan satrlarga hisoblangan va amalga oshirilgan xarajatlar summalari yozib qo'yiladi.

Kassa xarajatlarini tiklanishi ushbu kitobda hisobdan chiqarilgan holda aks etadi va tegishli ustunning kreditiga yoziladi.

**4. Boshqa byudjetlar bilan hisob-kitoblar kitobi.** Boshqa byudjetlar bilan hisob-kitoblar kitobida davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari bo'yicha boshqa byudjetlarga yoki jamg'armalarga berilgan yoki ulardan olingan mablag'lar hisobi yuritiladi.

**5. Byudjet ssudalari bo'yicha ma'lumotlar kitobi.** Byudjet ssudalari bo'yicha ma'lumotlar kitobi qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag'lari hisobi yuritiladi.

**6. G'azna ijrosi bo'yicha kunlik memorial order.** G'azna ijrosi bo'yicha kunlik memorial order davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining g'azna ijrosi bo'yicha kunlik

aylanmasini o'zida aks ettiradi. Unda davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining kunlik barcha operatsiyalari jamlangan holda (debet va kredit bo'yicha) aks etadi. Ushbu hujjat davlat moliyasini boshqarishni axborot tizimida elektron tarzda shakllantiriladi va kunlik hujjatlarga tikib boriladi. Undagi barcha ma'lumotlar va buxgalteriya hujjatlari summalari bir xil bo'lishi lozim. Ushbu hujjat tegishli g'aznachilik bo'linmasi mas'ul xodimi tomonidan imzolanishi lozim.

**7. Yagona g'azna hisobvarag'iga daromadlar tushumi bo'yicha ma'lumotnoma.** Yagona g'azna hisobvarag'iga daromadlar tushumi bo'yicha ma'lumotnoma davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlariga hamda bojxona to'lovlari bo'yicha g'aznachilikdagi depozit shaxsiy hisobvaraqlariga kunlik daromad tushumlari bo'yicha jamlangan ma'lumotlarni daromadlar tasnifi kesimida o'zida aks ettiradi. Ushbu hujjat tegishli g'aznachilik bo'linmasi mas'ul xodimi tomonidan imzolanishi lozim.

### **Nazorat uchun savollar:**

*1. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlarini tushuntirib bering?*

*2. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ga muvofiq Davlat maqsadli jamg'armalari nomlarini sanab bering.*

*3. Yagona hisobvaraqlar rejasining tavsifi va tarkibini izohlab bering.*

*4. Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar deganda nimani tushunasiz?*

*5. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni shakllantirishning normativ-huquqiy asoslarini aytib bering.*

*6. Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning tashkiliy jihatlari deganda nimalarni tushunasiz?*

7. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni sanab bering hamda ularni tuzish va taqdim etish tartibini aytib bering?

8. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti xarajatlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni sanab bering hamda ularni tuzish va taqdim etish tartibini aytib bering?

9. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari haqida gapirib bering hamda ularni tahlili bo'yicha fikrlaringizni bayon eting.

10. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning shakllari, taqdim etish tartibi va muddatlari qaysi vakolatli organ tomonidan belgilanadi?

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Davlat jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar qaysi usulda shakllantiriladi?**

- A) Kassa.
- B) Hisoblash.
- C) Modifikatsiya.
- D) Aralash.

**2. Pul mablag'lari maqsadli jamg'armalar balansining qaysi tomonida aks etadi?**

- A) aktiv.
- B) passiv.
- C) ham aktiv va ham passiv.
- D) Balansdan tashqari schyotlarda aks ettiriladi.

**3. G'azna hisobvaraqlariga kelib tushgan daromadlar to'g'risidagi ma'lumot buxgalteriya hisobi xodimlari tomonidan qancha vaqtda oralig'ida xizmat ko'rsatuvchi bankning g'azna hisobvaraqlaridan ko'chirmalari asosida tayyorlanadi?**

- A) har hafta.
- B) 3 kunda bir.
- C) har kuni.
- D) kuniga ikki marta.

**4. Byudjet daromadlari bo'yicha hisobot shakli ko'rsatkichlari qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrleri bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?**

A) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, 274 – son shakldagi memorial order, daromadlar daftari, daromadlar haqida ma'lumotnoma.

B) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, 274 – son shakldagi memorial order, daromadlar daftari, daromadlar va xarajatlar haqida ma'lumotnoma.

C) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, daromadlar daftari, daromadlar haqida ma'lumotnoma.

D) Xammasi to'g'ri.

**5. Kassa harajatlari deganda nimani tushunasiz**

A) Byudjet hisobraqamidan to'langan harajatlar.

B) Muassasaning kassasidan to'langan harajat.

C) Muassasaning haqiqiy harajati.

D) To'g'ri javob yo'q.

**6. Byudjet xarajatlari bo'yicha hisobot shakli ko'rsatkichlari qaysi buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligi ta'minlanishini ko'rsating?**

A) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari debet aylanmasi, 274 – son shakldagi memorial order, hisobvaraqdan ko'chirmalar.

B) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, 274 – son shakldagi memorial order, Xarajatlar daftari, daromadlar va xarajatlar haqida ma'lumotnoma.

C) Bosh jurnal daftari tegishli subschyotlari kredit aylanmasi, xarajatlar daftari, xarajatlar haqida ma'lumotnoma.

D) Xammasi to'g'ri.

## **7-MAVZU: BYUDJET IJROSIGA OID HISOBOTLARNI UMUMLASHTIRISH, KO'RIB CHIQISH HAMDA TASDIQLASH TARTIBI**

### **REJA:**

*7.1. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tashqi auditi va ularni baholash.*

*7.2. Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar mahaliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlarni tasdiqlash tartibi.*

*7.3. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi.*

*7.4. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tasdiqlash tartibi.*

### **7.1. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tashqi auditi va ularni baholash**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga tashqi audit o'tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5-apreligacha yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning 10-maydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning 15-maydan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosini ta'minlovchi barcha moliya organlari g'aznachilik bo'linmalarida Davlat nazoratini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi"ga va boshqa tegishli qonuniy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari Qaroqalpog'iston Respublikasi moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, shahar va tuman moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Hozirda byudjet ijrosi hisobi kassa usuliga asoslangani sababli, Moliya organlari, shuningdek G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yagona "G'azna dasturi"da yuritmoqda. Moliya organlari shuningdek G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari bosh buxgaltyerlari o'z ishlarida (faoliyatlarida) O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini ijro etish qoidalarini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanishi kerak. Bu vazifa qay darajada bajarilishi tekshirishning asosini tashkil qiladi.

Moliya organlarida, G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini yuritishdan maqsad davlat byudjeti ijrosi jarayoni bo'yicha buxgalteriya axborotlarini shakllantirishdan iboratdir.

Moliya organlarida G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Davlat byudjeti g'azna ijrosi jarayoni muomalalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirish.

2. Buxgalteriya hisobvaraqlarida byudjet mablag'larini holati va harakatini aks ettirish.

3. Davlat byudjeti ijrosi natijalarini aniqlash.

4. Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, taqdim etish va boshqalar.

Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalarni buxgalteriya hisobini yuritish uchun operatsiyalar amalga oshirilganligini belgilovchi hujjatlar va ularni o'tkazishga doir farmoyishlar kabi birlamchi hisob hujjatlari asos bo'ladi.

Birlamchi hisob hujjatlar byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilgan paytda yoki ular amalga oshirilgandan so'ng tuziladi.

Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha hisobot davriga doir operatsiyalarni amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar olinmagan bo'lsa, ular buxgalteriya hisobida tegishli birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish orqali aks ettiriladi.

Bunda, o'tgan yilga doir byudjetning g'azna ijrosi amalga oshiriladigan moliya yiliga qo'shimcha davrda byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning hisobi, belgilangan tartibda aks ettirilgan, qo'shimcha davr mobaynida tuzilgan birlamchi hisob hujjatlari asosida, o'tgan yilning byudjetlarning g'azna ijrosi buxgalteriya hisobida amalga oshiriladi.

Byudjetlarning g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini amalga oshirish uchun g'aznachilik bo'linmalarining birlamchi hujjatlarga va hisobga olish registrlariga imzo qo'yish huquqiga ega xodimlari tomonidan imzolangan birlamchi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Birlamchi hisob hujjatlarida ma'sul shaxslarning imzolari bo'lmasa, ular haqiqiy hisoblanmaydi. Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalarni buxgalteriya yozuvi uchun quyidagi belgilangan tartibda rasmiylashtirilganlar asos bo'lib xizmat qiladi:

G'aznachilik bo'linmalarining g'azna hisobvaraqlaridan, ushbu hisobvaraqlardan pul mablag'larining (o'tkazish va qabul qilish) harakatini tasdiqlovchi xizmat ko'rsatuvchi banklarning tegishli belgilari qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari va boshqa to'lov hujjatlari (elektron yoki qog'oz holatidagi) ilova qilingan bank ko'chirmalari;

G'aznachilik bo'linmalari maxsus hisobvaraqlaridan byudjet mablag'lari hisobiga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek byudjetdan mablag' oluvchilarning ma'lum maqsadlar uchun byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan naqd pul mablag'lari to'lovi bo'yicha shu hisobvaraqlardan pul mablag'larining (o'tkazish va qayta tushirish) harakatini tasdiqlovchi xizmat ko'rsatuvchi banklarning tegishli belgilari qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari va boshqa

to'lov hujjatlari (elektron yoki qog'oz ko'inishida) ilova qilingan bank ko'chirmalari;

11-sonli shakldagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha bildirishnoma;

3-sonli shakldagi byudjetlarni g'azna hisobvaraqlariga Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, shuningdek bojxona organlari g'azna depozit schyotiga kelib tushgan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnoma (№3-bs, 3-sf, 3-dst, 3-svb shakllar);

274-sonli shakldagi memorial order (№274-b, 274-f, 274-v va 274-t shakllar);

Davlat byudjeti, jamg'armalar byudjeti, bojxona organlari g'azna depozit schyoti, shuningdek byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari hisobini yuritishda ishlatiladigan boshqa hujjatlar.

Birlamchi hisob hujjatlarini tuzgan va imzolagan shaxslar, ushbu hujjatlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarning o'z vaqtida tuzilishi, to'g'riligi va haqqoniyligi, shuningdek ularni buxgalteriya hisobotida aks ettirilishi uchun belgilangan muddatlarda yetkazilishi uchun javobgardirlar.

Birlamchi va boshqa hisob hujjatlariga, operatsiyalar qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Bank va kassa hujjatlarini o'zgartirish va bo'yashga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir ish kuni tugashi bilan respublika byudjeti ijrosi bo'yicha, mahalliy byudjet ijrosi bo'yicha, jamg'armalar byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari, shuningdek bojxona organlari g'azna depozit schyoti mablag'lari operatsiyalari barcha birlamchi va hisob hujjatlari g'aznachilik bo'linmalari buxgalteriya hisobi xodimlari tomonidan ularning kelib tushishi bo'yicha taxlanadi va broshyuralanadi.

Byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi registrarlari ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq tasdiqlangan blankalar (shakllar), jurnallar, kitoblarni o'zida ifodalaydi

Byudjetlarning ijrosi bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi quyidagi hisobga olish registrarlarida yuritiladi:

a) "Bosh jurnal" daftari (1-k shakl);

b) byudjet mablagʻlari kassa xarajatlari kitobi (3kbs-shakl), jamgʻarma mablagʻlari taqsimlovchilari kassa xarajatlari kitobi (3ksf-shakl), byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari tushumi va sarflanishi hisob-kitobi (3kvpf-shakl), bojxona organlari gʻazna depozit schyotiga mablagʻlar tushumi va sarflanishi hisobi-kitobi (3- kdsto shakl), byudjetdan mablagʻ oluvchilarning boshqa byudjetdan tashqari mablagʻlari tushumi va sarflanishi hisob-kitobi (3-kvbs shakl) ;

v) byudjetlar bilan hisoblashuvlar kitobi, byudjetlar va jamgʻarmalar bilan hisoblashuvlar, shuningdek jamgʻarmalar bilan ssudalar boʻyicha hisoblashuvlar kitobi (4-bsfs shakl) ;

g) boshqa byudjetlar bilan hisob-kitoblar kitobi (4-k shakl);

d) byudjet mablagʻlari daromadlari va tushumlari hisob-kitobi (5-k(bs) shakl), jamgʻarmalar mablagʻlari daromadlari va tushumlari hisob-kitobi (5-k(sf) shakl).

Bunda, byudjetlarning gʻazna ijrosi buxgalteriya hisobi registrari boʻyicha operatsiyalar elektron shaklda yuritiladi. Davlat byudjeti, jamgʻarmalar byudjeti, bojxona organlari gʻazna depozit schyoti, shuningdek byudjetdan mablagʻ oluvchilarning byudjetdan tashqari boshqa mablagʻlari boʻyicha amalga oshirilgan kassa xarajatlari toʻgʻrisidagi maʼlumot Davlat byudjetining gʻazna ijrosi dasturiy majmuida kunlik asosida va hisobot oyi, choragi va yilining oʻsib boruvchi yakuni bilan bank koʻchirmalaridan olingan va tegishli gʻazna hisobvaraqlariga (operatsiya amalga oshirilgan kunning ertangi bank kunidan kechiktirmasdan) kelib tushgan va koʻchirilgan mablagʻlar toʻlov hujjatlari maʼlumotlari asosida aks ettiriladi.

## **7.2. Qoraqalpogʻiston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlarni tasdiqlash tartibi**

Qoraqalpogʻiston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlarni tasdiqlashdan oldin quyidagicha nazorat amallari bajarilishi tavsiya etiladi:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida:

➤ quyi turuvchi moliya organlari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosining ta'minlanishi ustidan;

➤ ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan;

➤ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi ustidan;

➤ aksiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan;

➤ aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aksiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi ustidan;

➤ byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan byudjet hisobotini tuzishning to'g'riligi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari tegishli byudjetlar ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 10-mayidan so'ng tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlariga taqdim etadi.

Tegishli byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlarni taqdim etish muddatlari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i

Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan belgilanadi.

Tegishli byudjetning ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari qarorlari bilan tasdiqlanadi.

### **7.3. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhleri va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi.

Tegishli hisobot davri uchun Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhleri va qo'mitalarida ko'rib chiqilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati:

- respublika darajasida — O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining va respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

- mahalliy darajada — Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining; davlat moliyaviy nazorat organiga byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risida ma‘lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo‘l qo‘yiladi.

**Davlat moliyaviy nazorat organlari.** O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo‘yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Davlat moliyaviy nazorati printsiplari, shakllari, turlari va usullari.** Davlat moliyaviy nazoratini o‘tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchligi va xolisligi davlat moliyaviy nazoratining printsiplaridir.

Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (shu jumladan byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda

aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazoratining turlari quyidagi:

– dastlabki nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

– joriy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

– yakuniy nazorat – moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng Byudjet Kodeksining 171-moddasida ko'rsatilgan davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlardir.

Davlat moliyaviy nazoratining usullari quyidagilardir:

– hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab:

– yoppasiga nazorat – tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish;

– tanlov asosidagi nazorat – muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini nazorat qilish;

– nazoratning maqsadga yo'naltirilganligi va predmetiga qarab:

– kompleks nazorat – moliyaviy nazorat obyektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha yo'nalishlarini nazorat qilish;

– mavzuli nazorat – moliyaviy nazorat obyektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo'yicha faoliyatini nazorat qilish;

– muqobil nazorat – operatsiyalar yagonaligi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va turli moliyaviy nazorat obyektlarida turgan hujjatlarni solishtirishni o'z ichiga olgan tekshirish.

**O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorati**

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi quyidagilarni amalga oshiradi:

– makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni, byudjet-soliq va pul-kredit parametrlarini shakllantirish jarayonlarini, ularning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga rioya etilishini tizimli o‘rganish;

– byudjet tizimi byudjetlarining daromadlarini shakllantirish va mablag‘lari sarflanishini umumiy, moddalar bo‘yicha, tarmoqlar hamda hududlar kesimida nazorat qilish va tekshirish;

– davlat maqsadli dasturlari amalga oshirilishining to‘liqligi va samaradorligini baholash;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larining qonuniy shakllantirilganligini, maqsadli hamda samarali sarflanganligini nazorat qilish va tekshirish;

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o‘rtasida maqbul nisbatga erishishga doir takliflarni tahlil qilish hamda baholash;

– davlat aktivlari shakllantirilishini, ulardan samarali va maqsadli foydalanilishini tekshirish;

– daromad keltiruvchi tarmoqlar korxonlari faoliyatini byudjet tizimi byudjetlariga qo‘shimcha tushumlar zaxiralarini aniqlashga yo‘naltirilgan tarzda tahlil va nazorat qilish;

– O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun hisob-kitoblar jamg‘armasi, Qishloqlarni qishloq xo‘jalik texnikasi bilan ta‘minlashni davlat tomonidan rag‘batlantirish jamg‘armasi va belgilangan tartibda tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarning mablag‘lari tushumi va daromadlarining shakllantirilishi, ularning mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan tahlil va nazorat qilish;

– valyuta, eksport va import operatsiyalari o‘tkazishning qonuniyligini, shuningdek byudjet tizimi byudjetlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti va importidan majburiy to‘lovlar bo‘yicha mablag‘lar tushumini nazorat qilish;

– mamlakat oltin-valyuta zaxiralarining o‘rni qayta to‘ldirilishi va ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan nazorat qilish;

– ichki va tashqi aktivlarni boshqarish bo'yicha hisobotlar va balans hisob-kitoblarini tahlil qilish, mablag'lar va oltin-valyuta zaxiralarini chet el banklariga va boshqa banklarga joylashtirish hamda qayta joylashtirishning asosli va samarali ekanligini nazorat qilish;

– davlat qarzini boshqarish samaradorligini tahlil qilish, unga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishi ustidan nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan chet el kreditlari mablag'laridan samarali foydalanish masalalari bo'yicha predmetli tekshiruvlar tashkil etish;

– davlat mulki realizatsiya qilinishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish va ular bo'yicha nazoratni ta'minlash;

– byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat qilishga doir vazifalar moliya organlari, shu jumladan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bajarilishi samaradorligini tahlil qilish;

– davlat mulki ulushi bo'lgan korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini dividendlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi yuzasidan tekshirish.

#### **7.4. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tasdiqlash tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhlar va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi.

Tegishli hisobot davri uchun Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraktsiyalari, deputatlar guruhlar va qo'mitalarida ko'rib chiqilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib

chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot yili uchun Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumotda byudjet tasnifi bo'yicha rezerv fondi mablag'lari sarflanishi va mablag'lar qoldig'i aks ettiriladi.

Moliya organlari tomonidan tuziladigan Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risida yillik buxgalteriya hisobotlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans.
2. Daromadlar.
3. Xarajatlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning byudjet tasnifi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi.
5. Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlari rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot.
6. Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot.

Moliya organlari yillik hisobotlar tarkibida yuqoridagilardan tashqari tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha quyidagi yig'ma hisobotlarni ham taqdim etadi:

1. Balans.
2. Xarajatlardir smetasining ijrosi haqida hisobot.
3. Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida ma'lumot.
4. Byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot.

6. Ta'lim muassasalarini o'qitishni to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;

7. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risida hisobot.

8. Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot.

9. Nomoliyaviy aktivlarni harakati to'g'risida ma'lumot.

10. Chet el valyutasidagi pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlati byudjeti kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi Davlat byudjeti bosh boshqarmasiga tegishli hududiy moliya organlariga quyidagi muddatda taqdim etadi:

<b>№</b>	<b>Hisobot nomi</b>	<b>Davriyligi</b>	<b>Taqdim etish muddati</b>
<b>Davlat byudjeti Bosh boshqarmasiga taqdim etiladigan hisobotlar</b>			
1.	Hududiy g'azna tranzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushumi haqida axborot	Kunlik	
2.	Hududiy g'azna tranzit schyotlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar haqida axborot	Kunlik	
3.	O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjeti xarajatlari ijrosi bo'yicha hisobot	Oylik	Hisobot oyidan keyingi oyning 5- sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Choraklik	Hisobot choragidan

			keyingi oyning 10-sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Yillik	Keyingi yilning 1-fevraligacha
Tegishli hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan hisobotlar			
1	Hududiy g'azna tranzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushumi haqida axborot	Kunlik	
2	Hududiy g'azna tranzit schyotlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar haqida axborot	Kunlik	
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risida hisobot	Oylik	Hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Choraklik	Hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Yillik	Keyingi yilning 1-fevraligacha
4	Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot	Oylik	Hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)

		Choraklik	Hisobot choragidan keyingi oynning 10-sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Yillik	Keyingi yilning 1-fevraligacha

### Nazorat uchun savollar:

1. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tashqi auditi va ularni baholash tartibini gapirib bering.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlar tarkibini hamda tasdiqlash tartibini aytib bering.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi qanday amalga oshiriladi?

4. Moliya organlarida G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobining vazifalarini sanab bering?

5. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tasdiqlash tartibi haqida gapirib bering.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlarni tasdiqlashdan oldin qanday nazorat amallari bajarilishi tavsiya etilgan?

7. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotga doir xulosani qanday muddatlarda hamda qaysi vakolatli organga yuboradi?

8. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan davlat moliyaviy nazorat amallarini aytib bering.

9. Davlat moliyaviy nazorati xizmati byudjet ijrosiga oid hisobotlarni to'g'ri shakllantirilishi ustidan nazoratni qanday tartibda amalga oshiradi?

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni qanday tartibda ko'rib chiqadi?

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

**1. Hisobotlarda moliya yili qachondan boshlanadi?**

- A) 1-yanvardan.
- B) 1-fevraldan.
- C) 1-apreldan.
- D) 15-yanvardan.

**2. "Bosh-jurnal" daftari asosida har bir byudjet bo'yicha byudjetning g'azna ijrosi balansi qanday shakllanadi?**

- A) Alohida
- B) Umumiy tamoyili asosida.
- C) Qo'shilgan holda.
- D) Umumiy va qo'shilgan holda.

**3. Hududiy g'aznachilik ogranlari tezkor hisob ma'lumotlarni tegishli moliya organlariga topshirish vaqti qancha?**

- A) Har kunlik.
- B) Har besh xaftilik.
- C) Har 2 oylik.
- D) Yarim yillik.

**4. Davlat byudjeti ijrosiga oid buxgalteriya balansi qismlarini ko'rsating?**

- A) Aktiv va passiv.
- B) Balansdan tashqari.
- C) Analitik va sintetik.
- D) Joriy va davriy.

**5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni hisobot yilidan keyingi**

**qaysi muddatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi?**

- A) 1-aprelgacha.
- B) 23-maygacha.
- C) 12-martgacha.
- D) 14-martgacha.

## **8-MAVZU: BYUDJET HISOBOTLARINING AXBOROT IMKONIYATLARI VA ULARNI TAHLILI**

### **REJA:**

*8.1. Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.*

*8.2. G'aznachilik bo'limlari tomonidan tuziladigan byudjet ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.*

*8.3. Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarning axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.*

*8.4. Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida byudjet hisobotlari axborot imkoniyatlarini takomillashtirish.*

### **8.1. Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari axborot imkoniyatlari va ularni tahlili**

Ma'lumki, amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjet tashkilotlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanadilar. Mazkur mablag'larni maqsadli sarflanishini tahlil qilish hamda kelasi moliya yili uchun byudjet tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetalarini tuzish uchun moliyaviy hisobot ma'lumotlari tahliliga asoslaniladi.

Davlat byudjetining kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan loyahasini tayyorlashda va qabul qilishda ham o'tgan davr uchun byudjet ijrosi hisoboti ma'lumotlariga asoslanishini o'zi byudjet ijrosi hisoboti ma'lumotlarini naqadar ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda byudjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan va taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotlarni axborot imkoniyatlarini quyidagi jadval orqali keltiramiz.

**Byudjet tashkilotlari tomonidan tuziladigan va taqdim  
qilinadigan moliyaviy hisobotlarni axborot imkoniyatlari**

t/r	Hisobotning nomi	Axborot imkoniyatlari
1	Balans (1-shakl)	<p>Byudjet tashkilotining hisobot davriga moliyaviy holatini kompleks tahlilini amalga oshirish mumkin.</p> <p>Jumladan, nomoliyaviy aktivlarining hisobot yili boshiga va hisobot davri oxiriga qoldig'i, bu esa hisobot davrida byudjet tashkilotining nomoliyaviy aktivlarini qancha summada ko'payganligi yoki kamayganligini bildiradi.</p> <p>Ularning (asosiy vositalarning) eskirishi va qoldiq qiymati (mos ravishda hisobot davrining boshiga va oxiriga) to'g'risidagi ma'lumotlar.</p> <p>Moliyaviy aktivlarining har bir turi bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlar.</p> <p>Debitorlik va kreditorlik qarzlarning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan qoldiq summasi, bu esa byudjet tashkiloti tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni tahlil qilishda yordam beradi.</p> <p>Byudjet tashkilotining joriy yilga va o'sib boruvchi yakun bilan moliyaviy natijalarini holati, bu esa, byudjet tashkilotini har bir daromadlar (tushumlar) turi bo'yicha moliyaviy holatini tahlil qilish imkonini yaratadi.</p>

		<p>Bundan tashqari, byudjet tashkilotining balansdan tashqari schyotlarida aks ettirilgan mol-mulklari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.</p>
2	<p>Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl)</p>	<p>Ushbu hisobot yordamida byudjet tashkilotining hisobot choragi mobaynida xarajatlar smetasining ijrosini tahlil qilish mumkin.</p> <p>Jumladan, aniqlangan rejaga nisbatan xarajatlar iqtisodiy tasnifining har bir moddasi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarni amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar. Bu esa, byudjet tashkilotining aniqlangan rejaga nisbatan ishlatilmagan limitlarini aynan qaysi xarajat turi bo'yicha vujudga kelganligini tahlil qilish imkonini beradi.</p> <p>Bundan tashqari rejaga nisbatan haqiqiy xarajatlarni kam yoki ko'p amalga oshirilganligi aynan xarajatlarning qaysi turi bo'yicha yuzaga kelganligini ko'rish va tahlil qilish mumkin.</p> <p>Bular natijasida byudjet tashkilotining ham joriy yilgi xarajatlar smetasini tahlili, ham kelasi yilga rejalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.</p>
3	<p>Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot</p>	<p>Byudjet tashkilotining hisobot davriga yuzaga kelgan barcha debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin.</p> <p>Jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlarni aynan xarajatlarning qaysi turi</p>

		<p>bo'yicha yuzaga kelganligi, shuningdek muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorliklar to'g'risida, bundan tashqari mazkur qarzlarni respublikadan tashqaridagi qismi bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin.</p> <p>Yuqoridagi barcha ma'lumotlar byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida holda keltiriladi. Bu esa, byudjet tashkilotining ham joriy yilgi xarajatlar smetasini tahlili, ham kelasi yilga rejalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.</p>
4	<p>Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot</p>	<p>Mazkur hisobot natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini nazorat va tahlil qilish mumkin.</p> <p>Jumladan, mazkur jamg'armaning har bir tushum turi bo'yicha byudjet tashkilotiga hisobot davrida qancha mablag'lar kelib tushganligi va mazkur mablag'larni qanday maqsadlarga sarflanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar. 60-modda 81</p>
5	<p>Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari</p>	<p>Mazkur hisobot natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi 276-son "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ijrosini nazorat va tahlil qilish mumkin.</p> <p>Jumladan, mazkur jamg'armaning har bir</p>

	harakati to'g'risida hisobot	tushum turi bo'yicha byudjet tashkilotiga hisobot davrida qancha mablag'lar kelib tushganligi va mazkur mablag'larni qanday maqsadlarga sarflanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar. 61-modda 81
6	Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobot	<p>Ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt mablag'larining tushumi va ularni qonunchilikka muvofiq belgilangan maqsadlarga sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar.</p> <p>Bular natijasida ta'lim muassasasiga kelajakda byudjet mablag'larini rejalashtirilishida zaruriy ma'lumotlarni olishga va ularni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi. 63</p>
7	Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobot	<p>Byudjet tashkilotining yuqorida keltirilganlardan tashqari barcha byudjetdan tashqari mablag'larini tushumi va ularni sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlar.</p> <p>Bular natijasida byudjet tashkilotiga kelajakda byudjet mablag'larini rejalashtirilishida zaruriy ma'lumotlarni olishga va ularni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.. 63</p>
8	Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot	Mazkur hisobot tashkilotning joriy yilning yakunlari bo'yicha moliyaviy faoliyatining natijasi, ya'ni, har bir daromad (tushum)larning turlarini mazkur daromadlar (tushumlar) hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy harajatlar bilan solishtirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun

		<p>tuziladi.</p> <p>Bu ma'lumotlar natijasida byudjet tashkilotining joriy yilga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larining tushumi va sarflanishini tahlil qilishda zaruriy ma'lumotlarni olish imkonini beradi.</p>
9	Nomoliyaviy aktivlarning harakati to'g'risida hisobot	<p>Nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobot tashkilotning hisobot yili mobaynidagi nomoliyaviy aktivlari (asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va tovar-moddiy zaxiralari)ning mavjudligi va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.</p> <p>Mazkur ma'lumotlar natijasida byudjet tashkilotining kelajakdagi xarajatlar smetasiga mablag'lar rejalashtirilishida zaruriy ma'lumotlarni olish imkonini yaratadi.</p> <p>Jumladan asosiy vositalarning har bir turi bo'yicha qoldiq qiymatini tahlil qilish natijasida kelgusi moliya yili uchun byudjet tashkilotiga zaruriy asosiy vositalarga mablag'lar rejalashtirishda yetarlicha ma'lumotlar bazasi shakllanadi.</p>
10	Byudjet tashkilotlarida chet el valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot	<p>Mazkur hisobot Byudjet tashkilotlarining hisobot davri mobaynidagi chet el valyuta mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan.</p> <p>Byudjet tashkilotlari ushbu hisobotni tuzishdan oldin:</p>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hisobraqamlardan (shaxsiy g'azna hisobvaraqlardan) olingan ko'chirmalarni va boshqa tegishli hisob registrlari ma'lumotlarining to'g'riligini;</li> <li>- chet el valyutalari shaklida tushgan mablag'larning shakllanishi va sarflanishiga oid barcha dastlabki hujjatlarning to'liqligini;</li> <li>- analitik hisob ma'lumotlarining tegishli sintetik hisob ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirib chiqadilar.</li> </ul>
--	---

Mazkur moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, ya'ni bir hisobotda aks ettirilgan moliyaviy ko'rsatkichlar boshqa hisobotda yanada aniqlashtirilgan yoki boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Bu esa, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilishda yanada ko'proq imkoniyatlarni yaratadi.

Jumladan, balansda aks ettirilgan debitorlik va kreditorlik qarzlari buxgalteriya hisobining subschyotlari bo'yicha aks ettirilsa, boshqa hisobot shakli - debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotda esa, xarajatlar iqtisodiy tasnifining moddalari va kichik moddalari bo'yicha aks ettiriladi va h.k.

## **8.2. G'aznachilik bo'limlari tomonidan tuziladigan byudjet ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili**

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlat byudjeti kassa ijrosi to'g'risidagi davriy hisobotlar tuziladi. Davriy hisobotlarga asosan kunlik, oylik, choraklik va yillik hisobotlar.

Hududiy g'aznachilik bo'linmalari har kunlik tezkor hisob ma'lumotlarini tegishli moliya organlariga taqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida moliya organlari byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet

mablag'larining sarflanish holatini tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar byudjet daromadlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Har oyda g'aznachilik bo'linmalari tegishli moliya organlari bilan hisobot oyining boshiga tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) rejalashtirilgan ajratmalar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro solishtirib chiqadi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan taqdim etiladigan davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar asosida davlat byudjetini ijrosi bo'yicha tezkor axborotlar shakllantirilib boradi. Bu esa byudjet ijrosini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan moliya organlariga taqdim etilgan hisobotlar asosida moliya organlari davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzadi va tegishli organlarga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Moliya organlari tomonidan tuziladigan Byudjet ijrosi to'g'risidagi balansda tegishli byudjet bo'yicha byudjet pul mablag'lari qolig'i, byudjet xarajatlari, berilgan va olingan byudjet ssudalari, o'zaro hisoblashuvlar bo'yicha berilgan va olingan mablag'lar, shuningdek hisobot davri oxiriga bo'lgan byudjet ijrosi natijalari bo'yicha ma'lumotlar shakllantiriladi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotning Daromadlar qismida byudjet tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromadlar summalari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotning Xarajatlar qismida byudjet tasnifi xarajatlar bo'yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. Shuningdek bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

Moliya organlari yillik hisobotlar tarkibida tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha yig'ma hisobotlarni ham taqdim etadi.

Yig'ma hisobotlarda byudjet tashkilotlari balansi asosida byudjet tashkilotining hisobot davriga moliyaviy holatini kompleks tahlilini amalga oshirish mumkin. Jumladan, nomoliyaviy aktivlarining hisobot yili boshiga va hisobot davri oxiriga qoldig'i, bu esa hisobot davrida byudjet tashkilotining nomoliyaviy aktivlarini qancha summada

ko'payganligi yoki kamayganligini bildiradi. Ularning (asosiy vositalarning) eskirishi va qoldiq qiymati (mos ravishda hisobot davrining boshiga va oxiriga) to'g'risidagi ma'lumotlar. Moliyaviy aktivlarning har bir turi bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlar. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan qoldiq summasi, bu esa byudjet tashkiloti tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni tahlil qilishda yordam beradi. Byudjet tashkilotining joriy yilga va o'sib oruvchi yakun bilan moliyaviy natijalarini holati, bu esa, byudjet tashkilotini har bir daromadlar (tushumlar) turi bo'yicha moliyaviy holatini tahlil qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, byudjet tashkilotining balansdan tashqari schyotlarida aks ettirilgan mol-mulkleri to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot yordamida byudjet tashkilotining hisobot choragi mobaynida xarajatlar smetasining ijrosini tahlil qilish mumkin. Jumladan, aniqlangan rejaga nisbatan xarajatlar iqtisodiy tasnifining har bir moddasi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarni amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar. Bu esa, byudjet tashkilotining aniqlangan rejaga nisbatan ishlatilmagan limitlarini aynan qaysi xarajat turi bo'yicha vujudga kelganligini tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari rejaga nisbatan haqiqiy xarajatlarni kam yoki ko'p amalga oshirilganligi aynan xarajatlarning qaysi turi bo'yicha yuzaga kelganligini ko'rish va tahlil qilish mumkin. Bular natijasida byudjet tashkilotining ham joriy yilgi xarajatlar smetasini tahlili, ham kelasi yilga rejalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotda asosida byudjet tashkilotining hisobot davrida yuzaga kelgan barcha debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin. Jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlarni aynan xarajatlarning qaysi turi bo'yicha yuzaga kelganligi, shuningdek muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorliklar to'g'risida, bundan tashqari mazkur qarzlarni respublikadan tashqaridagi qismi bo'yicha ham ma'lumotlar

olish mumkin. Yuqoridagi barcha ma'lumotlar byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida holda keltiriladi. Bu esa, byudjet tashkilotining ham joriy yilgi xarajatlar smetasini tahlili, ham kelasi yilga rejalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.

Boshqa yig'ma hisobot shakllarida ham shu kabi axborot imkoniyatlari mavjud.

### **8.3. Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarning axborot imkoniyatlari va ularni tahlili**

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlati byudjeti kassa ijrosi to'g'risidagi davriy hisobotlar tuziladi. Hududiy g'aznachilik bo'linmalari har kunlik tezkor hisob ma'lumotlarini tegishli moliya organlariga taqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida moliya organlari byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet mablag'larining sarflanish holatini tahlil qiladi. Bu ma'lumotlar byudjet daromadlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Har oyda g'aznachilik bo'linmalari tegishli moliya organlari bilan hisobot oyining boshiga tasdiqlangan (aniqlashtirilgan) rejalashtirilgan ajratmalar bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro solishtirib chiqadi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan taqdim etiladigan davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar asosida davlat byudjeti ijrosi bo'yicha tezkor axborotlar shakllantirilib boradi. Bu esa byudjet ijrosini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi.

G'aznachilik bo'limlari tomonidan moliya organlariga taqdim etilgan hisobotlar asosida moliya organlari davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzadi va tegishli organlarga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Moliya organlari tomonidan tuziladigan Byudjet ijrosi to'g'risidagi balansda tegishli byudjet bo'yicha byudjet pul mablag'lari qolig'i, byudjet xarajatlari, berilgan va olingan byudjet ssudalari, o'zaro hisoblashuvlar

bo'yicha berilgan va olingan mablag'lar, shuningdek hisobot davri oxiriga bo'lgan byudjet ijrosi natijalari bo'yicha ma'lumotlar shakllantiriladi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotning Daromadlar qismida byudjet tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromadlar summalari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotning Xarajatlar qismida byudjet tasnifi xarajatlar bo'yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. Shuningdek, bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi.

Moliya organlari yillik hisobotlar tarkibida tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha yig'ma hisobotlarni ham taqdim etadi.

Yig'ma hisobotlarda byudjet tashkilotlari balansi asosida byudjet tashkilotining hisobot davriga moliyaviy holatini kompleks tahlilini amalga oshirish mumkin. Jumladan, nomoliyaviy aktivlarining hisobot yili boshiga va hisobot davri oxiriga qoldig'i, bu esa hisobot davrida byudjet tashkilotining nomoliyaviy aktivlarini qancha summada ko'payganligi yoki kamayganligini bildiradi. Ularning (asosiy vositalarning) eskirishi va qoldiq qiymati (mos ravishda hisobot davrining boshiga va oxiriga) to'g'risidagi ma'lumotlar. Moliyaviy aktivlarning har bir turi bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotlar. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan qoldiq summasi, bu esa byudjet tashkiloti tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarni tahlil qilishda yordam beradi. Byudjet tashkilotining joriy yilga va o'sib oruvchi yakun bilan moliyaviy natijalarini holati, bu esa, byudjet tashkilotini har bir daromadlar (tushumlar) turi bo'yicha moliyaviy holatini tahlil qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, byudjet tashkilotining balansdan tashqari schyotlarida aks ettirilgan mol-mulkleri to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi

Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobotda byudjet tashkilotining hisobot choragi mobaynida xarajatlar smetasining ijrosini tahlil qilish mumkin. Jumladan, aniqlangan rejaga nisbatan xarajatlar iqtisodiy tasnifining har bir moddasi bo'yicha kassa va haqiqiy xarajatlarni

amalgaga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar. Bu esa, byudjet tashkilotining aniqlangan rejaga nisbatan ishlatilmagan limitlarini aynan qaysi xarajat turi bo'yicha vujudga kelganligini tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari rejaga nisbatan haqiqiy xarajatlarni kam yoki ko'p amalga oshirilganligini aynan xarajatlarning qaysi turi bo'yicha yuzaga kelganligini ko'rish va tahlil qilish mumkin. Bular natijasida byudjet tashkilotining ham joriy yilgi xarajatlar smetasini tahlili, ham kelasi yilga rejalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotda byudjet tashkilotining hisobot davriga yuzaga kelgan barcha debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin. Jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlarni aynan xarajatlarning qaysi turi bo'yicha yuzaga kelganligi, shuningdek muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorliklar to'g'risida, bundan tashqari mazkur qarzlarni respublikadan tashqaridagi qismi bo'yicha ham ma'lumotlar olish mumkin. Yuqoridagi barcha ma'lumotlar byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha alohida holda keltiriladi. Bu esa, byudjet tashkilotining ham joriy yilgi xarajatlar smetasini tahlili, ham kelasi yilga rejalashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish imkonini yaratadi.

#### **8.4. Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida byudjet hisobotlari axborot imkoniyatlarini takomillashtirish**

Xalqaro amaliyotda davlat byudjeti ijrosi natijalari bo'yicha hisobotlar davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa usuli, hisoblash usuli, modifikatsiyalashtirilgan hisoblash usuli asosida shakllantiriladi.

Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa usulida barcha hodisalarni pul mablag'larining harakati bo'yicha qayd qilish ko'zda tutiladi. Bunda aktivlar va majburiyatlarga doir ko'pgina hodisalar buxgalteriya hisobi doirasida hisobga olinmay qoladi. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash usulida sodir bo'lgan barcha hodisalar

sodir bo'lgan paytda tan olinadi. Barcha aktivlar qiymati ulardan foydalanish davri davomida ularning xizmat qilish muddatiga mutanosib ravishda eskirish hisoblanib, bu eskirish summasi xarajatlarga amortizatsiya sifatida qo'shib boriladi. Hisoblash usuliga asoslangan Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari qabul qilingan bo'lib ushbu standartlardan biri «Moliyaviy hisobotning taqdim etilishi» 1 DSBHXSdir.

Standart talablari davlat korporatsiyalaridan tashqari barcha davlat sektori institutsional birliklariga taalluqlidir. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga muvofiq hisoblash metodidan foydalanib tuziladigan va taqdim etiladigan ko'pchilik foydalanishi uchun mo'ljallangan barcha moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda qo'llaniladi. Standartning maqsadi institutsional birlikning o'tgan davrlar uchun tuzgan moliyaviy hisoboti bilan hamda boshqa institutsional birliklarning moliyaviy hisoboti bilan solishtirish mumkinligini ta'minlash uchun ko'pchilik foydalanishi uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibini o'rnatish hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun mazkur Standartda hisoblash metodidan foydalanib tayyorlangan moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha bir qator umumiy mulohazalar, moliyaviy hisobotning tarkibi bo'yicha tavsiyalar va moliyaviy hisobot mazmuniga minimal talablar belgilangan.

Ko'pchilik foydalanishi uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobot — o'zlarining aniq ma'lumotlarga bo'lgan talablariga muvofiq hisobotlarning shakllarini o'zgartirishni talab qila olmaydigan moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning ehtiyojini qondirish uchun tayinlangan hisobotdir. Mazkur Standart moliyaviy faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotda hisobot davridagi institutsional birlikning foydalari yoki zararlari haqidagi ma'lumotlarni «nazorat qiladigan institutsional birlikning egasiga tegishli foydalar yoki zararlar» va «kamchilikni qiziqishiga tegishli foydalar yoki zararlar» o'rtasida bo'lingan holda alohida taqdim etishni talab qiladi.

«Moliyaviy hisobotning taqdim etilishi» 1 DSBHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda talablar belgilangan. Jumladan

a) Foydalanuvchilar talabiga mos qarorlar qabul qilish imkoniyati bo'lishi;

b) Ishonchli bo'lishi bunda;


- moliyaviy xolati va moliyaviy natijalari asoslangan holda aks ettirilishi;

- hodisa va muomalalarni faqat yuridik shaklini emas balki iqtisodiy mazmunini ham aks ettirish;

- xolislik;

- Hamma jarayonni qamrab olish.

Xalqaro amaliyotda Davlat moliyasi statistikasida hisobotlarni shakllantirish uslubiyoti alohida ahamiyatga ega.




#### 8.4.1-rasm. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (DSBHXS)dan foydalanishning xususiyatlari<sup>10</sup>

<sup>10</sup> K.Sh.Ibragimov "Moliya" ilmiy jurnali, 2013-yil № 4-son 5-bet.

Byudjet ijrosi sohasida amaldagi milliy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishda avvalo ularning uslubiy jihatlari hamda xususiyatlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish muhimdir. Quyidagi (3.1.2-chizma)da Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (DSBHXS)dan foydalanishning xususiyatlari tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Xalqaro amaliyotda davlat byudjeti ijrosi natijalari bo'yicha hisobotlar davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa usuli, hisoblash usuli, modifikatsiyalashtirilgan hisoblash usuli asosida shakllantiriladi.



8.4.2-rasm. Hisobotlarni shakllantirishda buxgalteriya hisobi usullari<sup>11</sup>

*Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining kassa usulida barcha hodisalarni pul mablag'larining harakati bo'yicha qayd qilish ko'zda tutiladi. Bunda aktivlar va majburiyatlarga doir ko'pgina hodisalar buxgalteriya hisobi doirasida hisobga olinmay qoladi<sup>12</sup>.*

*Mamlakatimizda davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tuzish yagona tartibda tashkil etilishi qonun talablarida ko'rsatilgan bo'lib, bugungi kunda Moliya organi, g'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bilan*

<sup>11</sup>Muallif tomonidan me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlangan.

<sup>12</sup> Ostanaqulov M. Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009

*bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi, davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisobotiga doir mavjud nazariy bilim va tushunchalarni chuqur tahlil qilish orqali ularni optimallashtirish hamda davlat byudjetining g'azna ijrosi sharoitida ularni xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish asosiy masalalardan biri bo'lmoqda.*

*Umuman davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan xalqaro tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.*

### **Nazorat uchun savollar:**

*1. Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari axborot imkoniyatlari haqida gapirib bering hamda ularni tahlili bo'yicha izoh bering.*

*2. G'aznachilik bo'limlari tomonidan tuziladigan byudjet ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari haqida gapirib bering hamda ularni tahlili bo'yicha izoh bering.*

*3. Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarning axborot imkoniyatlari haqida gapirib bering hamda ularni tahlili bo'yicha izoh bering.*

*4. Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida byudjet hisobotlarining axborot imkoniyatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha qanday ilmiy takliflar bidirasiz?*

### **MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI**

**1. Byudjet tashkilotlari hisobotlari axborot imkoniyatlari nimalardan iborat?**

A) Daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha tegishli axborotlar.

B) Moliya faoliyati, xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha tegishli axborotlar.

C) Byudjet tashkilotlari daromadlari rejasini ijrosi bo'yicha axborotlar.

D) Xammasi to'g'ri.

**2. Moliya organlari hisobotlari axborot imkoniyatlari nimalardan iborat?**

- A) Byudjet ijrosi natijalari bo'yicha tegishli axborotlar.
- B) Xarajatlar ijrosi bo'yicha tegishli axborotlar.
- C) Daromadlar ijrosi bo'yicha axborotlar.
- D) Xammasi to'g'ri.

**3. Davlat byudjeti ijrosi hisobotlari qaysi usulga asoslangan?**

- A) Buxgalteriya hisobining kassa usuliga asoslangan.
- B) Buxgalteriya hisobining hisob usuliga asoslangan.
- C) Buxgalteriya hisobining kassa va hisob usuliga asoslangan.
- D) To'g'ri javob yo'q

**4. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobotlari nimalarga asosan takomillashtirilmoqda?**

- A) Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma 2001 va boshqa tegishli xalqaro hisob standartlar talablari asosida.
- B) Moliyaviy hisob xalqoro standartlari asosida.
- C) Qonunchilik talablari asosida.
- D) Takliflar asosida.

**5. 1-son DSBHXS "Moliyaviy hisobotning taqdim etilishi"ga asosan moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda belgilangan talablar quyidagilar?**

- A) Foydalanuvchilar talabiga mos qarorlar qabul qilish imkoniyati hamda ishonchli bo'lishi.
- B) Rahbar xohishiga mos bo'lishi
- C) Ishonchli bo'lishi
- D) Moliyaviy holati va moliyaviy natijalari asoslangan bo'lishi

## GLOSSARIY

**Byudjet** – Markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini ta'minlash uchun pul mablag'lari yig'indisini shakllantirish va ishlatishning shakli.

**Byudjet jarayoni** – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni.

**Byudjet tizimi byudjetlari** – O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari.

**O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti)** – davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi.

**Respublika byudjeti** – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Qoraqalpog'iston respublikasining byudjeti** – Davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan

tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**G'aznachilik bo'linmalari** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari.

**Byudjet tasnifi** – byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish.

**Yagona g'azna hisobvarag'i** – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan, byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladigan hamda xarajatlari to'lanadigan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan maxsus bank hisobvarag'i.

**Byudjet tashkiloti** – Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot.

**Buxgalteriya hisobi** – tashkilotning aktivlari qiymatini va ularning shakllanish manbalari ma'lumotlarni yig'ish, ro'yxatga olish va umumlashtirish tizimi.

**Byudjetdan mablag' oluvchilar** – Davlat Byudjetidan mablag' ajratilishi nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek kapital ta'mirlash buyurtmachilari.

**Aktiv hisobvaraq** – aktiv mablag'larni ifodalaydi. Aktivlarning qoldig'i va ortishi uning debetida ularning kamayishi esa uning kreditida aks ettiriladi;

**Passiv hisobvaraқ** – mablag‘lar manbai va majburiyatlarni ifodalaydi. Mablag‘lar manbai va majburiyatlarning qoldig‘i hamda ortishi uning kreditida, ularning kamayishi esa hisobvaraқning debetida aks ettiriladi.

**Buxgalteriya schyoti** – korxonalar iqtisodiy resurslarining holati va harakati haqidagi buxgalteriya axborotini qayd etish va saqlash uslubi va ularga bo‘lgan talablar.

**Schyotlar rejasi** – birinchi va ikkinchi tartibdagi buxgalteriya hisobi schetlarining tizimlashtirilgan (sintetik schet va subschet) ro‘yxati.

**Tranzit hisobvaraқ** – pul mablag‘larini vaqtinchalik hisobga oluvchi hisobvaraқ.

**Hududiy (respublika) g‘azna hisobvaraqlari** – mazkur byudjetlar uchun ochilgan, G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvaraqlari.

**Moliya yili** – birinchi yanvardan toki o‘ttiz birinchi dekabr kunining oxirigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr.

**Daromadlar va xarajatlar smetasi** – byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat.

**Xarajatlar smetasi** – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo‘yicha aks ettiriladigan hujjat.

**Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari** – qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag‘lardir. Byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkil bo‘lish manbaalari va ushbu mablag‘larning qonunchilikka muvofiq foydalanish

yoʻnalishlari koʻrsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi.

**Byudjetdan mablagʻ oluvchilarning byudjetdan tashqari mablagʻlari** – ijtimoiy toʻlovlar uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi, ota-onalarning maktabgacha va maktabdan tashqari tashkilotlarda bolalarni saqlash uchun, jumladan musiqa maktablarida bolalarni oʻqitish uchun toʻlovlari, ishchilardan oziq-ovqat hisob-kitoblari uchun tushumlar (maktabgacha bolalar tashkilotlari, internatlar va boshqalar), ular tomonidan ish joyidan oladigan, keyinchalik joriy qonunchilikda belgilangan maqsadlarga yoʻnaltirilishi bilan gʻazna hisobvaraqlariga oʻtkaziladigan mablagʻlar.

**Balans** – lotincha bis – ikki marta, band – tarozi pallasida soʻzlaridan tarkib topib, tom maʼnoda ikki palla degan maʼnoni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi.

**Xarajatlar smetasi ijrosi haqida hisobot** – ushbu hisobot yordamida byudjet tashkilotining hisobot choragi mobaynida xarajatlar smetasining ijrosini tahlil qilish mumkin.

**Debitorlik va kreditorlik qarzlari toʻgʻrisida maʼlumotnoma** – byudjet tashkilotining hisobot davriga yuzaga kelgan barcha debitorlik va kreditorlik qarzlari toʻgʻrisida batafsil maʼlumotlarni tahlil qilish mumkin.

**Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamgʻarmasi boʻyicha pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisida hisobot** – mazkur jamgʻarmaning har bir tushum turi boʻyicha byudjet tashkilotiga hisobot davrida qancha mablagʻlar kelib tushganligi va mazkur mablagʻlarni qanday maqsadlarga sarflanganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar.

**Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi boʻyicha pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisida hisobot** – mazkur jamgʻarmaning har bir tushum turi boʻyicha byudjet tashkilotiga hisobot davrida qancha mablagʻlar kelib tushganligi va

mazkur mablag'larni qanday maqsadlarga sarflanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

**Joriy yilning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot** – mazkur hisobot tashkilotning joriy yilning yakunlari bo'yicha moliyaviy faoliyatining natijasi, ya'ni, har bir daromad (tushum)larning turlarini mazkur daromadlar (tushumlar) hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar bilan solishtirish natijasi bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish uchun tuziladi.

**Moliyaviy natijalar** – bu xo'jalik subyektlarida ma'lum bir hisobot davrida xo'jalik jarayoni natijasida o'ziga qarashli mablag'larni oshishi yoki kamayishidir.

**Yakuniy moliyaviy natija** – bu byudjet tashkilotining hisobot yili yakunida daromadlar va harajatlar smetalari ijrosi bo'yicha daromadlar bilan haqiqiy harajatlar o'rtasida yuzaga keladigan farqidir.

**Hisobot davri** – tashkilot moliyaviy jadvallar asosida buxgalteriya hisobotlarini tuzadigan sana.

**Rejalashtirish davri** – ikki moliyaviy yil, joriy yildan keying moliya yili.

**Joriy moliya yili** – byudjetning ijrosi yili bo'lgan, keying moliyaviy yil uchun byudjet loyihasi tayyorlash va ko'rib chiqish (keyingi moliyaviy yil va rejalashtirish davri).

**Daromadlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlari** – byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining g'azna ijrosi jarayonida tegishli byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan miqdori, daromadlarning kassa tushumlari hajmi va tegishli byudjetlarga va byudjetlardan daromadlar turi va manbasi bo'yicha amalga oshirilgan qaytarish (hisobga olish) summalari bo'yicha ma'lumotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan analitik hisob registrari.

**Hisoblangan daromadlar** – Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari (tashkilotlar) hamda byudjet tashkilotlari (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari bo‘yicha) tomonidan moliya organlariga daromadlar tasnifi kodlari bo‘yicha taqdim etilgan tegishli byudjetlar hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga o‘tkazib berilishi hisobga olingan daromadlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar.

**Daromadlar bo‘yicha majburiyatlar** – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga daromadlarni hisoblanishini va ularni bajarilishini ifodalaydi.

**Kassa daromadlari** – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar sifatida o‘tkazilgan pul mablag‘lari.

**Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish bo‘yicha vakolatli organlar** – qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar, ma‘muriy jarimalar va moliyaviy sanksiyalarni (bundan buyon matnda to‘lovlar deb yuritiladi) undirilishini amalga oshiruvchi organlar.

**Kassa xarajatlari** – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari pul mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar.

**Xarajatlar moddasi** – byudjet tasnifining qismi bo‘lib, Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tayinlanishi va to‘lovlarni aniq turlarini ifodalaydi.

**Hisoblangan xarajatlar** – byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan olingan moliyaviy majburiyatlar;

**Xarajatlar bo‘yicha majburiyatlar** – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg‘armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan xarajatlarning hisoblanishi va ularni bajarilishini ifodalaydi;

**Boshqa jamg‘armalar** – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti** – Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Hududiy g‘azna hisobvarag‘lari** – mazkur byudjetlar uchun ochilgan, G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvaraqlari.

**Mahalliy byudjet** – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Davlat jamg‘armalari** – Maxsus maqsadlarni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi.

**Byudjetdan ajratiladigan mablag'lar** – O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag'lari.

**Davlat byudjetining pul mablag'larini boshqarish** – byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida hududiy (respublika) g'azna hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini boshqarish.

**Yillik hisobot** – moliya yili natijasi bo'yicha shakllantiriladigan hisobot.

**Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari** – qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbaalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag'lar.

**Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari** – davlat sektoridagi tashkilotlarda (davlat ishtirokidagi tijorat korxonalaridan tashqari) yuqori sifatda jahon standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha xalqaro miqyosda umumqabul qilingan qoidalardir.

**Elektron to'lov markazi** – yagona g'azna hisobvarag'iga kirim qilingan mablag'larni Davlat moliyasini boshqarishni axborot tizimiga qabul qilish, ularni me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan tegishli g'azna hisobvaraqlariga taqsimlash, qaytarish, daromadlarni bir daromad turidan boshqa daromad turiga o'tkazish hamda shaxsiy g'azna hisobvaraqlari orqali yagona g'azna hisobvarag'idan xarajatlarni amalga oshirishda tegishli dasturiy funksiyalarni amalga oshiruvchi modul.

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimi** – byudjet tizimi byudjetlarining byudjet jarayonini kompleks avtomatlashtirish, shu jumladan byudjet tizimi byudjetlari ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan axborot tizimi.

**Asosiy adabiyotlar:**

**1. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi" 26-dekabr 2013-yildagi O'RQ-360 sonli O'zR. qonuni;

2. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni 13-aprel 2016-yil O'RQ-404 sonli;

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda);

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 11-oktyabr 2010-yil 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha" Yo'riqnoma;

5. "O'zbekiston Respublikasi Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti g'azna ijrosi byudjet hisobi to'g'risida yo'riqnoma" O'zR Moliya vazirligining 2013-yil 2-dekabrda 157-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (ilovalari va o'z kuchida qolgan tegishli bandlari);

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan yo'riqnomalarga, jumladan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2016-yil 17-martda 49-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma";

7. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug‘i “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi qoidalarini tasdiqlash haqida” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2850);

8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 22-dekabr 2010-yil 2169-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi”;

9. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom”;

10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 14-yanvar 2004-yil 1297-son bilan ro‘yxatga olingan “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risida”gi Nizom;

11. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 18-yanvar 2013-yil 2414-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalarida byudjetdan mablag‘ oluvchilarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini ochish, yopish va yuritish Qoidalarini”;

12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 13-noyabr 2012-yil 2400 – son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Nizom;

13. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 15-fevralda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2971 “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo‘yicha Qoidalar”.

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari:**

14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.

15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -488 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –32 b.

## **3. Maxsus adabiyotlar:**

17. Ostanaxulov M. Byudjet hisobi. Darslik. T: "Talqin". 2008. 424-b

18. Ostanaxulov M. Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009;

19. Mehmonov S.U. Byudjet hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya". 2012. 352 b

20. Karimova Z.X., Djamalov X.N., Islamkulov A.X. Byudjet tizimi. O'quv qo'llanma. T.: "VORIS NASHRIYOT"., 2012 y. 280 b.

## **Qo'shimcha adabiyotlar:**

21. Vaxobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir"., 2011 y. 712 bet.;

22. Mamadjanov I. "Kontseptsiya sovershenstvovaniya sistemi buxgalterskogo ucheta i otchetnosti na osnove adaptatsii Mejdunarodnix

standartov finansovoy otchetnosti obshchestvennogo sektora”. – T.: Programma razvitiya Organizatsii Ob’edinennix Natsiy, 2013 g.;

23. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g’aznachilik tizimi. O’quv qo’llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.

24. Public sector accounting reform Tatjana Jovanović Senior lecturer, Ph.D., University of Ljubljana, Faculty of Administration, Ljubljana, Slovenia;

25. Sorokin, Anton Nikolaevich, “Buxgalterskiy uchet v byudjetnix uchrejdeniyax Frantsii i Rossii”, Moskva 2004 g.;26.

26. Tabalina S.A. (2011. №3) Mejdunarodnie standarti otchetnosti organizatsiy sektora gosudarstvennogo upravleniya.;

27. Kondrakov N.P., Kondrakov I.N. Buxgalterskiy uchet v byudjetnix organizatsiyax. –M.: Prospekt, 2006.;

28. M.A. Ryabova, D. G. Aynullova, Byudjetniy uchet i otchetnost: uchebnoe posobie /– Ulyanovsk: UIGTU, 2010. – 184 s.;

29. Melnikova Ekaterina Vladimirovna, “Razvitie buxgalterskogo ucheta gosudarstvennix”, Michurinsk - naukograd RF, 2010.;

30. Tatyana Chetvergova “Uchet i otchetnost byudjetnoy organizatsii novogo tipa”, Jurnal “Audit” №7-2013.;

31. Bellanca, S. and Vandernoot, J., (April 2013) Analysis of Belgian Public Accounting and Its Compliance with International Public Sector Accounting Standards (IPSAS) 1, 6 and 22.

32. Internet saytlari:

– [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;

– [www.cer.uz](http://www.cer.uz) - Iqtisodiy tadqiqotlar markazi rasmiy sayti;

- [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali rasmiy sayti;
- [www.chu.uz](http://www.chu.uz) - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti;
- <http://www.ifac.org/publicsector> - Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Kengashi veb-sayti;
- [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti;
- [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz) - Toshkent moliya instituti sayti.

## ILOVALAR

### 1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti,  
davlat maqsadli va  
boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda  
byudjet tashkilotlarining  
byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna  
ijrosi byudjet hisobining Yagona  
hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha  
yo'riqnomaga 1-ilova

### « BOSH KITOB »

(byudjet va/yoki g'aznachilik bo'linmasi nomi)

20\_\_ yil \_\_\_\_\_ oy

( so'mda)

Sana (oy, sana)	Memo- rial order №	Me- morial- order bo'yi- cha jami summa	Sintetik hisobvaraqlar bo'yicha aylanma (ikkilamchi hisobvaraqlar tartibida)					
			Hisobvaraq № _____		Hisobvaraq № _____		Hisobvaraq № _____	
			De- bet	Kre- dit	De- bet	Kre- dit	De- bet	Kre- dit
01.____.20__ y ga qoldiq.	...	...	...	...				
...	...	...	...	...				
____ oyga jami aylanma								
Yil boshidan jami aylanma								
01.____.20__ y ga qoldiq.								

20__ yil yakuni bo'yicha yakuniy o'tkazmalar.								
Qo'shimcha davrda amalga oshirilgan o'tkazmalarga qadar qoldiq								
20__ yil yakuni bo'yicha qo'shimcha davrda amalga oshirilgan o'tkazmalarga								
20__ yil yakuni bo'yicha qoldiq								

**2-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga 2-ilova

**20\_\_ yil holatiga**

**Daromadlar**

tushumi bo'yicha ma'lumotlar kitobi

(20\_\_ yil holatiga byudjet va/yoki g'aznachilik bo'linmasi nomi) \_\_\_\_\_ oy

Satr №	Byudjet tasnifi kodi	Byudjet tasnifi kodi	Oy sanasi		Bo'lim	Oy sanasi		Yil boshidan jami
			...	...		Memorial order №	Memorial order №	
			...	...		...	...	...
			Memorial order №			Memorial order №		Jami oy bo'yicha
			...	...		...	...	qoldiq
			Kredit			Debet		.....ga
						Kredit	Debet	

Daromad hisobvaraqlari bo'yicha jami:

Aniqlanmagan tushumlar:

**3-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga 3-ilova

**20\_\_ yil holatiga**

Boshqa byudjetlar bilan hisob - kitoblar kitobi

(20\_\_ yil holatiga byudjet va/yoki g'aznachilik bo'linmasi nomi)

Sana (oy, sana)	Memorial order №	O'tkazma mazmuni	Hisobvaraqlar № _____		Hisobvaraqlar _____	
			Olingan va berilgan mablag'lar		O'zaro hisob-kitob	
			aylanma		aylanma	
			jami	Shu jumladan joriy chorakda	debet	
			debet	debet	shu jumladan	
			kredit	kredit	I - chorak.	II - chorak.
					jami	III - chorak.
						IV- cho- rak.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
hisobvaraqlar № № — (byudjetdan ssuda, berilgan (olingan))												
Aylanma							qoldiq					
	kredit			jami		jami		Aylanma		qoldiq		
Jami	shu jumladan			debet	kredit	debet	kredit	debet	kredit	debet	kredit	
	I - chorak.	II - chorak.	III - chorak.	IV - chorak.								
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25

**4-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetidan tashqari jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar refasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga 4-ilova

**20\_\_ yil holatiga**

Byudjet ssudalari bo'yicha ma'lumotlar kitobi

(20\_\_ yil holatiga byudjet, jamg'arma va/yoki g'aznachilik bo'linmasi nomi)

N<sup>o</sup> \_\_\_\_\_ «\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ yildagi shartnoma **Qaytarish muddati «\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.**

Sana (oy, sana)	Memorial order №	O'tkazma mazmuni	Aylanma		Qoldiq	
			debet	kredit	debet	kredit
1	2	3	4	5	6	7

**5-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti,  
davlat maqsadliva boshqa jamg'armalar  
byudjetlari hamda byudjet tashkilotlarining  
byudjetdan tashqari jamg'armalari g'azna  
ijrosi byudjet hisobining Yagona hisobvaraqlar  
rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga 5-  
ilova

G'azna ijrosi bo'yicha kunlik

**Memorial order № \_\_\_\_\_**

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil holatiga yozuv.

(so'mda)

Asos (o'tkazma mazmuni yoki tegishli hujjatlarga belgi)	Debet aylanma	Kredit aylanma	Summa

ilova: \_\_\_\_\_ varaqda

**Buxgalteriya hisobi va hisoboti**

**bo'yicha mas'ul shaxs**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.O)

**6-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti,  
davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar  
byudjetlari hamda byudjet  
tashkilotlarining byudjetdan tashqari  
jamg'armalari g'azna ijrosi byudjet  
hisobining Yagona hisobvaraqlar rejasini  
qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga 6-ilova

(g'aznachilik bo'linmasi nomi)

« \_ » \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil holatiga

Yagona g'azna hisobvarag'iga daromadlar tushumi bo'yicha ma'lumotnoma

(so'mda)

№	Byudjet tasnifi kodlari		Daromad nomi	Summasi
	Bo'lim	Kichik bo'lim		
	<b>JAMI:</b>			
	<b>Aniqlanmagan tushum</b>			

**Buxgalteriya hisobi va hisoboti**

bo'yicha mas'ul shaxs

(imzo)

(F.I.O)

O'zbekiston Respublikasi \_\_\_\_\_ (MAHALLIY) byudjeti ijrosi  
to'g'risida

**CH O R A K L I K H I S O B O T**

\_\_\_\_\_ 20\_\_ yil holatiga

**I. BYUDJET IJROSI BALANSI**

O'lchov birligi: ming so'm

<b>AKTIV</b>	<b>Qa- tor- lar</b>	<b>Subs- chyot- lar raqami</b>	<b>Yil bo- shiga qol- diq</b>	<b>Hisobot davri oxiriga qoldiq</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>1. PUL MABLAG'LARI.</b>				
Mahalliy byudjetlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetlarini milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0210		
Mahalliy byudjetlar tuman (shahar)lar byudjetlarining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0220		
Davlat byudjetining boshqa (bank) hisobvaraqlardagi milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0700		
Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning boshqa (bank) hisobvaraqlardagi milliy valyutadagi mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0800		
Milliy valyutadagi aniqlanmagan tushum mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0900		
Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish		101400		

jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	1000		
Byudjet tashkilotlarini Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun o'tkazib bergan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 2000		
Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 3000		
Byudjet tashkilotlarini o'tgan yillar debitorlik qarzlarning qaytarilishi hisobidan tushgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 4000		
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 5000		
Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi (musiq va san'at maktablari) pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 6000		
Byudjet tashkilotlarda ishlovchi xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan milliy valyutada tushadigan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 7000		
Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 8000		
O'quv muassasalarida to'lov kontrakti asosida tushgan milliy valyutadagi pul	101400 9000		

mablag'larni hisobga oluvchi schyot				
Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101401 0000		
Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101401 1000		
Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi depozitlarni hisobga oluvchi schyot		101401 2000		
Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun milliy valyutada undirilgan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101401 3000		
Byudjet tashkilotlarining taqsimlanishi nazarda tutilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101401 4000		
Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101401 5000		
Byudjet tashkilotlarini boshqa mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi depozitlarini hisobga oluvchi schyot		101401 6000		
Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari bo'yicha milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101500 0000		
Milliy valyutadagi kredit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101600 0000		
Byudjet tashkilotlarining valyutadagi hisobvaraqlari		102000 0000		

Pul mablag'larini konvertatsiya qilish uchun hisobvaraqa	601000 0300		
Mahalliy byudjetning milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot	601100 0200		
Byudjet Tashkilotlarining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot	601400 1100		
Byudjet Tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot	601400 2100		
Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot	601400 3100		
Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalar milliy valyutadagi tushumlaridan naqd pul mablag'i olish uchun tranzit schyot	601400 6100		
O'quv muassasalarida o'qishdan tushayotgan milliy valyutadagi pul mablag'lar hisobidan naqd pul olish tranzit schyot	601400 9100		
Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari milliy valyutadagi jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot	601401 0100		
Taqsimlanishi nazarda tutilgan milliy valyutadagi tushumlar (tibbiyot)	601401 4100		

muassasalari uchun) hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyoti				
Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun milliy valyutadagi otonalar to'lovi hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyoti		601401 5100		
Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari bo'yicha milliy valyutadagi jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601500 0100		
Milliy valyutadagi kredit mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601600 0100		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari milliy valyutadagi ichki depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601491 1100		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari milliy valyutadagi tashqi depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601491 2100		
<b>JAMI</b>		x		
<b>2. XARAJATLAR.</b>				
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan milliy valyutadagi jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar		201000 0000		
Byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan milliy valyutadagi jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar		211000 0000		
Byudjet tashkilotlarini Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyot		241000 0000		
Byudjet tashkilotlari va byudjet		251000		

mablag'larini oluvchilarning byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan (o'tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko'ra aniqlangan o'zlashtirishlarni ) milliy valyutadagi mablag'lari bo'yicha jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyot	0000		
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan xorijiy valyutadagi jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar	202000 0000		
Byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy valyutadagi jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	212000 0000		
<b>3. BERILGAN SSUDALAR.</b>			
Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot	631100 0100		
Mahalliy byudjetlarda yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot	631100 0200		
<b>4. HISOB-KITOBLAR.</b>			
Milliy valyutadagi respublika byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot	641100 0100		
Milliy valyutadagi mahalliy byudjetlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot	641100 0200		
Milliy valyutadagi davlat byudjeti bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zaro-hisob kitoblarni hisobga oluvchi schyot	641100 0300		
<b>6. O'TKAZIB BERILGAN MABLAGLAR.</b>			
Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'larni hisobga oluvchi schyot	651100 0100		
Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan	661100		

mablag'lar		0200		
<b>BALANS</b>		x		
<b>PASSIV</b>	<b>Qa- tor- lar</b>	<b>Subsch etlar rakami</b>	<b>Yil bo- shiga qol- dik</b>	<b>Hisobot davri oxiriga qoldiq</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>7. DAROMADLAR.</b>				
Davlat byudjetini milliy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		401000 0000		
Byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari jamg'armalari milliy valyutadagi mablag'lari bo'yicha kassa daromadlarni hisobga oluvchi schyot		411000 0000		
Byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga pensiya jamg'armasi to'lovlari bo'yicha milliy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		441000 0000		
O'tgan yilgi debitorlik qarzdorliklar, kamomadlar, tekshiruv natijasiga ko'ra to'lovlar bo'yicha milliy valyutadagi kassa daromadlarni hisobga oluvchi schyot		451000 0000		
G'aznachilikda milliy valyutadagi aniqlanmagan tushumlar		461000 0000		
Davlat byudjetining xorijiy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		402000 0000		
Byudjet tashkilotlarining valyuta hisobraqamidagi mablag'lar tushumi		412000 0000		
G'aznachilikda xorijiy valyutadagi aniqlanmagan tushumlar		462000 0000		
<b>8. HISOB-KITOBBLAR.</b>				
Milliy valyutadagi respublika byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi		641100 0100		

schyot				
Milliy valyutadagi mahalliy byudjetlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0200		
Milliy valyutadagi davlat byudjeti bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zaro-hisob kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0300		
<b>9. OLINGAN SSUDA</b>				
Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0100		
Mahalliy byudjetlarda yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0200		
<b>10. OLINGAN MABLAGLAR.</b>				
Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'larni hisobga oluvchi schyot		651100 0100		
Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag'lar		661100 0200		
<b>11. NATIJALAR.</b>				
Byudjet mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		901200 0000		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		911200 0000		
Byudjet tashkilotlarni Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyotlar		941200 0000		
O'tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko'ra byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan		951200 0000		

mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot				
<b>BALANS</b>				

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Moliya organi rahbari**

\_\_\_\_\_  
(F.I.O)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i**

\_\_\_\_\_  
(F.I.O)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Byudjet bo'limi boshlig'i**

\_\_\_\_\_  
(F.I.O)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Moliya organi bosh hisobchisi**

\_\_\_\_\_  
(F.I.O)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**G'aznachilik bo'linmasi mas'ul shaxs**

\_\_\_\_\_  
(F.I.O)

20\_\_y. " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

<b>O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti ijrosi to'g'risida</b>				
<b>CH O R A K L I K H I S O B O T</b>				
<b>_____20__ yil holatiga</b>				
<b>I. BYUDJET IJROSI BALANSI</b>				
O'lchov birligi: ming so'm				
<b>AKTIV</b>	<b>Qa- tor- lar</b>	<b>Subsc hetlar raqa- mi</b>	<b>Yil boshi- ga qoldiq</b>	<b>Hiso- bot davri oxiriga qoldiq</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>1. PUL MABLAG'LARI.</b>				
O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0100		
Davlat byudjetining boshqa (bank) hisobvaraqlardagi milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0700		
Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning boshqa (bank) hisobvaraqlardagi milliy valyutadagi mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0800		
Milliy valyutadagi aniqlanmagan tushum mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0900		
Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 1000		

Byudjet tashkilotlarini Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun o'tkazib bergan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 2000		
Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 3000		
Byudjet tashkilotlarini o'tgan yillar debitorlik qarzlarning qaytarilishi hisobidan tushgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 4000		
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 5000		
Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi (musiq va san'at maktablari) pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 6000		
Byudjet tashkilotlarda ishlovchi xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan milliy valyutada tushadigan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 7000		

Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101400 8000		
O'quv muassasalarida to'lov kontrakti asosida tushgan milliy valyutadagi pul mablag'larni hisobga oluvchi schyot	101400 9000		
Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 0000		
Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 1000		
Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi depozitlarni hisobga oluvchi schyot	101401 2000		
Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun milliy valyutada undirilgan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 3000		
Byudjet tashkilotlarining taqsimlanishi nazarda tutilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 4000		
Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar	101401 5000		

tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot				
Byudjet tashkilotlarini boshqa mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi depozitlarini hisobga oluvchi schyot		101401 6000		
Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari buyicha milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101500 0000		
Milliy valyutadagi kredit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101600 0000		
Byudjet tashkilotlarining valyutadagi hisobvaraqlari		102000 0000		
Pul mablaglarini konvertatsiya qilish uchun hisobvarak		601000 0300		
Respublika byudjetining milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601100 0100		
Byudjet Tashkilotlarining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601400 1100		
Byudjet Tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601400 2100		
Tibbiyot muasasalarini moddiy		601400		

rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		3100		
Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar milliy valyutadagi tushumlaridan nakd pul mablag'i olish uchun tranzit schyot		601400 6100		
O'quv muassasalarida o'qishdan tushayotgan milliy valyutadagi pul mablag'lar hisobidan naqd pul olish tranzit schyot		601400 9100		
Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari milliy valyutadagi jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601401 0100		
Taqsimlanishi nazarda tutilgan milliy valyutadagi tushumlar (tibbiyot muassasalari uchun) hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyoti		601401 4100		
Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun milliy valyutadagi ota-onalar to'lovi hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyoti		601401 5100		
Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari bo'yicha milliy valyutadagi jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601500 0100		
Milliy valyutadagi kredit mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun		601600 0100		

tranzit schyot				
Davlat byudjetining milliy valyutadagi ichki depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601191 1100		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari milliy valyutadagi ichki depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601491 1100		
Davlat byudjetining milliy valyutadagi tashqi depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601191 2100		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari milliy valyutadagi tashqi depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601491 2100		
<b>2. AKTSIYA VA KAPITALDA ISHTIROK ETISH</b>				
Milliy valyutada ichki aktsiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllarini hisobga oluvchi schyot		601491 1400		
Milliy valyutada tashqi aktsiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllarini hisobga oluvchi schyot		601491 2400		
<b>JAMI</b>		x		
<b>3. XARAJATLAR.</b>				
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan milliy valyutadagi jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar		201000 0000		
Byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan milliy valyutadagi jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar		211000 0000		

Byudjet tashkilotlarini Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyot		241000 0000		
Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'larini oluvchilarning byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan (o'tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko'ra aniqlangan o'zlashtirishlarni ) milliy valyutadagi mablag'lari bo'yicha jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyot		251000 0000		
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan xorijiy valyutadagi jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar		202000 0000		
Byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy valyutadagi jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar		212000 0000		
<b>4. BERILGAN SSUDALAR.</b>				
Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0100		
Respublika byudjetidan rezident yuridik shxaxslarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0300		

Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamgʻarmalarga milliy valyutada berilgan ssudalarni hisobga oluvchi schyot		631100 0400		
<b>5. HISOB-KITOBLAR.</b>				
Milliy valyutadagi respublika byudjeti bilan oʻzaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0100		
Milliy valyutadagi davlat byudjeti bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa oʻzaro-hisob kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0300		
<b>6. OʻTKAZIB BERILGAN MABLAGLAR.</b>				
Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablagʻlarni hisobga oluvchi schyot		651100 0100		
<b>7. BERILGAN ICHKI VA TASHQI KREDIT.</b>				
Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga milliy valyutadagi berilgan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601491 1350		
Nodavlat notijorat tashkilotlarga milliy valyutadagi berilgan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601491 1360		
Moliyaviy tashkilotlarga milliy valyutadagi berilgan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601491 1370		
Milliy valyutadagi boshqa berilgan ichki kreditlashni hisobga oluvchi schyot		601491 1390		
Milliy valyutadagi tashqi berilgan		601491		

kredit va qarzlarni hisobga oluvchi schyot		2300		
<b>8. ICHKI VA TASHQI OLINGAN QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA</b>				
Milliy valyutadagi olingan qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar bundan mustasno)ni hisobga oluvchi schyot		601410 0100		
Milliy valyutada olingan tashqi qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar bundan mustasno)ni hisobga oluvchi schyot		601410 0200		
<b>BALANS</b>		x		
<b>PASSIV</b>				
	<b>Qa- tor- lar</b>	<b>Subsc hetlar raqa- mi</b>	<b>Yil boshi- ga qoldiq</b>	<b>Hiso- bot davri oxiriga qoldiq</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>9. DAROMADLAR.</b>				
Davlat byudjetini milliy valyutadagi kassa daromadlarini xisobga oluvchi schyot		401000 0000		
Byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari jamg'armalari milliy valyutadagi mablag'lari bo'yicha kassa daromadlarni hisobga oluvchi schyot		411000 0000		
Byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga pensiya jamg'armasi tulovlari bo'yicha milliy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		441000 0000		
O'tgan yilgi debitorlik karzdorliklar,		451000		

kamomadlar, tekshiruv natijasiga kura tulovlar bo'yicha milliy valyutadagi kassa daromadlarni xisobga oluvchi schyot		0000		
G'aznachilikda milliy valyutadagi aniklanmagan tushumlar		461000 0000		
Davlat byudjetining xorijiy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		402000 0000		
Byudjet tashkilotlarining valyuta xisobrakamidagi mablaglar tushumi		412000 0000		
G'aznachilikda xorijiy valyutadagi aniklanmagan tushumlar		462000 0000		
<b>10. HISOB-KITOBLAR.</b>				
Milliy valyutadagi respublika byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0100		
Milliy valyutadagi davlat byudjeti bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zaro-hisob kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0300		
<b>11. OLINGAN SSUDA</b>				
Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0100		
Respublika byudjetidan rezident yuridik shxaxslarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0300		
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarga milliy		631100 0400		

valyutada berilgan ssudalarni hisobga oluvchi schyot				
<b>12. OLINGAN ICHKI VA TASHQI KREDITLAR</b>				
Nomoliyaviy davlat tashkilotlaridan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 1240			
Nodavlat notijorat tashkilotlardan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 1250			
Moliyaviy tashkilotlardan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 1260			
Boshqa tashkilotlardan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 1290			
Xorijiy hukumatlardan olingan milliy valyutadagi kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 2210			
Xalqaro tashkilotlardan olingan milliy valyutadagi kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 2220			
Moliyaviy tashkilotlardan (xalqaro tashkilotlar bundan mustasno) olingan milliy valyutadagi kreditlarni hisobga oluvchi schyot	601492 2230			
<b>13. ICHKI VA TASHQI CHIQRILGAN QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA</b>				
Milliy valyutada chiqarilgan ichki qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar bundan mustasno) ni hisobga oluvchi schyot	601400 0100			
Milliy valyutada chiqarilgan tashqi	601400			

qimmatli qog'ozlar (aksiyalar bundan mustasno)ni hisobga oluvchi schyot		0200		
<b>14. OLINGAN MABLAGLAR.</b>				
Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'larni hisobga oluvchi schyot		651100 0100		
<b>15. NATIJALAR.</b>				
Byudjet mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		901200 0000		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		911200 0000		
Byudjet tashkilotlarni Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyotlar		941200 0000		
O'tgan yilning debitor qarzдорligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko'ra byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		951200 0000		
<b>BALANS</b>				
<b>Moliya organi rahbari</b>	_____			
	<b>(imzo)</b>			
	_____			
	<b>(F.I.O)</b>			

<b>G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i</b>	_____	<b>(imzo)</b>	
	_____	<b>(F.I.O)</b>	
<b>Byudjet bo'limi boshlig'i</b>	_____	<b>(imzo)</b>	
	_____	<b>(F.I.O)</b>	
<b>Moliya organi bosh hisobchisi</b>	_____	<b>(imzo)</b>	
	_____	<b>(F.I.O)</b>	
<b>G'aznachilik bo'linmasi mas'ul shaxs</b>	_____	<b>(imzo)</b>	
	_____	<b>(F.I.O)</b>	
20__y. " ____ " _____			

## O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosi to'g'risida

## CH O R A K L I K H I S O B O T

\_\_\_\_\_20\_\_ yil holatiga

## I. BYUDJET IJROSI BALANSI

O'lchov birligi: ming so'm

AKTIV	Qator- lar	Subsc hyot- lar raqa- mi	Yil boshiga qoldiq	Hisobot davri oxiriga qoldiq
1	2	3	4	5
<b>I. PUL MABLAG'LARI.</b> O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0100		
Maxalliy byudjetlarning Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shaxrining shaxar byudjetlarini milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0210		
Maxalliy byudjetlar tuman (shaxar)lar byudjetlarining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0220		
Davlat byudjetining boshka (bank) hisobvaraqlardagi milliy		101100 0700		

valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot				
Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning boshka (bank) hisobvaraqlardagi milliy valyutadagi mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0800		
Milliy valyutadagi aniklanmagan tushum mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101100 0900		
Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 1000		
Byudjet tashkilotlarini Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun o'tkazib bergan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 2000		
Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 3000		
Byudjet tashkilotlarini o'tgan yillar debitorlik qarzlarning qaytarilishi hisobidan tushgan milliy valyutadagi pul		101400 4000		

mablag'larini hisobga oluvchi schyot				
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 5000		
Maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi (musiqa va san'at maktablari) pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 6000		
Byudjet tashkilotlarda ishlovchi xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob-kitoblardan milliy valyutada tushadigan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 7000		
Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101400 8000		
O'quv muassasalarida to'lov kontrakti asosida tushgan milliy valyutadagi pul mablag'larni hisobga oluvchi schyot		101400 9000		
Ajratmalar hisobiga		101401		

shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	0000		
Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 1000		
Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi depozitlarni hisobga oluvchi schyot	101401 2000		
Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun milliy valyutada undirilgan pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 3000		
Byudjet tashkilotlarining taqsimlanishi nazarda tutilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 4000		
Boshqa ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan to'lab berilgan milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot	101401 5000		
Byudjet tashkilotlarini boshqa	101401		

mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi depozitlarini hisobga oluvchi schyot		6000		
Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari buyicha milliy valyutadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101500 0000		
Milliy valyutadagi kredit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		101600 0000		
Byudjet tashkilotlarining valyutadagi xisobvaraklari		102000 0000		
Pul mablaglarini konvertatsiya kilish uchun xisobvarak		601000 0300		
Respublika byudjetining milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601100 0100		
Mahalliy byudjetning milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601100 0200		
Byudjet Tashqilotlarining byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi pul mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601400 1100		
Byudjet Tashqilotlarining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashqari pensiya		601400 2100		

jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot				
Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601400 3100		
Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarda bolalar ta'minoti uchun ota-onalar milliy valyutadagi tushumlaridan nakd pul mablag'i olish uchun tranzit schyot		601400 6100		
O'quv muassasalarida o'qishdan tushayotgan milliy valyutadagi pul mablag'lar hisobidan naqd pul olish tranzit schyot		601400 9100		
Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari milliy valyutadagi jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601401 0100		
Taqsimlanishi nazarda tutilgan milliy valyutadagi tushumlar (tibbiyot muassasalari uchun) hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyoti		601401 4100		
Boshqa ta'lim muassasalarida		601401		

bolalar ta'minoti uchun milliy valyutadagi ota-onalar to'lovi hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyoti		5100	
Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari bo'yicha milliy valyutadagi jamg'armalari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601500 0100	
Milliy valyutadagi kredit mablag'lari hisobidan naqd pul olish uchun tranzit schyot		601600 0100	
Davlat byudjetining milliy valyutadagi ichki depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601191 1100	
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari milliy valyutadagi ichki depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601491 1100	
Davlat byudjetining milliy valyutadagi tashqi depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601191 2100	
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari milliy valyutadagi tashqi depozit mablag'larini hisobga oluvchi schyot		601491 2100	
<b>2. AKTSIYA VA KAPITALDA ISHTIROK ETISH</b>			

Milliy valyutada ichki aktsiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllarini hisobga oluvchi schyot		601491 1400		
Milliy valyutada tashqi aktsiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa shakllarini hisobga oluvchi schyot		601491 2400		
<b>JAMI</b>		x		
<b>3. XARAJATLAR.</b> Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan milliy valyutadagi jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar		201000 0000		
Byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan milliy valyutadagi jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar		211000 0000		
Byudjet tashkilotlarini Moliya vazirligi xuzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun milliy valyutadagi mablag'lari hisobidan jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyot		241000 0000		
Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'larini oluvchilarning byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan (o'tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko'ra		251000 0000		

aniqlangan o'zlashtirishlarni ) milliy valyutadagi mablag'lari bo'yicha jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyot				
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan xorijiy valyutadagi jami kassa xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar		202000 0000		
Byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan xorijiy valyutadagi jami kassa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar		212000 0000		
<b>4. BERILGAN SSUDALAR.</b>				
Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0100		
Mahalliy byudjetlarda yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0200		
Respublika byudjetidan rezident yuridik shchaxslarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0300		
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarga milliy valyutada berilgan ssudalarni hisobga		631100 0400		

oluvchi schyot				
<b>5. HISOB-KITOBLAR.</b>				
Milliy valyutadagi respublika byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0100		
Milliy valyutadagi mahalliy byudjetlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0200		
Milliy valyutadagi davlat byudjeti bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zaro-hisob kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0300		
<b>6. O'TKAZIB BERILGAN MABLAGLAR.</b>				
Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'larni hisobga oluvchi schyot		651100 0100		
Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag'lar		661100 0200		
<b>7. BERILGAN ICHKI VA TASHQI KREDIT</b>				
Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga milliy valyutadagi berilgan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601491 1350		
Nodavlat notijorat tashkilotlarga milliy valyutadagi berilgan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601491 1360		
Moliyaviy tashkilotlarga milliy valyutadagi berilgan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601491 1370		

Milliy valyutadagi boshqa berilgan ichki kreditlashni hisobga oluvchi schyot		601491 1390		
Milliy valyutadagi tashqi berilgan kredit va qarzlarni hisobga oluvchi schyot		601491 2300		
<b>8. ICHKI VA TASHQI OLINGAN QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA</b>				
Milliy valyutadagi olingan qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar bundan mustasno)ni hisobga oluvchi schyot		601410 0100		
Milliy valyutada olingan tashqi qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar bundan mustasno)ni hisobga oluvchi schyot		601410 0200		
<b>BALANS</b>		x		

<b>PASSIV</b>	<b>Kator- lar</b>	<b>Subsc hetlar raqa- mi</b>	<b>Yil- boshi- ga qoldiq</b>	<b>Xisobot davri oxiriga qoldiq</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>9. DAROMADLAR.</b>				
Davlat byudjetini milliy valyutadagi kassa daromadlarini xisobga oluvchi schyot		401000 0000		
Byudjet tashkilotlarini byudjetdan tashqari jamg'armalari milliy valyutadagi		411000 0000		

mablag'lari bo'yicha kassa daromadlarni hisobga oluvchi schyot				
Byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarga pensiya jamg'armasi tulovlari bo'yicha milliy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		441000 0000		
O'tgan yilgi debitorlik karzdorliklar, kamomadlar, tekshiruv natijasiga kura tulovlar bo'yicha milliy valyutadagi kassa daromadlarni xisobga oluvchi schyot		451000 0000		
G'aznachilikda milliy valyutadagi aniklanmagan tushumlar		461000 0000		
Davlat byudjetining xorijiy valyutadagi kassa daromadlarini hisobga oluvchi schyot		402000 0000		
Byudjet tashkilotlarining valyuta xisobrakamidagi mablaglar tushumi		412000 0000		
G'aznachilikda xorijiy valyutadagi aniklanmagan tushumlar		462000 0000		
<b>10. HISOB-KITOBLAR.</b>				
Milliy valyutadagi respublika byudjeti bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0100		
Milliy valyutadagi mahalliy byudjetlar bilan o'zaro hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyot		641100 0200		
Milliy valyutadagi davlat byudjeti		641100		

bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan boshqa o'zaro-hisob kitoblarni hisobga oluvchi schyot		0300		
<b>11. OLINGAN SSUDA</b>				
Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0100		
Mahalliy byudjetlarda yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0200		
Respublika byudjetidan rezident yuridik shchaxslarga berilgan milliy valyutadagi byudjet ssudalarini hisobga oluvchi schyot		631100 0300		
Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarga milliy valyutada berilgan ssudalarni hisobga oluvchi schyot		631100 0400		
<b>12. OLINGAN ICHKI VA TASHQI KREDITLAR</b>				
Nomoliyaviy davlat tashkilotlaridan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601492 1240		
Nodavlat notijorat tashkilotlardan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga		601492 1250		

oluvchi schyot				
Moliyaviy tashkilotlardan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601492 1260		
Boshqa tashkilotlardan milliy valyutada olingan ichki kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601492 1290		
Xorijiy hukumatlardan olingan milliy valyutadagi kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601492 2210		
Xalqaro tashkilotlardan olingan milliy valyutadagi kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601492 2220		
Moliyaviy tashkilotlardan (xalqaro tashkilotlar bundan mustasno) olingan milliy valyutadagi kreditlarni hisobga oluvchi schyot		601492 2230		
<b>13. ICHKI VA TASHQI CHIQRILGAN QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA</b>				
Milliy valyutada chiqarilgan ichki qimmatli qog'ozlar (aksiyalar bundan mustasno) ni hisobga oluvchi schyot		601400 0100		
Milliy valyutada chiqarilgan tashqi qimmatli qog'ozlar (aksiyalar bundan mustasno)ni hisobga oluvchi schyot		601400 0200		
<b>14. OLINGAN MABLAGLAR.</b>				
Respublika byudjetidan berilgan		651100		

va olingan mablag'larni hisobga oluvchi schyot		0100		
Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag'lar		661100 0200		
<b>15. NATIJALAR.</b>				
Byudjet mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchischyot		901200 0000		
Byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		911200 0000		
Byudjet tashkilotlarni Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyotlar		941200 0000		
O'tgan yilning debitor qarzdorligini, kamomadlarni, tekshiruv natijasiga ko'ra byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lari bo'yicha milliy valyutadagi moliyaviy kassa ijrosining natijalarini hisobga oluvchi schyot		951200 0000		
<b>BALANS</b>				

**Moliya organi rahbari** \_\_\_\_\_ (imzo)  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (F.I.O)

**G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i** \_\_\_\_\_ (imzo)  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (F.I.O)

**Byudjet bo'limi boshlig'i** \_\_\_\_\_ (imzo)  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (F.I.O)

**Moliya organi bosh hisobchisi** \_\_\_\_\_ (imzo)  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (F.I.O)

**G'aznachilik bo'linmasi mas'ul shaxs** \_\_\_\_\_ (imzo)  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ (F.I.O)

20\_\_y. "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>7</b>
<b>1-Mavzu “BYUDJET HISOBOTI” FANINING PRED- METI VA METODI” HAMDA USLUBIY ASOSLARI.....</b>	<b>6</b>
1.1. “Byudjet hisoboti” fanining predmeti, metodi, obyektlari va uslubiy asoslari.....	11
1.2. Byudjet hisobotlarining tarkibi, ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.....	13
1.3. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari.....	21
1.4. Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning normativ-uslubiy asoslari.....	23
1.5. Byudjet hisobotlarini tuzishda qo‘llaniladigan axborot tizimlari tarkibi.....	27
1.6. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablari.....	27
<b>2-Mavzu “BYUDJET TASHKILOTLARI VA BYUDJET MABLAG‘LARI OLUVCHILARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI” .....</b>	<b>37</b>
2.1. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari tarkibi ularni tuzishning maqsadi va xususiyatlari.....	37
2.2. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansini tuzilishi, ko‘rsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o‘zaro muvofiqligi.....	43

2.3. Xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risida hisobotni hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi.....	46
2.4. Byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hamda byudjet tashkilotlarida chet el valyuta mablag'larining harakati to'g'risidagi moliyaviy hisobotlari shakllarini tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi.....	55
2.5. Joriy yilga moliyaviy natijalar, nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risida hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi.....	65
2.6. Moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi.....	70

**3-Mavzu DAVLAT BYUDJETIGA VA DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BYUDJETLARIGA DAROMADLAR TUSHUMLARI TO'G'RISIDA HISOBOTLAR.....**

3.1. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar tarkibi va ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari.....	81
3.2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblanishi va tushumi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish hamda moliya organlariga taqdim etilishi tartibi. ....	87
3.3. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzish.....	93

## **1-Mavzu BYUDJET KASSA IJROSIGA OID**

<b>HISOBOTLAR.....</b>	<b>104</b>
4.1. G'aznachilik bo'linmalarida byudjet ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi, hamda xususiyatlari....	104
4.2. Hududiy g'azna tarnzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushimi hamda xarajatlari haqida kunlik hisobotlarni tuzish tartibi.....	108
4.3. G'aznachilik bo'limlarida Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.....	115
4.4. G'aznachilik bo'limlarida byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlari va ulardan foydalanish.....	125

## **5-Mavzu MOLIYA ORGANLARIDA DAVLAT BYUDJETI IJROSIGA OID HISOBOTLAR.....**

<b>132</b>	<b>132</b>
5.1. Moliya organlarida Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishning maqsadi, hamda xususiyatlari....	132
5.2. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini tuzilishi.....	138
5.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.....	141
5.4. Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobotlarni, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzish.....	143
5.5. Moliya organlarida byudjet tashkilotlariga tegishli moliyaviy hisobotlarni umumlashtirish.....	145

<b>6-Mavzu DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI BYUDJETI IJROSIGA OID HISOBOTLAR.....</b>	<b>150</b>
6.1. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi, hamda xususiyatlari....	150
6.2. Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning tashkiliy jihatlari.....	154
6.3. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.....	158
6.4. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti xarajatlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi.....	170
6.5. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.....	173

<b>7-Mavzu "BYUDJET IJROSIGA OID HISOBOTLARNI UMUM-LASHTIRISH, KO'RIB CHIQISH HAMDA TASDIQLASH TARTIBI".....</b>	<b>181</b>
7.1. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tashqi auditi va ularni baholash.....	181
7.2. Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman va shaharlar mahaliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlarni tasdiqlash tartibi.....	185
7.3. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi.....	187
7.4. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tasdiqlash tartibi.....	191

<b>8-Mavzu “BYUDJET HISOBOTLARINING AXBOROT IMKONI-YATLARI VA ULARNI TAXLILI” .....</b>	<b>198</b>
8.1. Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.....	198
8.2. G‘aznachilik bo‘limlari tomonidan tuziladigan byudjet ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.....	204
8.3. Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarning axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.....	207
8.4. Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida byudjet hisobotlari axborot imkoniyatlarini takomillashtirish.....	209
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>215</b>
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>223</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>228</b>

A.TUYCHIEV, K.IBRAGIMOV

# BYUDJET HISOBOTI

O'quv qo'llanma

*Muharrir* **N. Artikova**

*Badiiy muharrir* **K. Boyxo'jayev**

*Kompyuterda sahifalovchi* **Z. Ulug'bekova**